

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNAL

2021-yil, 1-son, noyabr-dekabr

2021



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ
TA'LIMI MUAMMOLARINI O'RGANISH
VA ISTIQBOLLARINI BELGILASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



A.AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI MUAMMOLARINI O'RGANISH VA
ISTIQBOLLARINI BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTINING
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNALI

Scientific-theoretical and educational-methodical journal
Scientific Research Institute for Studying the Issues and Determining the
Perspectives of Public Education named A.Avloni

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PUBLIC EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2021

1

(noyabr-dekabr)



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

Bosh muharrir:

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

Mas'ul kotib:

ABDULLAYEV Farrux Rustam o'g'li

Dizayner:

DONIYOROV Sanjar

Adabiy tahrirchilar:

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna

NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

Tahrir hay'ati:

PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich,
SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich
RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna,
MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna
XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich,
XALIKOV A'zam Abdusalomovich
KARIMOV Farxod Erkinovich,
BAXRAMOV Anvar Axrarovich
XIDOYATOVA Dilafroz Abdugaffarovna,
AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich
IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich,
BOTIROV Hamid Hakimovich
ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich,
RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy-
tadqiqot instituti

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan
chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar Agentligining
2021-yil 8-noyabrdagi 1459-raqamli
guvohnoma berilgan.

Bahosi kelishilgan narxda.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo
ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

© "Xalq ta'limi: muammolar,
izlanishlar, yechimlar" jurnali,
2021.

MUNDARIJA

Xalq ta’limi vazirining ustozlar, ota-onalar va keng jamoatchilik vakillariga murojaati		5
V.Rajapov	Mamlakat kelajagi uchun mas’ullik hissi	15
UMUMIY O’RTA TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI		
A.Radjiyev F.Karimov	UNESKO, UNISEF, Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Ta’limni tiklash saboqlari: COVID-19 pandemiyasi sharoitida ta’lim sohasidagi vazirliklari o’rtasida o’tkazilgan so’rovnoma” natijalari bo’yicha hisobot tahlili	25
M.Pardayeva	Pedagogik transformatsiyada axboriy ta’minot – kasbiy rivojlanishning raqamlashtirilgan muhiti: muammo va yechimlari	55
A.Baxramov	Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish: davriylikdan uzluksizlikka o’tish masalalari	63
D.Kurbanova	XXI asrda ta’lim sohasidagi muammo va yechimlar	69
H.Botirov M.Vohidova	Boshlang’ich ta’lim mazmunini takomillashtirish zarurati yuzasidan dastlabki aniqlangan muammolar	75
TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI		
G.Amanova	Androgogika - kattalar auditoriyasiga ta’lim berish asosi	87
G.Khodjayeva	Dars rejalari: dars sifatini belgilovchi muhim omil sifatida	97
G.Ganiyeva	Musiqa madaniyati darslarida tinglash, jamoa bo’lib kuylash, musiqa savodi va musiqa ijodkorligi faoliyatlarini tashkil etish usullari	103
ILG’OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR		
A.Nasirov	Finlyandiyada tillar o’qitilishi tajribasi	115

TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI		
F.Ro'ziqulov	O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tajribalarni tadbiq etishning ayrim masalalari	127
O.Musurmonqulova	Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ishlarida trenerlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari	135
TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYLARI VA RAQAMLASHTIRISH		
Sh.Karimov	Elektron o'quv kurslarni ishlab chiqishdagi talab va tavsiyalar	147
TA'LIMDA MENEJMENT		
T.Xalilov	RBM (Result Based Management) tamoyillarining mazmun-mohiyati va xususiyatlari	159
XALQ TA'LIMI STATISTIKASI		
A.Ibragimov, I.Muradov	O'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog kadrlar buyurtmasini shakllantirish – kelajak poydevori	167
PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA		
U.Qodirov	Mutaxassislarda mas'uliyat shakllanishining psixologik jihatlar	179
PROFESSIONAL TA'LIM		
Q.Oqilov	Ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlashda mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasbga tayyorlashning ahamiyati	187

HURMATLI O'QITUVCHILAR, AZIZ OTA-ONALAR!

Xalq ta'limi vaziri lavozimiga kirishganimga ko'p fursat o'tmadi. Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimiz kelajagini belgilab beruvchi o'ta mas'uliyatli sohaning menga topshirilishi, so'zsiz, juda katta javobgarlikni yukladi.

Ta'kidlash joizki, faoliyatimning ilk kunidanoq tizimda bugungacha amalga oshirilgan va qilinishi lozim bo'lgan ishlar bilan ozmi-ko'pmi tanishdim. Darhaqiqat, qilingan ishlar ko'pligi kabi qilinadigan ishlar ham undan kam emas. **Bugun yechimi kechikayotgan har bir muammo ertaga falokatga aylanishiga shak-shubha yo'q.**



Saidov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vaziri

E'tiborli jihati, lavozimga kirishganimning ilk kunlari xizmat safari bilan Jizzaxga bordim. Joylardagi maktablarga kirdim, holat bilan tanishdim.

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Dilfuza Sadriddinovaning aytgan bir gapi menga juda qattiq ta'sir qildi. Afsuski, bugun ayrim ota-onalar orasida farzandlariga:

"O'qigin bolam, hech bo'lmasa o'qituvchi bo'lasan", deganlari ham uchrayotgan ekan. Bu gap menga juda og'ir botdi. Bugun bizning oldimizda turgan birinchi galdagi vazifa mana shunday noto'g'ri qarashni yo'q qilish!

Bir insonning mustaqil va yetuk shaxs sifatida kamol topishida maktabning



roli juda katta. **Aynan maktabda insonning “Men” degan tushunchasi shakllanadi.** Shuning o'zi mazkur sohada faoliyat yuritayotgan har bir insonning oldiga ulkan mas'uliyat, ya'ni bir shaxs taqdiri orqali millat, davlat va kelajagimizning taqdiriga javobgarlik yotganini anglatadi.

Buning uchun, avvalo, pedagoglarning, o'qituvchilik kasbining mavqeyini ko'tarishimiz kerak. To'g'ri, tan olish kerak, o'qituvchilarning ham barchasi birdek emas. *Fidoyi o'qituvchilar bor, afsuski, bu kasbga adashib yoki ilojsizlikdan kirib qolgan o'qituvchilar ham bor.* Lekin o'qituvchilik va fidoyilik tushunchalari doimo hamohang bo'lgan. O'qituvchi zimmasidagi mas'uliyatni ich-ichidan his qilishi kerak. Kelajagimiz taqdiri o'qituvchilarimiz qo'lida.

Inson borki, farzandim, deb yashaydi! Bas, shunday ekan, xalq ta'limi sohasiga hech birimizning befarq bo'lishga haqqimiz yo'q! Konimex, Qonliko'l, Sherobod, Olot degan chekka hududlarimiz bor. U yerdagi ota-onalar hamda bolalarning kelajakka ishonchini uyg'otish o'z qo'limizda. Ota-ona: *“O'qib dunyo olib berarmiding, chiq, tomorqada ishla”,* deb emas, *“O'qi, bilim ol, bolam, kelajakda buyuk inson bo'lasan!”* deb yashashi lozim. Muhandis bo'laman, olim, vazir yoki shifokor bo'laman, degan **bolaning shahdi sinishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim.** Oldimizda turgan asosiy vazifa – bolaning ham, ota-onaning ham o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish!

Buyuk faylasuf Aristotel shunday degan: *“Ta'limning ildizlari achchiq, lekin mevasi shirin”.* Bugungi achchiq mehnatimiz, albatta, kelajakda o'zining shirin mevasini beradi. *Bugun biz xalq ta'limi tizimidagi 7 million aholi taqdiri orqali butun xalqimiz, vatanimiz kelajagiga ta'sir o'tkazamiz.* Buning javobgarligini har bir sohada faoliyat yuritayotgan inson his qilishi lozim. Har birimiz ta'lim rivoji uchun nima qila olaman, degan o'y bilan yashasak, maqsadimizga erishamiz. Bugun jamoaning oldiga aynan mana shu vazifani qo'ydim va bu yo'lda ular men bilan kamarbasta bo'lishlariga ishonaman.

DAVLATIMIZ RAHBARI TOMONIDAN YARATIB BERILGAN IMKONIYAT VA YUKSAK ISHONCHNI OQLASHIMIZ ZARUR!

2021-yil 24-noyabr

УВАЖАЕМЫЕ УЧИТЕЛЯ, ДОРОГИЕ РОДИТЕЛИ!

Прошло несколько дней с тех пор, как я вступил в должность министра народного образования. То, что Глава нашего государства доверил мне очень ответственное направление, определяющее будущее нашей страны, возложило на меня большую ответственность.

С первого дня своей деятельности я более-менее успел ознакомиться с проделанной в сфере работой и планами на будущее. Необходимо отметить: действительно проделана большая работа, но и предстоит еще сделать немало. Любая проблема, отложенная сегодня, завтра может обернуться катастрофой для всей нации.



Саидов Бахтиёр Одилевич
*Министр народного
образования Республики
Узбекистан*

В первые дни пребывания в должности я совершил рабочий визит в Джизак, посетил школы и ознакомился с имеющейся ситуацией.

Мне было очень больно, когда я услышал слова начальника областного управления народного образования Дильфузы Садриддиновой. **К сожалению, оказывается, сегодня родители говорят своим детям так: «Учись, хотя бы станешь учителем». Первая задача, стоящая перед нами сегодня, - искоренить подобное заблуждение!**

Роль школы в развитии самостоятельной и зрелой личности огромна. **Именно в школе формируется «Я» человека.** Это означает, что каждый, кто работает в этой сфере, несет огромную ответственность за судьбу нашего



народа, государства и его будущего через судьбу каждого ученика.

Для этого мы должны сначала поднять статус учителя и его профессии. Правда, надо признать, что не все учителя одинаковые. *Есть преданные своему делу учителя, но, к сожалению, есть и учителя, которые в прямом смысле заблудились в этой профессии.* Но понятия «учитель» и «преданность» всегда идут вместе. Учитель должен внутренне чувствовать ответственность за судьбу нашего будущего поколения.

Люди живут ради своих детей! Поэтому никто из нас не имеет права оставаться равнодушным к сфере народного образования. У нас есть отдаленные районы, такие как Канимех, Канлыкуль, Шерабад, Алат. Наша обязанность - во всех уголках страны вдохновить родителей и детей, дать им уверенность в завтрашнем дне. Родители должны жить, говоря: *«Учись, учись, дитя мое, ты будешь великим человеком!»*. Мы не должны позволять ребенку, который желает стать инженером, ученым или врачом, сломаться и потерять мечту. Перед нами стоит главная задача – поощрять и приумножать стремление в получении новых знаний как у ребенка, так и у родителя!

Великий философ Аристотель сказал: *«Корни знания горьки, но плод сладок»*. Наш сегодняшний горький труд обязательно принесет свои сладкие плоды в будущем. *Сегодня мы влияем на будущее нашего народа через судьбу 7 миллионов человек в системе народного образования.* Ответственность за это должен чувствовать каждый, работающий в нашей сфере. Если каждый из нас будет жить с мыслью о том, что мы можем сделать для развития образования, мы достигнем своей цели. Это именно та задача, которую я сегодня поставил перед своей командой, и я надеюсь, что они будут со мной на протяжении всего пути.

**МЫ ДОЛЖНЫ ОПРАВДАТЬ ВЫСОКОЕ ДОВЕРИЕ НАШЕГО
ГОСУДАРСТВА!**

24 ноября 2021 года

HURMATLI USTOZLAR, OTA-ONALAR VA KENG JAMOATCHILIK VAKILLARI!

Aholining xalq ta'limi tizimini o'rganishi maqsadida qilgan murojaatimdan so'ng Sizlardan juda ko'plab taklif, fikr va mulohazalar kelib tushdi. ***Ta'lim sohasiga bo'lgan bunday e'tiborni ko'rib, to'g'risi, juda quvondim.***

Mas'ul xodimlar ko'magida imkon qadar har bir murojaat bilan tanishib chiqishga harakat qildik, zarurlari tegishli mutasaddilarga yo'naltirildi.

Xabaringiz bo'lsa, o'tgan haftada vazirlik vakillaridan iborat ishchi guruh bilan birgalikda 3 ta viloyatda bo'ldik. Maktablarning sharoitlarini o'rgandik. To'g'risi, ahvol qoniqarli emas. Afsuski, maktablarimizda ta'lim sifatini yaxshilash uchun juda katta va ko'p ishlar qilishimiz kerak.

Davlatimiz rahbari ta'lim tizimi, farzandlarimizning kelajagi haqida juda kuyunyaptilar va eng oliy vazifamiz deb belgilayaptilar. Shu bois, kerak bo'lsa, har bir hudud rahbaridan bugun o'z viloyat va tumanidagi barcha maktablar sharoitini bilish talab etiladi. Joylarda fan o'qituvchilarining bilim va saviyasini oshirishimiz kerak.

Ayrim o'qituvchilar bilan suhbatlashdim, afsuski, hatto o'z fani bo'yicha oddiy savolga ham javobni bilmaydigan o'qituvchilar bor ekan.

Xo'sh, nima qilish kerak? Viloyatda, tumanda, maktabda hatto bir nafar yaxshi pedagog bo'lsa ham foydalanib, kerak bo'lsa uni qolgan hamkasblariga mahorat darsi o'tkazishga jalb etgan holda maktablarda ta'lim sifatini oshirishimiz kerak. Sinfda 20 nafar boladan 18 nafari fanni zo'r bilsa, bilingki, bu o'sha fan o'qituvchisining yutug'i, demak, u o'quvchilarini o'z faniga qiziqтира olgan. Agar shu sinf o'quvchilaridan 1-2 nafarigina fandan bilimi kuchli bo'lsa, demak, u iqtidorli o'quvchi yoxud ota-onasi repetitorga bergan, o'qituvchi esa dars vaqtida o'z fanini yetkazib bera olmayotganligidan dalolat.

To'g'ri, maktabda sharoit yo'q, dersiz, lekin o'qituvchi o'sha yerda vaqtini ketkazib o'tiribdi-ku, jonkuyarlik bo'lmasa, nima qiladi bu kasbni tanlab?! Uning qo'lida inson taqdiri yotibdi! **Maktablarda sharoit, infratuzilma yaxshilanishini kutsak, bolalarni yo'qotamiz.**

Menga kelgan murojaatlardan ko'rinib turibdiki, joylardagi ayrim maktablarda muhit yaxshi emas. Mazkur maktablardagi muhitni yaxshilashga hatto hudud xalq ta'limi rahbarining ham kuchi yetmayapti.



O'qituvchilar o'z murojaatlarida meni maktablariga borib, sharoitni o'rganishga taklif qilgan. Qani edi, hamma maktablarga birdaniga borishga imkonim bo'lsa, har birining holatini o'rganib, shaxsan nazoratga olardim. Bunga vaqt kerak, lekin, albatta, hammasiga boramiz. Bu yo'nalishda hududiy rahbarlar bilan tizimli ish tashkil qilishga kelishib oldik. Hudud rahbarlarining mas'uliyati hamda vakolatini yanada oshiramiz.

Mulohazalarda qayd etilganidek, biz bilimli, jonkuyar va fidoyi kadrlarni topishimiz kerak. Buning uchun, kerak bo'lsa, pedagogika universitetlari bilan hamkorlikni kuchaytiramiz. Har bir bitiruvchi bilan suhbatlashib, eng yaxshilarini maktablarga jalb etamiz.

Shu o'rinda barchangizga yuborilgan fikr va mulohazalaringiz uchun minnat-dorlik bildirmoqchiman. Sizlardan kelgan har bir mulohaza va taklifdan kelgusi ish faoliyatimizda foydalanamiz.

Saidov Baxtiyor Odilovich

O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta'limi vaziri

2021-yil 29-noyabr

УВАЖАЕМЫЕ УЧИТЕЛЯ, РОДИТЕЛИ И ПРЕДСТАВИТЕЛИ ШИРОКОЙ ОБЩЕСТВЕННОСТИ!

В результате моего первого обращения я получил от вас много предложений, мнений и комментариев. **Я был действительно рад видеть такое большое внимание общественности к системе народного образования.**

С помощью ответственных лиц министерства мы постарались максимально подробно ознакомиться с каждым из них, при необходимости обращения были переданы на рассмотрение соответствующим должностным лицам.

Как вам известно, на прошлой неделе вместе с рабочей группой, состоящей из представителей министерства, мы посетили 3 области. Мы изучали условия в школах. Если честно, ситуация неутешительная. К сожалению, нам предстоит проделать большую работу по повышению качества образования в школах.

Глава нашего Государства очень обеспокоен системой образования, будущим наших детей и отмечает его приоритетным направлением. Поэтому, при необходимости, сегодня каждый руководитель областного управления народного образования должен знать состояние каждой ему относящейся школы. Перед нами стоит большая задача по повышению знаний и уровней учителей предметников.

Я разговаривал с несколькими учителями, к сожалению, некоторые из них не знают даже свой предмет.

Что же делать? Надо повышать качество образования в школах, используя даже хорошего учителя в области, районе, школе, и при необходимости привлекать их к проведению мастер-классов для остальных коллег. Если 18 из 20 детей в классе хорошо знают предмет, это означает, что учитель смог заинтересовать своих учеников к своему предмету.

Если только 1-2 ученика в этом классе обладают глубокими знаниями по данному предмету, это означает, что это одаренный ученик или родитель платит репетитору, а учитель просто не способен заинтересовать детей своим предметом.

Возможно вы сейчас скажите, что в школах нет необходимых условий.



Но, учитель так или иначе проводит там свое время. А если у педагога нет преданности к своей профессии, зачем выбирать её. Ведь в его руках судьба человека! **Если мы будем ждать улучшения условий и инфраструктуры в школах, мы потеряем детей.**

Многие из вас для изучения условий пригласили меня в школы. Если бы у меня была возможность посетить все школы сразу, я взял бы под личный контроль каждую из них. Но на это потребуется время и мы обязательно сделаем все возможное для этого. С руководителями ОбЛУНО мы договорились организовать планомерную работу в каждом направлении.

Каквами было отмечено в комментариях, сейчас перед нами стоит задача найти преданных своему делу людей. С этой целью при необходимости будем укреплять сотрудничество с педагогическими ВУЗами. Мы будем беседовать с каждым выпускником и привлекать в школы лучших из лучших.

В свою очередь я хотел бы поблагодарить всех вас за ваши отзывы и пожелания. Мы будем работать над каждым из них в нашей дальнейшей работе.

Саидов Бахтиёр Одилович

*Министр народного образования
Республики Узбекистан*

29 ноября 2021 года

**HURMATLI O'QITUVCHILAR,
OTA-ONALAR VA XALQ TA'LIMI TIZIMIGA BEFARQ BO'LMAGAN
JAMOATCHILIK VAKILLARI!**

Xabaringiz bor: Xalq ta'limi vaziri sifatida faoliyat boshlagan ilk kunlarda **xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha kelgusi 5 yillik Milliy dastur** ishlab chiqilayotgani munosabati bilan sizlardan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish yuzasidan taklif va mulohazalar so'ragan edim.

Quvonarlisi, o'tgan vaqt mobaynida xalq ta'limi tizimiga befarq bo'lmagan fuqarolardan **7 mingdan ortiq takliflar** kelib tushdi. Takliflarning qariyb **25 foizi ota-onalar, 70 foizi tizim xodimlari va 5 foizdan ortig'i boshqa soha vakillaridan** kelib tushgan. Vazirlik jamoasi bilan birgalikda sizlardan kelib tushgan har bir taklif va mulohazalarni o'rgandik va tahlil qildik.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, ota-onalarning aksariyat qismi sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish, pedagog xodimlarning sifat darajasi, o'qituvchilar va sinf xonalarning yetishmasligi, shu bilan birga, darsliklar sifati va darsliklarning yetishmasligi haqida fikrlar bildirgan. Tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlar esa, asosan, *o'qituvchi maqomini oshirish, pedagoglarning dars stavkalarini boshlang'ich sinflarda 18 soatdan 16 soatga tushirish, dars taqsimoti, oylik ish haqi va sertifikatsiyalash tizimi* kabi ko'plab takliflarini yo'llagan.

Siz tomondan yuborilgan har bir taklifning ahamiyatini inobatga olib, ularning barchasi vazirlik jamoasi tomonidan o'rganilib, *2022-2026 yillarda maktab ta'limi rivojlantirish Milliy dasturi loyihasiga kiritildi va yaqin yillarda joriy qilinadi.*

Bugun davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ta'lim-tarbiya sohasida yangi davr boshlangan. Uni yanada yuksaltirish faqat va faqat o'zimizga, hamjihatligimizga va kelajak avlodning salohiyatli va bilimli bo'lib ulg'ayishi uchun qattiq mehnat qilishimizga bog'liq.

Hayotini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar mehnati har qanday yuksak baholarga munosibdir va biz bunga erishish uchun barcha kuchimizni safarbar etamiz.

Saidov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri

2021-yil 12-dekabr



УВАЖАЕМЫЕ УЧИТЕЛЯ, РОДИТЕЛИ И ПРЕДСТАВИТЕЛИ ОБЩЕСТВЕННОСТИ, НЕРАВНОДУШНЫЕ К СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ!

Как вам известно, в первые дни моего пребывания на посту министра, в связи с разработкой **следующей 5-летней Национальной программы развития народного образования**, я предложил внести ваши предложения и пожелания по развитию системы народного образования.

За прошедший период поступило более **7000 предложений** от граждан, неравнодушных к системе народного образования. Около **25 процентов из них поступило от родителей, 70 процентов - от сотрудников системы и более 5 процентов - от других неравнодушных граждан**. Вместе с командой министерства мы изучили и проанализировали каждое ваше предложение.

Анализ показал, что большинство родителей предлагали сократить количество учеников в классах, решить нехватку учителей и классов, улучшить качество преподавательского, а также учебников. Сотрудники системы внесли множество предложений о повышении *статуса учителей, снижении ставки учителей в начальных классах с 18 до 16 часов, распределении уроков, о повышении заработной платы и системе аттестации*.

Учитывая важность каждого предложения, все они были изучены командой министерства, *включены в проект Национальной программы развития школьного образования на 2022-2026 годы и будут реализованы в ближайшие годы*.

Сегодня по инициативе главы нашего государства идет новая эра в сфере образования. Дальнейшее ее развитие зависит исключительно от нас самих, нашей сплоченности и упорной работы, направленной на воспитание гармонично и интеллектуально развитого, образованного поколения.

Саидов Бахтиёр Одилович

*Министр народного образования
Республики Узбекистан*

29 ноября 2021 года

Voxobjon Turajanovich RAJAPOV,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

vaziri o'rinbosari

MAMLAKAT KELAJAGI UCHUN MAS'ULLIK HISSI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi keng jamoatchilik o'rtasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston aholisi va xalqaro jamoatchilik Prezidentning har galgi chiqishlarini katta qiziqish bilan kutib oldi. Mamlakatimizdagi islohotlar, jamiyatlardagi yangi tamoyillarni hayajon bilan kuzatgan hamda davlatimiz rahbarining murojaati, nutqi va mulohazalarini ko'p bor ko'rgan, tinglagan, e'tirof etgan. Biroq “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri savollariga javobi — Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik davrida amalga oshirilgan ishlarga yangicha formatdagi tahlili o'laroq, matbuotda e'lon qilingani alohida ahamiyatga ega ekanligi bois barchaning e'tiborini tortdi.

Xo'sh, bu o'ziga xoslik dastavval, nimalarda ko'zga tashlanadi? Avvalo, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bosib o'tgan 30 yillik tarixiy davrda amalga oshirilgan demokratik o'zgarish, ijtimoiy-siyosiy jarayon, yangilanishlarning mazmun-mohiyati, ozod va erkin, adolatli jamiyat barpo etish yo'lidagi og'ir, mashaqqatli sinovlar, taraqqiyot yo'li chuqur tahlil etib berilgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, ayni kunlarda istiqbol bayrami oldidan mamlakatimizda olib borilayotgan tayyorgarlik, joylardagi keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, jumladan, poytaxtga tutash 100 gektardan ortiq ulkan hududda “Yangi O'zbekiston” bog'i hamda betakror Mustaqillik majmuasi qurilayotgani, eng ulug', eng aziz bayram mana shu yangi maydonda o'tkazilishi haqida fikrlar har bir fuqaro qalbiga faxr tuyg'usini soldi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yillarda xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan o'zgarishlar, xususan, Vatanimiz suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olgani, O'zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilgani, konstitutsiyaviy tuzumga asos solinib, tinch-osoyishta hayot hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etilgani, milliy valyuta va oltin-valyuta zaxiralari shakllantirilgani, boy madaniy



meros, milliy-diniy qadriyatlar asosida o'zligimiz tiklanganini alohida ta'kidladi.

Lekin bu o'zgarishlar o'z-o'zidan amalga oshmagani ayon. Taraqqiyot yo'limiz xato va kamchiliklardan ham xoli bo'lmadi, demokratik jamiyat barpo etish jarayonlari murakkab va tahlikali bo'lib, ularni ijobiy hal etishda ba'zan bilim va tajriba, iroda va qat'iyat yetishmagani ham ochiq-oydin tan olindi. Muhimi, mamlakatimizni taraqqiyotning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarish, mazmunan yangi islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi.

Davlatimiz rahbari mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni tahlil etar ekan, o'tgan asrning boshlarida erk va adolat, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini kurash maydoniga olib chiqqan jadid bobolarimiz matonatini alohida e'tirof etdi. O'z davrida bu ilg'or g'oyalar xalqning azaliy orzu-armonlarini ifodalangan bo'lsa-da, biroq maqsadlar to'liq amalga oshmay qoldi. Jadid bobolarning erk haqidagi orzu-niyatlari xalqimiz tarixiy xotirasida saqlanib qolgani va hanuz yashayotganini davlatimiz rahbari alohida e'tirof etib, **“Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasi zahirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz”,** — dedi pirovardida.

Bugun mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Bu jarayon xalqimizning o'ttiz yillik tarixiy davrda erishgan yutug'i, mustaqil davlat qurish uchun olib borgan izlanishlari samarasi va mehnatining tarixiy davomidir. Bu fikrlar Prezidentimizning javoblaridan yanada teran ma'no kasb etdi. “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so'zlari tub mazmun-mohiyatini chuqur anglash uchun davlatimiz rahbari ko'p tarixiy dalillar keltirdi, fikr-mulohazalarni esa bevosita bugungi hayot, jamiyatlardagi demokratik o'zgarishlar, bilan bevosita bog'ladiki, bu savol-javoblar bilan tanishgan o'quvchilarni mulohazaga chorlaydi, ulug' maqsadlarga ruhlantiradi. Bu mulohazalardan bundan besh yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatiga uyg'un ekanligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi bugun asosiy strategik maqsadga aylanganini anglash mumkin.

“Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, dedi Prezidentimiz, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning

asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir".

Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari bilan tanishar ekansiz, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, avvalo, xalq manfaatlariga qaratilgani, xususan, elda mashhur iboraga aylangan **"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"**, degan muhim huquqiy tamoyil juda to'g'ri tanlanganiga iqror bo'lasiz. Suhbat chog'ida Shavkat Mirziyoyev Buyuk Amir Temur bobomizning Shahrisabzdagi Oqsaroy qarorgohi peshtoqiga bitilgan **"Adolat – davlatning asosi va rahbarlar shioridir"**, degan hikmatli so'zlarini esga olgani bejiz emas. Zero, xalqimiz azaldan adolat va halollikni asosiy yashash mezonini deb bilgan. Oilada farzand tarbiyasida ham bu qadriyatlarni yoshlar qalbiga singdirishga harakat qilgan. Bu esa, adolat mezonini hamma zamonlarda taraqqiyot omili bo'lganini anglatadi. Shu boisdan, **"Biz ham sud-huquq tizimini isloh etishda ana shunday sodda va hayotiy talablardan kelib chiqdik. Xususan, "Sudyaning ongida – adolat, tilida – haqiqat, dilida – poklik bo'lishi kerak", degan g'oyani ilgari surdik va amalga oshirishni boshladik,** deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, bugun demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan pallaga kirdi va tobora chuqurlashmoqda. Muhimi, odamlar o'z hayotida bo'layotgan o'zgarishlar asnosida jamiyatda kechayotgan yangilanishlarga ishonchi ortmoqda. Chunki, ilgari ochiqdigi ta'minlanmagan, xaspo'shlab gapirilgan ko'plab muammolar bugun jamiyatdagi eng dolzarb vazifalar sifatida davlat boshqaruv organlari tomonidan muhokamaga qo'yilmoqda. Xususan, davlat organlari faoliyatidagi ochiqlik va oshkoralik, senator, deputat, vazir va hokimlar, barcha bo'g'indagi mansabdor shaxslarning fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning dard-u tashvishlarini tinglayotgani, aksariyat kamchiliklar va murojaatlar fuqarolarni qabul qilish jarayonlarida o'z o'rnida ijobiy hal etilayotgani — islohotlarga ishonchni mustahkamlamoqda. Axir, keyingi yillarda majburiy mehnat, ishsizlik, kambag'allik, korrupsiya, aholini uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim va tibbiyot bilan bog'liq muammolar keng jamoatchilik o'rtasida ochiq-oshkora muhokama etilib, nuqsonlarni bartaraf etish choralari qat'iy ko'rilayotgani kim inkor eta



oladi? Demokratik islohotlar qog'ozda emas, balki, amalda o'z ifodasini topib, hayotimizdan mustahkam o'rin olayotgani ayni hayot haqiqatidir.

Shuning uchun ham Prezidentimiz bu jarayonlarga baho berar ekan, **“Bugun odamlar uyg'onmoqda, jamiyat uyg'onmoqda. Ma'naviy uyg'oq jamiyat — bu, hech shubhasiz, qudratli kuchdir. O'zingiz ayting, atigi bir necha yil oldin bunday natijalarni tasavvur qilish mumkinmidi? Yo'q, albatta. Shuning uchun bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas,** deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Ayni paytda yana bir haqiqatni unutmashimiz lozim: **bugungi O'zbekiston – bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur”,** — deya alohida ta'kidladi. Prezidentimizning bu so'zlari bugun har bir fuqaro ko'nglidagi gap, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, jamiyatdagi har bir o'zgarish, yangilanish, islohotlarning borishi, korrupsiyaga qarshi kurash haqida mulohaza bildirib, keyingi paytlarda o'z vazifasini suiste'mol qilish, tamagirlik ko'rinishlari kamayib borayotgani, jamiyat hayoti erkinlashgani, odamlar yengil nafas olayotganini e'tirof etdi. Jamiyatdagi muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar, iqtisodiyot, uy-joy, savdo-sotiq bilan bog'liq jarayonlar oshkora, ko'pchilik nazoratida, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilayotganini dunyo jamoatchiligi ham muhim demokratik o'zgarish sifatida baholamoqda.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, **Yangi O'zbekiston — bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarashdir.** Prezidentimiz bu fikrga urg'u berar ekan, taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi eng ustuvor vazifalarni yana bir bor ko'rsatib berdilar. Bunda ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi ta'kidlandi. Bu borada “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Mahallabay” va “Xonadonbay” ishlash usullari orqali aholi o'rtasidagi yillar davomida yechim topmay kelayotgan muammolar samarali hal etilayotgani e'tirof etildi. Shuningdek, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari ijobiy natija berayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari bundan tashqari, iqtisodiy taraqqiyot sohasida o'sish

nuqtalarini aniqlash va ularga alohida ahamiyat qaratish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, xususiylashtirish jarayonida ularning raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotda milliy manfaatlarimizni mustahkamlashga xizmat qiladigan mutlaqo yangi yondashuvlarni qo'llashga ustuvor ahamiyat berilayotgani, davlat aktivlarini sotishda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlaydigan kafolatlarni yaratish o'ta muhimligini yana bir bor ta'kidlab, bu jarayonlarning demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdagi ahamiyatini hayotiy misollar asosida ochib berdi.

Davlatimiz rahbari mamlakat taraqqiyotining oltita ustuvor yo'nalishi haqida so'zlab, **“Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash — fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir”**, deya islohotlar mohiyatiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Albatta, uy-joy masalasi, aholini yashash uchun qulay bo'lgan yangi turar-joylar bilan ta'minlash hamisha dolzarb vazifa bo'lgan. Shuning uchun bu mavzu Prezidentimiz tomonidan yana bir bor tilga olindi hamda bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lami, ertangi vazifalar, qurilayotgan yangi-yangi inshootlarning ijtimoiy ahamiyati haqida mulohazalar bildirildi.

— Kelgusida, — deydi Prezidentimiz, — Uy-joy fondini shunday darajaga olib chiqishimiz kerakki, aholining barcha qatlamlari uy-joy sotib olish va bu borada tanlash imkoniga ega bo'lishi lozim. Albatta, bu borada turli muammolar ham mavjud va biz ularni joylardagi mahalliy boshqaruv organlari bilan birgalikda hal etyapmiz. Misol uchun, ko'pqavatli uylar oralig'idagi bo'sh joylarda qurilishlar qilish, moratoriy e'lon qilinganiga qaramasdan, daraxtlarni kesish, yashil hududlarni kamaytirish holatlari ko'pchilikni ranjitmoqda. Ba'zi rahbarlarning beparvoligi yoki manfaatparastligi tufayli turar-joy mavzellarida odamlar sayr qiladigan, sport bilan shug'ullanadigan, farzandlari bilan birga toza havoda dam oladigan ochiq joyning o'zi qolmayapti. Albatta, biz bunday holatlarga nisbatan qat'iy choralar ko'rmasdan turolmaymiz. Shuning uchun ham Toshkentda va boshqa yirik shaharlarda yangi qurilishlarni shahar tashqarisidagi hududlarda amalga oshirish choralari belgilanmoqda. Turar-joy mavzelari ichida kommunal infratuzilmalar — gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilmasdan, yangi binolar qurish amaliyotiga barham berildi.

Mamlakatimizda hayotga katta orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan yoshlar uchun borgan sari ko'p imkoniyatlar yaratilyapti. Maktabdan to oliy ta'limgacha qamrovini kengaytirish, o'qishi, ma'naviyatining to'g'ri shakllanishi, tadbirkorlik ko'nikmalari, mehnat bandligini ta'minlash yo'lida



barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois, suhbatda yoshlar masalasi, ularga yaratilayotgan sharoitlar, umuman, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ham alohida mavzu bo'ldi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **“Yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi”**.

Prezidentimiz yoshlar, ta'lim, ilm-ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida so'zlab, **“Yoshlikda o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir”**, degan hikmatni keltirdi. Bugungi yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlar haqida to'xtalib, buyuk allomalarimiz boshlab bergan va butun Sharq-u G'arbga ilmdan saboq bergan ulug'ajdodlarimiz boshlagan yo'lni davom ettirish, ilm-fanda buyuk kashfiyotlarni amalga oshirishi va umumbashariy tafakkur xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan bobolarimizning qutlug' an'alarini davom ettirish, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish — nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimiz ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Bu boradagi islohot va o'zgarishlarni tahlil asnosida mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash yo'naltirilgan oliygohlar soni 141 taga yetkazilgani, shuningdek, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochilganini misol qilib keltirdi. Agar 2016-yilda respublikamizdagi oliygohlarning soni 77 ta bo'lsa, hozirda bu raqam ikki barobar o'sgani, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarlariga o'rgatish keng ko'lam va ahamiyat kasb etganini ta'kidladi.

Joriy yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan **“Yangi O'zbekiston” universiteti** tashkil etildi. Bu universitet mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlari uchun namuna vazifasini ham o'taydi. Xalqimizning eng bilimli va iste'dodli yoshlarimiz mazkur oliy dargohda o'qib, kelajakda ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shishiga qodir bo'lgan kadrlar bo'lib yetishadi.

Nega keyingi yillarda mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohot va o'zgarishlar markazida ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinni egallamoqda? Chunki, uzluksiz milliy ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarini uyg'un va mutanosib rivojlantirish bugungi globallashuv jarayoni, jahonda

malakali kadrlarga bo'lgan talab ortayotgan, yuksak taraqqiyot aynan yangi kashfiyot, innovatsion g'oya, texnika taraqqiyotiga bog'liq bo'lib qolgan davrda iste'dodli yoshlarimiz ana shu jarayonlarda yetakchi kuch va tayanchga aylanishi lozim. Shu bois, so'nggi to'rt yilda bolalarni maktabgacha ta'limga qamrash ko'rsatkichi avvalgi 27,7 foizdan 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bog'chalar soni esa 3 marta ortib, 14 mingdan oshdi. Bu islohotlar xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda poydevor vazifasini o'taydi.

Prezidentimizning **“Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”** degan g'oyasi asosida maktab ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga guvoh bo'lib turibmiz. Yoki Toshkent shahri va hududlarda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni ko'payib borayotgani xalqimizning orzu-armonlari ro'yobidir.

“Besh muhim tashabbus” dasturi doirasida keng quloq yozgan ta'limga yangicha yondashuv, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, qobiliyatli yoshlarni tanlash va kamolga yetkazishga qaratilgan turli ko'rik-tanlovlar, Respublika xalq ta'limi vazirligining bevosita nazorati va qo'llab-quvvatlashi natijasida yuzlab iste'dodli o'g'il-qizlarning orzu va intilishlari ro'yobga chiqayotgani fikrimizning dalilidir. Joriy yilda 36 mingta qo'shimcha to'garak tashkil etilib, 874 mingga yaqin bola ularga jalb etilgani, ta'lim muassasalari, kutubxona va o'quv markazlariga qariyb 100 mingta san'at va sport inventarlari, kompyuterlar, 600 mingga yaqin kitob yetkazib berilgani ana shu ezgu maqsadlar yo'lidagi qadamdir.

Yoshlarning tadbirkorlik g'oyasi va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ularni ish va daromad bilan ta'minlashga davlat miqyosida ahamiyat berilayotgani va bu e'tibor tufayli so'nggi to'rt yilda 30 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko'payib, 500 mingdan oshgani, bu yilning o'zida 92 mingdan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 300 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratilgani yoshlar jamiyatda hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganidan dalolatdir.

Suhbat bilan tanishar ekansiz, ikki jihat e'tiboringizni tortadi.

Birinchisi, Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqimiz tomonidan ulug'lanishi, uning sa'y-harakatlari va tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining boisi O'zbekistonda 2017-yildan buyon barcha sohalarida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, yangicha tamoyillar, aniq maqsad sari izchil intilish, mashaqqatli mehnat mevasi ekanini anglaysiz.

Ikkinchisi esa, iqtisodiy, siyosiy, bank moliya, investitsiya, yoshlar siyosati, xotin-qizlar va nuronilarni qo'llab-quvvatlash, qo'yingki, qay bir tizim bo'lmasin,




barchasida amalga oshirilgan islohotlar zamirida ijtimoiy yuksaltirish, jamiyatning ijtimoiy ahvolini yanada yaxshilash maqsadi mujassam ekani namoyon bo'ladi.

Ayni paytda Prezident odamlar uyg'onayotganini, jamiyat o'zgarayotganini faxr bilan tilga oladi.

“Ma’naviyat uyg‘oq jamiyat — bu, hech shubhasiz, qudratli kuchdir”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Kelajakka qat’iy ishonch, islohotlarning chuqur tahlili, o‘z yurti taraqqiyotiga xalqining obod va farovon turmushini tezroq yaratish ishtiyoqi yo‘g‘rilgan ushbu suhbatda sohalar kesimida qilingan ishlar va kelgusi vazifalar birma-bir bayon etiladi.

Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervyusi xalqimizda mamlakat kelajagi uchun daxldorlik hissini yanada jo’shtiradi. Yangi –yangi marralar sari ilhomlantiradi.





UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

UNESCO, UNICEF, JAHON BANKI VA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTINING "TA'LIMNI TIKLASH SABOQLARI: COVID – 19 PANDEMIYASI SHAROITIDA TA'LIM SOHASIDAGI VAZIRLIKLARI O'RTASIDA O'TKAZILGAN SO'ROVNOMA" NATIJALARI BO'YICHA HISOBOT TAHLILI

Ayubxon RADJIYEV,

*A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni
belgilash ilmiy-tadqiqot instituti direktori, PhD*

Farxod KARIMOV,

*A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni
belgilash ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, DSc*



Mazkur hisobot Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNESCO, UNICEF, Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 143 ta rivojlanayotgan davlatlarda COVID – 19 pandemiyasi sharoitida ta'lim tashkil etish holati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari va tahliliga bag'ishlangan. So'rovnomada ishtirok etganlarning 50 foizga yaqinini 17 yoshli aholi tashkil etganini qayd o'tish lozim.

So'rovnomalar 3 bosqichda tashkil etilgan. Uchinchi bosqichdagi so'rovnoma natijalari hamda tahlillari asosida mazkur hisobot shakllantirilgan.

So'rovnoma savollari ta'limning to'rtta bosqichini qamrab olgan: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim, o'rta ta'lim.

Hisobot Kirish, 7 ta bob va xulosadan iborat.

KIRISH

Kirish qismida COVID – 19 pandemiyasi sharoitida maktablarning yopilishi natijasida yo'qotilgan vaziyatlar monitoringi va uning yumshatilish jarayonlari holati umumiy tahlil qilingan.

Tahlillarga ko'ra, pandemiya boshlanishi bilan maktablarni yopish intensivligi vaqt o'tishi bilan rivojlanib borgan, ammo bu ko'rsatkich mamlakatlar o'rtasida ham sezilarli darajada farq qilgan.

Bu quyidagilarda ko'ringan:

1. Maktablarning yopilishi va ta'limni tashkil etish: 2020-yilda maktablar, butun dunyo bo'ylab to'rtta ta'lim bosqichi ham yopilgan. Daromad darajasi yuqori bo'lgan davlatlar 53 kun, daromadi o'rtachadan past bo'lgan davlatlarda 115 kunga maktablar yopilgan.

Maktab ta'limida yo'qotishlarning oqibatlarini kamaytirish uchun mamlakatlar turli xil o'qitish usullari, shu jumladan, to'liq masofaviy yoki gibrid ta'lim, shuningdek, boshqa choralarni qo'llagan. Masalan, 41% davlatlar o'quv yili muddatini uzaytirgan bo'lsa, qolgan 42%i o'quv reja va dasturlarni sharoitga moslashtirishgan.

2. Ta'limni baholash: Dastlabki tahlillarga ko'ra, maktablarning yopilishi o'quvchilarning o'qish darajasiga keskin ta'sir etgan. Bunday nomutanosib ta'sir, asosan, sharoiti og'ir oilalarning bolalari, masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari teng

bo'lmagan bolalar hisobiga to'g'ri kelgan.

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, davlatlarning aksariyati ta'limdagi yo'qotishlarni aniqlash bo'yicha aniq o'lchovga ega emas. Xususan, 2020-yilda mamlakatlarning atigi uchdan bir qismi ta'lim darajasini o'lchash bo'yicha standart baholash choralarini ko'rgan. Zero, ta'limdagi yo'qotishlarni o'lchash bu ta'limni tiklashga bo'lgan dastlabki qadam hisoblanadi.

3. Imtihonlar: Global darajada, pandemiya ta'limning barcha daraja va bosqichlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Daromadi past va o'rtachadan past bo'lgan mamlakatlarda boshlang'ich ta'limning 2/3 qismida, umumiy o'rta ta'limning 3/4 qismida imtihonlar o'tkazilmagan yoki keyinga qoldirilgan.

So'rovnomada qatnashgan davlatlarning 28 foizi o'rta sinflaridagi va 18 foizi yuqori sinflardagi imtihonlarni bekor qilgan. Daromadi yo'q yoki juda past bo'lgan mamlakatlar har qanday darajadagi imtihonlarni bekor qilgan.

Har 10 ta mamlakatning 7 tasi imtihon markazlarida sog'liqni saqlashni yaxshilashga qaratilgan xavfsizlik standartlarini joriy qilgan. Yuqori daromadli mamlakatlarning 35%i umumiy o'rta ta'limda boshqaruv mexanizmlarini va xodimlarining ish tartibini sharoitga moslashtirgan, biroq daromadi o'rtadan past bo'lgan davlatlar buni amalga oshira olmagan.

Mamlakatlarning 34%ida boshlang'ich va 47%ida o'rta va yuqori bosqichdagi ta'limning bitiruv mezonlari o'zgartirilgan.

I BOB. MAKTABLARNING YOPILISHI VA TA'LIMDAGI YO'QOTISHLAR

Bir yildan ko'proq vaqt oldin COVID-19 tufayli butun dunyo bo'ylab maktablar yopilib, o'qishda uzilishlar paydo bo'lgan. Garchi ko'pgina mamlakatlarda masofaviy ta'lim dasturlari joriy etilgan bo'lsa-da, an'anaviy ta'lim muddatining qisqarishi ta'limdagi katta yo'qotishlarga sabab bo'lgan.

Ushbu bobda maktablarning yopilishi va pandemiya davrida maktabda o'qitish tizimining o'zgarishi, shu jumladan, o'quvchilarning ta'lim natijalarini baholash va ta'limdagi yo'qotishlarni kamaytirish uchun yangi g'oyalar va tajribalar o'rganilgan.


2020-yilda o'rtacha 79 kunga maktablar to'liq yopilgan (maktabgacha, boshlang'ich va o'rta maktablar). Bu OECD va G20 mamlakatlari bo'yicha o'rtacha o'quv kunlarining taxminan 40% ni tashkil etadi

Maktablar rivojlanayotgan davlatlarda 88 kun, rivojlanmagan davlatlarda 115, rivojlangan davlatlarda 53 kunga to'liq yopilgan. Maktablarning yopilishi daromadi o'rta va past bo'lgan mamlakatlar orasida ko'proq kuzatilgani

maktabga xavfsiz ta'limni ta'minlaydigan infratuzilmaning yetishmasligi bilan bog'liq edi.

Maktabgacha ta'lim o'rtacha 78 kun, o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari esa 79 va 80 kunga yopilgan. Masalan, rivojlangan mamlakatlar orasida boshlang'ich va maktabgacha ta'lim muassasalari 2020-yilda o'rtacha 46 kunga yopilgan bo'lsa, rivojlanmagan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 90 kunni tashkil etgan (1-1-rasm). Rivojlanayotgan mamlakatlarda yosh bolalar kasallik bilan kasallanish ehtimoli kamligiga qaramay, boshlang'ich sinflarni yopish holatlarining yuqori darajasi kuzatilgan.


FIGURE-1-1: Mean-of-instruction-days-lost-by-level-of-education-and-income-group-in-2020-¶



Rivojlangan davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda maktabga qaytarish maqsadga muvofiq hisoblangan, ammo rivojlanmagan davlatlarda bu katta qiyinchilikni yuzaga keltirgan.


Ta'lim darajalari nisbatan past bo'lgan mamlakatlarda an'anaviy o'qitish kunlarining qisqarishi ehtimoli ko'proq bo'lgani kuzatilgan (1-2- rasm).

FIGURE-1-2: Total-instruction-days-lost-and-compared-with-harmonized-learning-outcomes,-by-income-group¶




Davlatlarning moliyaviy holati va ta'lim darajalarida maktablarning yopilishi masshtabi:

2020-yil mart-aprel oylaridan boshlab pandemiyaning to'liqlariga qarab maktablar bir necha marotaba ochib-yopilgan. Respodentlarning 21 %i 2021-yil fevral oyida ham boshlang'ich ham o'rta ta'lim maktablari COVID-19 tufayli yopilishi davom etganligini ta'kidlagan. Daromadi past va o'rta bo'lgan mamlakatlarning 28%i, daromadi o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlarning 15%i, yuqori daromadli mamlakatlarning 28%ida maktablarning hamma bosqichi to'liq yopilgani ta'kidlanadi. Daromadi past bo'lgan davlatlar haqida ma'lumotlar yo'q (1-3a / b rasm).



Note: The y-axis shows per cent of countries with fully closed schools across primary, lower secondary, and upper secondary. While the results represented in this figure covers more than 50 per cent of the global student-aged population, this



Note: The y-axis shows per cent of countries with fully closed schools across primary, lower secondary, and upper secondary. Caution is advised in generalizing may not apply to specific income groups. More information on the population coverage of each income group can be found in Annex 1.

O'quvchilarning standartlashtirilgan baholari – ta'limdagi yo'qotishlarini o'lchash, kuzatish va taqqoslashga yordam bergan. Shu bilan birga, mamlakatlarning 1/3 qismida o'quvchilarni pastki darajadagi o'quv yo'qotishlarini standartlashtirilgan tarzda baholash uchun qadamlar qo'ygani ma'lum qilingan.

Mamlakatlarning 41%i o'quv yilining uzaytirgan bo'lsa, 42%i o'quv dasturining ayrim yo'nalishlari ustuvorligi to'g'risida, mamlakatlarning yarmidan ko'pi (54%) barcha ta'lim bosqichlarida hech qanday o'zgartirishlar kiritilmaganligini yoki amalga oshirilmaganligini ma'lum qilgan.

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, dunyodagi millionlab bolalarni o'qitish vaqtining qisqarishi ta'limdagi yo'qotishlarning ko'payishiga olib kelgan. Shuningdek, hukumatlar tomonidan yo'qotishlarni qoplash maqsadida turli xil yondashuvlar va siyosatni amalga oshirilgan. Bu – o'quv dasturlarini o'zgartirish, maqsadli tuzatishlarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va boshqa shu kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu kabi



mexanizmning samaradorligi – amaldagi ta'sirni kamaytirish, ko'proq COVID-19 dan oldingi ta'lim berish darajasiga qaytarish bilan bog'liq, deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston:

Butun dunyoga tarqalgan COVID-19 pandemiyasi ta'lim sohasi oldiga ham yangi muammolarni vujudga keltirdi va Respublikada ham koronavirus infeksiyasi aniqlanganidan so'ng, koronavirus kirib kelishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2020-yil 29-yanvarda tuzilgan Respublika maxsus komissiyasining qaroriga asosan 2020-yil 16-martdan boshlab an'anaviy ta'lim jarayonlari vaqtinchalik to'xtatildi. Ta'lim tizimida masofaviy texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida 10 mingdan ziyod ta'lim muassasalarida 7 million o'quvchi (2019/2020-o'quv yili, ya'ni o'quv yilining 3-choragi 19-martda tugatilib, boshlang'ich 1-4-sinflar, yuqori 5-11-sinflarda 4-chorak, ya'ni 29-martdan to 25-maygacha) to'liq onlayn tizimga o'tkazildi.

Unda ta'lim dasturlariga hech qanday o'zgartirishlar yoki qisqartirishlar kiritilmagan holda ta'lim davom ettirildi. Bu davr davomida onlayn tizimga o'tishda imkoniyat mavjud bo'lmagan jismoniy tarbiya (5-11-sinflarda) va texnologiya darslari (6-11-sinflarda) to'xtatildi.

2020-yil avgust oyida 2020-2021-o'quv yili uchun maktablarni qayta ochish bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi tomonidan alohida so'rovnoma o'tkazilib, ota-onalarning fikri o'rganildi. Bu tadbirda 5 million 500 ming nafar ota-onalar ishtirok etib, ularning 76% ta'lim jarayonini maktabga, ya'ni sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilgan holda an'anaviy shaklda olib borish tarafdori bo'lishdi, 24% esa masofaviy shaklda – teledarslar orqali davom ettirishni ma'qul topishdi.

Shu asosda Respublika rahbariyati, maktablarda ta'lim jarayonini bir vaqtning o'zida ikki xil shaklda tashkil etishga qaror qilindi. Ya'ni, aksariyat ota-onalar talabiga ko'ra an'anaviy va shu bilan birga masofaviy shaklda yo'lga qo'yildi. Videodarslarni sifatli tayyorlash, bu jarayonga davlat va nodavlat telekanallarini faol jalb etish, 4 ta telekanalda doimiy efirga uzatib borish zarurligi qayd etilib nazoratga olindi.

Televizion darslarni tasvirga olishda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish ham inobatga olinib, dars mashg'ulotlari kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga surdopedagog hamda surdotarjimonlar, ko'zi ojiz bolalarga esa televizion dars mashg'ulotlarini ovozli eshitib, tushunib olishlariga imkon yaratildi.


II BOB. O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH VA IMTIHONLAR

O'quvchilarning bilimlarini baholash va nazorat qilish turli, ammo muhim vazifalarni bajaradi. Bilimlarni baholash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari haqida ma'lumot to'plashga yo'naltirilgan bo'lsa, imtihonlardan esa o'quvchilarni keyingi sinfga o'tkazish va ta'limni davom ettirish uchun foydalaniladi.

So'rovnoma asosida mamlakatlar maktab yopilishlariga javoban o'z faoliyatini baholash va tekshirish amaliyotlarini qanday moslashtirganlari haqida muhim ma'lumotlar olingan.

Maktablar birinchi marta yopilgandan so'ng mamlakatlar o'z o'quvchilarining bilimlarini qanday baholashi va davlat imtihonlaridan qanday o'tkazishi muhim ahamiyatga ega. Butun dunyodagi ta'lim vazirliklari 2019-2020-o'quv yilida davlat imtihonlarini o'tkazish tartibiga o'zgartirish kiritganlar. Ushbu o'zgarishlar quyidagilardan iborat bo'lgan:


- (a) imtihonlar qoldirilgan/ko'chirildi;
- (b) sinovlar mazmuni o'zgartirilgan;
- (c) imtihon o'tkazish usuli o'zgartirilgan;
- (d) sog'liqni saqlash va xavfsizlik bo'yicha qo'shimcha choralar joriy etilgan;
- (e) muqobil baholash shakllari kiritilgan;
- (f) imtihonlar bekor qilingan va muqobil yondashuvlardan foydalanilgan.



Deyarli barcha respondentlarning 95%i davlat imtihonlariga o'zgarishlarni amalga oshirganini ma'lum qilgan. Davlat imtihonlaridagi o'zgartirishlar

boshlang'ich ta'limda 63%, o'rta ta'limda 59%, yuqori sinflarda esa 75%ni tashkil qilgan.

FIGURE 2-2: Share of respondent countries who reported changes related to scheduling of exam due to the pandemic during the school year 2019/2020, by income group and level of education



Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. For each level of education, only countries with valid responses are included. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure as the countries that responded to this question may not exceed 50 per cent of the total 4-17 year old population (depending on the education level). More information on the coverage of each income group can be found in Annex 1.


Ta'limda o'zgartirish kiritgan mamlakatlarning hech biri ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish siyosatini olib bormagan. Ayrim mamlakatlar imtihonlarni bekor qilgan bo'lsa, boshqalari imtihonlarni kechiktirish yoki davlat imtihonlari o'rniga muqobil baholashni taklif qilishgan.

Davlat imtihonlarini kechiktirish yoki qoldirish barcha aholi guruhlari uchun ma'qul yondashuv bo'ldi, vaholanki, u daromadi kam va o'rtachadan kam bo'lgan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Butun dunyoda 30% mamlakatlar boshlang'ich sinflarda va 18% o'rta ta'limning yuqori sinflarida imtihonlarni bekor qilgan. Ayrim mamlakatlar sog'liqni saqlash va xavfsizlik standartlarini takomillashtirish, imtihon mazmunini o'zgartirish yoki imtihonlarni onlayn o'tkazish chora-tadbirlari orqali imtihonlarni yengillashtirish siyosatini joriy qilgan. O'rta maktabning yuqori sinflaridagi davlat imtihonlari aksariyat mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, odatda oliy ta'limga kirishda ishlatiladi.

Imtihon mazmunini o'zgartirish, asosan, daromadi kam yoki o'rtacha bo'lgan mamlakatlar uchun xos bo'ldi. Daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda imtihon o'tkazish usulini o'zgartirish keng tarqalgan.

FIGURE 2-4: Share of respondent countries that introduced adjustment to graduation criteria in school re-opening plans at the national/sub-national level (end of school year 2019/2020), by level of education and income group



Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure as the countries that responded to this question may not exceed 50 per cent of the total 4-17 year old population (depending on the education level). More information on the coverage of each income group can be found in Annex 1.

Respondent mamlakatlarning 34%i 2019-2020-o'quv yili uchun boshlang'ich maktabni bitirishdagi attestatsiya mezonlarini o'zgartirishni o'z rejalariga kiritganligini ma'lum qilgan. Bu ko'rsatkich ta'limning yuqori bosqichlarida oshib boradi va yuqori sinflarda 47% tashkil qiladi. Kam va o'rta daromadli mamlakatlarda ta'limning barcha darajalarida bu yondashuv keng tarqalgan.

Maktablarning yopilishi o'quvchilarni o'ziga xos vaziyatga solib qo'ydi, chunki xonadonlar sinf xonalariga aylantirildi va o'quvchilar masofaviy ta'limning turli shakllaridan foydalanib ta'lim olishni davom ettirdilar. Xuddi shunday, kurs mazmuni va o'qitish usullari masofadan o'qitish usullariga xos tarzda moslashishi kerak bo'ldi.

Ba'zi o'quvchilar o'qishni davom ettirib, o'quv dasturlarini o'zlashtirgan bo'lsa, boshqalari buni uddalay olmadilar. COVID-19 pandemiyasi oqibatlarini natijasida kelib chiqqan ushbu o'zgarishlar o'quvchilarni baholash va davlat imtihonlaridan o'tkazish, shuningdek, o'quvchi ta'limini davom ettirish bo'yicha asosiy qarorlarni qabul qilish imkonini beruvchi mexanizmlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarga kerakli bilimlarni yetkazishda maktab yopilgan davrda yo'qotilgan bilimlarni o'rganish va eng asosiysi, bunday sharoitda o'quvchilarning bilimlarini baholash muhim omil hisoblanadi. Ta'limdagi yo'qotishlarni kamaytirish uchun ta'lim tizimi o'quvchilar bilimini baholash va davlat imtihonidan o'tkazishning eng maqbul usullarini ta'minlashlari lozim.

O'zbekiston:

Pandemiya davrida bilimlarni baholash mexanizmlari mavjud bo'lmaganligi sababli O'zbekiston Prezidenti karantin vaqtida imtihonlarni soddaroq shaklda o'tkazish bo'yicha topshiriqlar bergan. Pandemiya tufayli 5-sinfdan 10-sinfgacha



sinf-dan-sinf-ga o'tish imtihonlari va 9- va 11-sinflar uchun Davlat imtihonlari Maxsus komissiyaning qaroriga asosan bekor qilindi.

Bitiruv imtihonlari karantin qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda og'zaki, yozma hamda test sinovlari shaklida o'tkazilgan. Jumladan, imtihonlar o'tkazilishidan oldin ta'lim muassasalarida dezinfeksiya ishlari olib borilgan, o'quvchilar imtihonlarga sanitar-gigiyena qoidalariga rioya etgan holda himoya vositasi (tibbiy niqob) da kiritilib, binoga kirishdan avval tibbiy xodimlar tomonidan ularning tana harorati o'lchangan va oraliq masofani saqlashlari ta'minlangan. Imtihon savollari va materiallari Xalq ta'limi vazirligining rasmiy telegram kanaliga joylashtirilgan.

Ta'lim sifatini nazorat qilish, jarayonda keng jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida inspeksiyaning @edumonitoring_bot telegram boti ishga tushirilgan.

III BOB. MASOFADAN O'QITISHNI TASHKIL ETISH TIZIMLARI

COVID-19 pandemiyasi sababli ko'plab davlatlarda maktablarning yopilishi va ta'limning uzluksizligini ta'minlash maqsadida masofadan o'qitish masalalari o'rganila boshlandi. Aksariyat mamlakatlar maktablar yopilganidan so'ng o'quvchilar uchun masofadan o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etishgan. Ushbu masofadan o'qitish usullari qog'ozda olib boriladigan materiallardan tortib, televideniye va radio kabi ommaviy axborot vositalarini tarqatish, raqamli onlayn platformalargacha bo'lgan keng ko'lamli ishlarni o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu bobda ta'lim vazirliklarining COVID-19 pandemiyasi sababli maktablarning yopilishi, masofaviy ta'limning qanday ta'minlagani, masofadan o'qitish jarayoni va samaradorligi hamda aholi zaif qatlamining masofaviy ta'limdan foydalanishdagi muammolari va istiqbollari ko'rib chiqilgan.


Onlayn platformalar quyi, o'rta va yuqori daromadli mamlakatlarda eng mashhur tanlovlardan biri bo'ldi. Onlayn platformalardan tashqari, qog'ozga asoslangan uyga olib ketish paketlari daromadi o'rtadan past, o'rtadan yuqori va yuqori daromadli mamlakatlar orasida mashhur bo'lgan. Daromadi past bo'lgan mamlakatlarning aksariyati televideniye (82%), radio (92%) va radioeshittirish kabi vositalaridan foydalanganlar.

Mamlakatlarning aksariyati (94%) masofaviy ta'limni ta'minlash uchun bir necha usullardan foydalanganliklari haqida xabar berishadi. Bundan tashqari, mamlakatlarning yarmidan ko'pi besh yoki undan ortiq masofadan turib o'qitish usullaridan foydalanganini ma'lum qilgan.

SMS yoki telefon qo'ng'iroqlaridan foydalangan holda uyali aloqa vositalariga asoslangan interaktiv usullar o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqotni o'rnatishga imkon bergan va masofadan o'qitish samaradorligini oshirgan. Bundan tashqari, bir nechta usullardan foydalanish, qishloq yoki kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun masofaviy ta'limga kirish imkoniyatini oshirishga yordam bergan.

Umuman olganda, 2020-yilda maktabni yopish paytida mamlakatlarning 46 %ida har to'rt o'quvchidan uchasi masofaviy ta'limga o'tganligi aniqlangan (3-2- rasm).

FIGURE 3-2: Share of respondent of countries with over 75 percent of students following remote education, by income group and level of education



Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilarning bu borada fikrlari farqli ekani aniqlangan. Ba'zi o'qituvchilar uchun masofadan o'qitishga o'tish turli xil sabablarga ko'ra asab tizimiga ta'sir o'tkazishi mumkin degan fikrga kelgan. Chunki aloqaning yomonligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish mahoratining yetishmasligi va shu kabi omillar masofadan o'qitish darajasining pasayishiga olib kelgan.

Umuman olganda, hukumatlar ta'limni yetarlicha va muntazam ravishda moliyalashtirish va raqamli ta'limni integratsiyalash bo'yicha aniq belgilangan hamda tezkor siyosatni ishlab chiqishlari zaruriyati kelib chiqqan. Zero, masofadan o'qitishni ta'minlashdan olingan saboqlarga tayanish nafaqat hozirgi pandemiyaning ta'lim ta'sirini kamaytirish, balki kelajakdagi inqirozlarga qarshi kurashishni mustahkamlash uchun ham muhimdir.

O'zbekiston:

Pandemiya sababli xalq ta'limi tizimiga masofaviy texnologiyalar joriy qilinib, 10 000 mingdan ziyod ta'lim muassasasidagi 7 000 000 ga yaqin o'quvchiga televidenie hamda internet orqali onlayn videodars berish yo'lga qo'yildi. Bu yangi mexanizm karantin sharoitida fanlar o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlab berdi.



Chekka va olis hududlarda joylashgan aholi punktlarida yashovchilar uchun ochiq rejimda qo'shimcha ravishda bepul ulangan 4 ta telekanal orqali videodarslar tashkil qilindi.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining Yoshlar telekanalida 1-4-sinf, "Oilaviy" telekanalida 5-8-sinf va "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida 9-11-sinf o'quvchilari uchun, "Dunyo bo'ylab" telekanalida barcha amaliy fanlardan mahoratli o'qituvchilar tomonidan televizion darslar olib borildi.

Onlayn darslarni suratga olishga respublikaning 117 ta eng yaxshi malakali o'qituvchilari jalb qilingan. Shuningdek, 8 ta surdo tarjimon va 15 ta muharrir onlayn darslar ustida ishladi.

O'quvchilarni masofaviy o'qitish usuliga o'tkazish jarayonida tizimli kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz ham bundan mustasno emas, albatta. Ayni paytda O'zbekistondagi 6,2 milliondan ortiq o'quvchining barchasi ham masofaviy ta'lim olish bo'yicha zarur resurs hamda teng sharoitga ega emas.

Ayniqsa, pandemiya tufayli ko'makka muhtoj aholi qatlami eng ko'p zarar ko'rmoqda. Bunday yurtdoshlarimizning ko'pi chekka hududlarda yashayotgani uchun elektron qurilmalardan foydalanish yoki internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega emas.

Shu kabi holatlarni inobatga olib, koronavirus pandemiyasining mamlakatimiz xalq ta'limi tizimiga ta'sirini yumshatish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlari talablari asosida bilim olishini ta'minlash hamda o'quvchilar va o'qituvchilarning salomatligi, xavfsizliklarini asosiy o'ringa qo'ygan holda, muayyan ishlar amalga oshirildi:

- televizion videodarslar loyihasini yozgi ta'tilda ham davom ettirildi;
- 754 ta maktabda qardosh (tojik, qozoq, qirg'iz, turkman) tillarda ta'lim olayotgan 150 mingga yaqin o'quvchi uchun masofaviy dars tayyorlash imkoniyati cheklangani sababli ularning ham ta'lim olish huquqi ta'minlandi;
- oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlariga tayyorlanayotgan o'quvchilar uchun ham onlayn qo'shimcha ta'lim resurslari yaratildi.

Maktablarning an'anaviy shaklda ochilishi to'g'risidagi qarorlar har bir maktab bo'yicha individual tarzda mahalliy Kengashlar deputatlari ruxsatidan so'ng qabul qilinadi. Bunda ularning haqiqiy tayyorgarligi, hududdagi yoxud maktabdagi sanitariya-epidemiologik vaziyat, o'qituvchilar orasida koronavirus kasalligining qayd etilishi va sog'liqni saqlash tizimi xulosalari hisobga olinadi. Shu bois, maktablar vaziyatdan kelib chiqib, bosqichma-bosqich faoliyatini tiklaydi.

“Farzandingizni pandemiya sharoitida maktabga yuborishga tayyormisiz?” nomli so‘rovnoma shu vaqtga qadar 695 mingdan ziyod ovoz berilgan bo‘lib, so‘rovnoma ishtirokchilarining 68 % “Yo‘q, men uchun farzandimning sog‘ligi muhimroq, onlayn maktab orqali o‘zim o‘qitishga yordam beraman”, degan javobni tanlagan.

2020/2021-o‘quv yili 329 ta maktabda 7-sentabrdan, 2 ming 635 umumta‘lim maktabi 14-sentabrdan ota-onalar talabiga ko‘ra an‘anaviy, shu bilan birga masofaviy shaklda ish faoliyatini boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan yurtimizdagi barcha umumta‘lim maktablari uchun «Kundalik.com» tizimi joriy etildi.

May oyida maktablar yopiq bo‘lishiga qaramay, maktab yoshidagi bolalarning deyarli barchasi ta‘limiy va o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etilgan edi (97%). Iyun oyida ko‘pgina ta‘limiy tadbirlar maktab ta‘tili davrida to‘xtatildi va farzandlarining ta‘limiy mashg‘ulotlarga jalb etilganligini belgilagan respondentlar soni 67%gacha qisqardi. Respondentlarning aksariyati (69%) masofadan tashkil etilgan mashg‘ulotlardan o‘rta hisobda qoniqqanligini bildirgan va faqat 8 %gina o‘rta hisobda yoki butunlay qoniqmagan. Biroq, pandemiya boshlangan vaqtdan buyon o‘z farzandlariga sifatli ta‘lim bera olish qobiliyatidan xavotirlanishini bildirgan respondentlar ulushi 5 %lik punkt miqdorida o‘sgan.

Bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv tadbirlarining aksariyati mashg‘ulotlarning asosiy shakli bo‘lib hisoblangan televidion ta‘limiy dasturlar shaklida ifodalangan edi, bu may oyida olingan javoblarning 87 %iga to‘g‘ri kelgan. Mobil o‘quv dasturlari 6 % respondentlar uchun o‘qitishning asosiy metodi bo‘lib xizmat qilgan, ayni vaqtda o‘qituvchilar tomonidan individual topshiriqlar yuzasidan o‘tiladigan yoxud repetitor mashg‘ulotlarini yana 5 % respondent belgilagan.





Aholi orasida televideniya dan foydalanish imkoniyatining yuqori darajasi (89 % dan ortiq) ushbu formatning alohida ommabopligiga sabab bo'ladi. Smartfonlardan foydalanish imkoniyati oilalarning 70dan oshiqroq foizi uchun mavjud va oilalarning yarmiga yaqini mobil internetdan foydalanish imkoniga ega ekanliklarini ko'rsatgan. 15 %ga yaqin respondent personal kompyuter yoki noutbukka ega ekanini belgilagan; mazkur respondentlarning aksariyat ko'pchiligi yuqori daromadga ega oila xo'jaliklari vakillaridir va 8 % ishtirokchilar uylariga internet tarmog'i o'tkazilganligini ko'rsatganlar.

IV BOB. O'QITUVCHILAR VA TA'LIM XODIMLARI


COVID-19 pandemiyasi iqtisodiyot va odamlarning hayot tarzini izdan chiqargan, jumladan, butun dunyodagi maktablarning yopilishiga sabab bo'lgan bir paytda, o'qituvchilar butun dunyodagi millionlab o'quvchilarga ta'lim berishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

2020-yilda maktablar yopilgandan keyin mamlakatlar masofaviy ta'limga o'tganligi sababli ko'pchilik o'qituvchilardan masofadan/onlayn o'qitishga o'tishi taklif qilingan. 80%ga yaqin mamlakatlar o'qituvchilarning barchasidan yoki kamida to'rt dan uch qismi masofadan o'qitishni talab qilgan.

Daromadi yuqori va o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlarning 60%idan ko'prog'i o'qituvchilaridan masofadan ta'lim berish talabini qo'ygan, daromadi o'rtachadan kamroq mamlakatlarda bu ko'rsatkich 41%ni, daromadi kam bo'lgan mamlakatlarda esa 20% tashkil qilgan.

2019-2020-o'quv yilda daromadi kam bo'lgan mamlakatlarning 38 %i boshqa har qanday daromad guruhiga nisbatan ko'proq qo'shimcha o'qituvchilarni yollagan; 2020-2021-o'quv yilida bu ulush deyarli ikki barobar oshgan (63%). Mamlakatlar maktablarni qayta ochish uchun pedagogik xodimlari ishga olish to'g'risida ham ma'lumot berishgan. Masalan, o'rtacha daromadga ega bo'lgan mamlakatlarning 10 tadan 4 tasi 2020-2021-o'quv yilida maktablarni qayta ochish uchun nopedagog xodimlarni ishga qabul qilgan. Ishga qabul qilingan nopedagog xodimlarga texnik xodimlar, tibbiyot xodimlari, maslahatchilar, xavfsizlik xodimlari, AKT xodimlari va boshqalar kiradi.

FIGURE 4-2. Recruitment of teachers and other educational personnel, by income group




Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. Countries that responded to OECD are not included in the sample for recruitment of new teacher personnel due to differences in survey design in OECD questionnaires. The response options for the question on non teacher personnel only included "Yes" and "No". The option "Discretion of schools/districts" was not included. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure as the countries that responded to this question cover less than 50 per cent of the total 4-17 year old population. More information on the coverage of each income group can be found in Annex I.

Source: Author

Aksariyat mamlakatlar 2019-2020-o'quv yilida maktablarning yopilishi o'qituvchilarining mehnat haqi va imtiyozlariga ta'sir ko'rsatmaganligini bildirishgan. Respondent mamlakatlarning atigi 10%i o'zgarishlar haqida hisobot bergan (3% pasayish va 7% o'sish haqida hisobot bergan). Boshqa bir qancha hollarda (5%) qaror maktab yoki tumanlar ixtiyoriga qoldirilgani xabar qilinadi.

Maktab yopilgan davrda o'qituvchilar va ota-onalar va/yoki o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'qituvchilar o'quvchilar va ularning ota-onalari/vasiylari bilan aloqada bo'lishlari uchun foydalaniladigan telefon, xabar almashish dasturlari va elektron pochta eng keng tarqalgan vositalar ekani qayd etilgan. Jahon miqyosida har 4 mamlakatdan 3 tasi o'qituvchilarni telefon yoki videokonferensiyalardan foydalanishga undagan va 4 mamlakatdan faqat 1 tasi uyga tashrif buyurishni rag'batlantirishgan. O'rtadan yuqori va yuqori daromadli mamlakatlar telefon va videokonferensiyalari (75%), matn yoki xabarlar ilovalari (73%) va o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar (72%) uchun maxsus elektron maktab platformalaridan foydalanishni rag'batlantirgan. Biroq, kam daromadli mamlakatlarning faqat yarmi telefon yoki xabar almashish ilovalari, 22%i elektron maktab platformalari va 22 %i elektron pochta orqali ta'lim tashkil etganini ma'lum qilgan.

FIGURE 4-3: Number of interactions encouraged between teachers and parents and/or students during school closures, by income group



Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. The total number of interactions is based on countries that responded "yes" to an interaction method. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure as the countries that responded to this question cover less than 50 per cent of the total 4-37 year old population. More information on the coverage of each income group can be found in Annex 1.


Barcha daromad guruhlaridagi mamlakatlar masofadan/onlayn ta'limni osonlashtirish va o'qituvchilar farovonligini oshirishda turli qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalangan. Umuman olganda, barcha mamlakatlarda o'qituvchilar eng ko'p masofaviy ta'lim asosida (89%) dars berish bo'yicha ko'rsatma va kasbiy psixologik yordam (78%) shaklida qo'llab-quvvatlangan (rasm 4-4).

Mamlakatlarning aksariyati o'qituvchilarni masofadan o'qitish, pedagogika sohasidagi o'quv faoliyati va turli pedagogik usullar bilan texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, AKT vositalari va bepul ulanish uchun moslashtirilgan o'quv materiallari bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlagan.

Biroq, kam ta'minlangan mamlakatlarda hukumatning turli darajalarida o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashda ba'zi farqlar mavjud. Ta'kidlash joizki, biron bir daromadi kam bo'lgan mamlakat AKT bilan yordam yoki maktab darajasida virtual sinf mashg'ulotlari uchun tavsiyalar berilganligi haqida xabar yo'q. Bu yuqori va kam daromadli mamlakatlar o'rtasidagi raqamli ta'limning yorqin aksidir.

2021-yil fevral oyi holatiga ko'ra, so'rovnomada qatnashgan mamlakatlarning 2/3 qismi o'qituvchilarning COVID-19 ga qarshi eylanishini davlat miqyosida ustuvor maqsad hisoblaydi. Ajablanarlisi shundaki, COVAX tashabbusi doirasida faqat kam va o'rta daromadli mamlakatlar o'qituvchilarni emlashga ustuvor ahamiyat qaratgan.

FIGURE 4-4: Support provided to teachers nationwide, by type of support and income group



Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. While the results represented in this figure covers more than 50 per cent of the global student-aged population, this may not apply to specific income groups. More information on the population coverage of each income group can be found in Annex 1.

Aksariyat mamlakatlarda o'qituvchilar 2019-2020-o'quv yilida maktablar yopilganda xavfsiz ta'lim olishni ta'minlashda masofaviy/onlayn ta'limga o'tish hamda turli usullar yordamida o'quvchilar va oilalar bilan muloqot qilgan.

Hukumat xavfsiz maktablarni ochish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda o'qituvchilarni emlashga ustuvor ahamiyat berishni davom ettirishi kerakligi ta'kidlangan.

O'zbekiston:

Karantin davrida o'qituvchilar o'z ish faoliyatlarini masofaviy tarzda (ish haqi to'liq saqlangan holda) davom ettirishgan. Navbatdan tashqari mehnat ta'tilida bo'lgan xodimlarning ta'til muddati yillik asosiy mehnat ta'tili hisobidan uzaytirilgan. Qolgan xodimlarga zaruratga ko'ra yillik ta'tildan foydalanish grafigidan qat'i nazar, asosiy mehnat ta'tili hisobidan haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tili taqdim etilgan.

Koronavirus infeksiyasi bilan zararlanishi yoki zararlangan deb gumon qilinishi munosabati bilan karantinga joylashtirilgan o'qituvchilar, shuningdek, ularning 14 yoshgacha bo'lgan bolalarini parvarish qilayotgan xodimlarga o'rtacha oylik ish haqining 100 %i miqdorida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'langan.

Koronavirus infeksiyasi bilan zararlanib, karantinga joylashtirilgan 14 yoshga to'lmagan bolaning ota-onasi bo'lgan pedagog xodimlar bilan mehnat shartnomalarini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish taqiqlangan.


V BOB. MAKTABLARNING QAYTA OCHILISHI

Ushbu bobda mamlakatlarning maktablarning xavfsiz holda qayta ochilishini ta'minlash va bolalarning maktabga qaytishini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar to'g'risida xulosalar keltirilgan. O'quvchilar, ayniqsa, kam ta'minlanganlar, yo'qotilgan ta'limni qayta tiklashga va o'rganishga yordam berishlari uchun maxsus va doimiy yordamga muhtoj bo'lishadi.


Maktablarda kasallik yuqtirishni minimallashtirish maqsadida, maktablar uchun mavjud infratuzilma va cheklangan qo'shimcha sarmoyalar (masalan, qo'llar gigiyenasi yoki havoni ventilyatsiya qilish) bilan amalga oshirishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni, shuningdek, ko'proq sarmoyalarni talab qilishi mumkin bo'lgan tadbirlarni, ta'lim sohasi va boshqa sohalar o'rtasida muvofiqlashtirish (sog'liqni saqlash yoki transport kabi) ishlarni amalga oshirishi zarur.

So'rovnomada qatnashgan davlatlarning deyarli 99%i o'zlarining Ta'lim vazirliklari sog'liqni saqlash va gigiyena bo'yicha, maktablar uchun ko'rsatmalar

va tadbirlarni ma'qullaganini tasdiqlagan. Mamlakatlar pandemiyaga deyarli universal tarzda javob berib, maktablarda kasallik yuqtirishni kamaytiradigan, xususan tashqi olamdan jismonan chetlashish, qo'l va nafas olish gigiyenasi bilan bog'liq amaliyotlarni targ'ib qilishgan (5-1-rasm).



Daromadi past bo'lgan mamlakatlarning 57%i kasallangan o'quvchilari yoki xodimlarini kuzatib borishini ta'kidlaganlar. Garchi gigiyenani targ'ib qilish mamlakatlar bo'ylab keng tarqalgan bo'lsa-da, daromadi past bo'lgan 11 mamlakatdan faqat 1 tasi barcha o'quvchilar va xodimlarning xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli miqdorda gigiyenik vositalar (masalan, sovun, toza suv, UAsh moslamalari va maskalari) mavjudligini ma'lum qilgan. Dunyo miqyosida mamlakatlarning 55%i sog'liqni saqlash va xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalarga barcha maktablarida amal qilinayotganligini ko'rsatishgan. (5-2-rasm).




Maktablar ochilgandan keyin ham, ba'zi o'quvchilar maktabga qaytmasliklari mumkin edi.

Maktablar yopilishining global eng yuqori cho'qqisidan bir oy o'tgach, UNISEF tomonidan kuzatish olib borilgan. Unga ko'ra mamlakatlarning 1/3

qismidan kamrog'i maktablarni qayta ochish bo'yicha qayta ro'yxatdan o'tish, darslarda qatnashishni monitoring qilish bo'yicha takliflarni kiritgan.

Shundan keyin o'qish tiklangandan keyingi kuzatuvlar yutuqlar mavjudligini ko'rsatgan, chunki maktablarning yopilishi boshlanganidan bir yil o'tgach, mamlakatlarning 85%i boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarining maktabga borishiga erishilgan. (5-4- rasm).


FIGURE 5-4: Estimated share of students who attended school in-person after the reopening of schools, by level of education and income group



Yuqori daromadli mamlakatlarda 50%ga yaqin maktablar ochilganda, o'quvchilarning deyarli barchasi maktabga borganligini ma'lum qilingan. Shu bilan birga, daromadi past va o'rta bo'lgan mamlakatlarning 1/3 qismi, maktablar ochilganida o'quvchilarining barchasi o'qishga qaytishganini e'tirof etgan. Dunyo miqyosida barcha mamlakatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining davomat darajasi pastligi aytilgan (daromadi past bo'lgan mamlakat guruhlaridan tashqari).

Maktablarning yopilishining o'quvchilar farovonligiga salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida daromadi o'rta va yuqori bo'lgan mamlakatlarda o'quvchilarning psixologik va ruhiy salomatligi qo'llab-quvvatlangan. Shu bilan birga, daromadi past bo'lgan mamlakatlar ushbu turdagi qo'llab-quvvatlash haqida ma'lumot kam bergan.

Dunyo miqyosida, mamlakatlarning 2/3 qismidan ko'prog'i maktablar ochilganda boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari uchun o'qishdagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha korreksiya choralari keng tatbiq etilganligini ma'lum qilgan (5-6-rasm). Bu so'rovnoma oldingi bosqchilariga nisbatan o'sish borligini ko'rsatadi.



Umuman olganda, so'rovnoma natijalariga ko'ra aksariyat mamlakatlar bolalarning maktablarga qaytishini qo'llab-quvvatlash borasida yutuqlarga erishmoqda. Biroq, ba'zi kamchiliklar saqlanib qolgan. Maktabga qaytishda maktabgacha yoshdagi o'quvchilarni kuzatib borish va qo'llab-quvvatlash ehtimoli ancha past bo'lgan. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish bo'yicha harakatlar hozirgi inqirozning eng yosh o'quvchilarga bo'lgan uzoq muddatli ta'sirini nafaqat kamaytiradi, balki kelajakdagi inqirozlarga qarshi ta'lim tizimining barqarorligiga hissa qo'shadi. Daromadi past bo'lgan mamlakatlarda qizlarning maktabga qaytishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning yetishmasligi ham e'tiborni o'ziga tortadi. Chunki bu sharoitda o'spirin qizlar maktablarning uzoq muddat yopilishidan keyin maktabni tashlab ketish ehtimoli katta ekani aniqlangan.

Aksariyat mamlakatlar sohalarining boshqaruvini muvofiqlashtirishni talab qiladigan choralardan kam foydalangan. Bu ajablanarli bo'lmasligi mumkin, lekin shuni ham e'tiborga olish kerakki, murakkab, ko'p tarmoqli tadbirlar ko'pincha barcha tizimlarning samaradorlik darajasini yanada oshirishi kuzatilgan. Masalan, sog'liqni saqlash va ovqatlanish sohaları bilan muvofiqlashtirish, maktablar yopilishining ko'p o'lchovli ta'sirini bartaraf etish uchun juda muhimdir. Ushbu sohada, ayniqsa, daromadi past bo'lgan mamlakatlar keng ko'lamli qo'llab-quvvatlashga muhtoj.

O'zbekiston:

Karantin qoidalarining yumshatilishi kasallik holatlarining ortishiga olib kelishi mumkinligi, ularni davolashga ham qo'shimcha vaqt talab etilishi kerakligi hamda o'qish boshlanishidan avval ularni davolab, kamaytirish muhimligi kabi faktorlarni inobatga olib ekspertlar fikridan kelib chiqqan holda, 2020-2021-o'quv yili 14-sentabrdan 2 ming 635 ta umumta'lim maktabi ota-onalar talabiga ko'ra an'anaviy, shu bilan birga, masofaviy shaklda ish faoliyatini boshlagan.

Maktablarning an'anaviy shaklda ochilishi to'g'risidagi qarorlar har bir maktab bo'yicha individual tarzda mahalliy Kengashlar deputatlari ruxsatidan so'ng qabul qilingan. Bunda ularning haqiqiy tayyorgarligi, hududdagi yoxud maktabdagi sanitariya-epidemiologik vaziyat, o'qituvchilar orasida koronavirus kasalligining qayd etilishi va sog'liqni saqlash tizimi xulosalari hisobga olingan. Shu bois, maktablar vaziyatdan kelib chiqib, bosqichma-bosqich faoliyatini tiklagan.

Maktabda ta'lim 3 ta ssenariy bo'yicha tashkil etilgan:

- 1) an'anaviy ta'lim;
- 2) onlayn maktab orqali o'qitish;
- 3) aralash (gibrid) ssenariy — ham an'anaviy, ham onlayn.

“Farzandingizni pandemiya sharoitida maktabga yuborishga tayyormisiz?” nomli so'rovnomada telegram orqali qatnashgan deyarli 1 mln. foydalanuvchidan 70% ota-ona bola sog'lig'idan xavotirda bo'lib, uyda o'zi onlayn o'qitishi mumkinligi, 30% esa pandemiya sharoitida ham farzandini maktabga yuborishini bildirgan.

An'anaviy shaklda ta'lim olib borgan maktablar maxsus sanitariya qoidalariga amal qilgan holda faoliyat yuritgan. Xususan,

- shaxsiy gigiyena, suv ta'minoti va sanitariya;
- umumta'lim maktabining sanitariya holati va ularga xizmat ko'rsatish;
- maktabga tashqaridan infeksiyaning kirishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'qituvchilar, o'quvchilar va boshqa maktab xodimlari orasida COVID-19 tarqalishining oldini olish choralarini ko'rish.

Shu bilan birga, niqob-respiratorsiz maktabga kirish ta'qiqlangan. Niqob kamida har 3 soatda, respiratorlar kamida har 8 soatda o'zgartirilishi lozim bo'lgan. Maktabga kirishdan avval, maktabning tibbiy xodimlari – mas'ul xodimlari tomonidan «ertalabki filtrlash» bo'yicha ishlar amalga oshirilib, o'quvchilar kirish joylarida o'rnatilgan maxsus dispanserdan antiseptik vosita yordamida qo'llarini zararsizlantirish tartibi o'rnatilgan. Shuningdek, sanitariya talablari qatorida sinflarda har bir o'quvchiga 2 m² dan kam bo'lmagan maydon belgilab qo'yilgan. Barcha o'quvchilar bitta binoda ta'lim oladigan kam sonli o'quvchilari bo'lgan maktablarda, binoning 1 va 2-qavatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun, 3 va 4-qavatlar yuqori sinf o'quvchilari uchun ajratilgan.

Shuningdek, pedagoglar va o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida, 1 oktabrga qadar grippga va mart oyidan COVID-19ga qarshi to'liq bepul emlangan hamda o'quvchi va pedagoglar salomatligini saqlash maqsadida maktablarni zarur tibbiy va antiseptik vositalar bilan ta'minlangan.

VI. TA'LIMNI MOLİYALASHTIRISH


Davom etayotgan pandemiya sharoitida ta'limni moliyalashtirish global muammo bo'lmoqda. Ta'lim tizimlari va maktablari masofaviy ta'lim strategiyalariga investitsiya qilish, xavfsiz sanitariya sharoitlarini ta'minlash va o'qituvchi yetishmasligi muammolarini hal qilish hamda eng zaif o'quvchilar orasida ta'lim yo'qotishlarini bartaraf etishda moliyalashtirishga talab ortib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, COVID-19 natijasida 2030-yilga kelib daromadi kam mamlakatlarda moliyalashtirish tanqisligi 3 barobar oshib, 200 mlrd dollarni tashkil etgan.

49% mamlakatlar maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'limda COVID-19 pandemiyasi davrida maktablarni qo'llab-quvvatlash uchun ta'limga sarf-xarajatlarni oshirdi va 43% mamlakat barqaror byudjetni e'lon qilgan.

Daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda 1 ta o'quvchining ta'lim olishiga qilinadigan xarajat yiliga 10 300 AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 2 400 dollarni tashkil qilgan. Daromadlari o'rtachadan kam va daromadi kam bo'lgan mamlakatlarda o'rta ta'limdagi bir o'quvchiga 1 000 dollardan kam mablag' ajratilgan.

Daromadikam bo'lgan mamlakatlar hukumatlari ta'lim gahammilliy boylikning kichikroq ulushini ajratgan. 2018-19-yillarda daromadi kam bo'lgan mamlakatlarda ta'lim xarajatlari davlat YIMning 3,5%ni, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 4,7%ni tashkil etgan. O'rta daromadli mamlakatlarning taxminan 16%i 2020-yilda maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'lim uchun byudjet qisqartirganligini qayd etgan. Daromadi kam bo'lgan mamlakatlarning hech biri ta'lim xarajatlarini kamaytirmagan.

FIGURE 6-1a/b: Changes to the fiscal year education budget to ensure the response to COVID-19 for lower secondary education: a) in 2020 compared to 2019; b) in 2021 compared to 2020, by income group




Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure as the countries that responded to this question cover less than 50 per cent of the total 4-17 year old population. More information on the coverage of each income group can be found in Annex 1.

2021-yilda turli xil daromad guruhiga kiruvchi mamlakatlarning 60%idan o'rtacha yillik ta'lim byudjetlari COVIDdan keyin 4% ga o'sgan. Ushbu ijobiy tendensiyaga qaramay, 2021-yilda ta'lim byudjetini qisqartirishni kutayotgan mamlakatlarning ulushi 2020-yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p.

Pandemiyaga qarshi ta'limni qo'llab-quvvatlash choralari turli manbalar hisobidan amalga oshirilgan: tashqi donorlar, ilgari ajratilgan yoki yillik byudjetni qayta taqsimlash, hukumat tomonidan qo'shimcha mablag'lar yoki ta'lim byudjetidan mablag'larni qayta taqsimlash. Hukumat tomonidan ajratilgan qo'shimcha mablag'lar asosiy manba sifatida keltirilgan bo'lsa-da, ammo bu ko'rsatkich ulushi daromadi kam bo'lgan davlatlarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgani aniqlangan (6-2-rasm). Yuqori daromadli mamlakatlarning 85%idan ortig'i kam daromadli mamlakatlarga nisbatan 50% qo'shimcha mablag' olgan.

FIGURE 6-2: Sources of additional funding for education during the COVID-19 pandemic, by income group




Note: The chart shows the per cent of countries with valid responses. Caution is advised in generalizing the results represented in the figure to the countries that responded to this question over and over than 50 per cent of the total 4-17 year old population. More information on the coverage of each income group can be found in Annex 1.

Tashqi donorlardan ta'lim uchun moliyaviy yordam olish kam daromadli mamlakatlar orasida keng tarqalgan. Kam daromadli mamlakatlarning 67% COVID-19 bilan bog'liq ta'lim xarajatlarini qoplash uchun tashqi donorlardan rivojlanish yordamini olgan bo'lib, bu ko'rsatkich boshqa daromad guruhidagi mamlakatlar ulushidan ikki baravar ko'pdir.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarning 90%idan ko'prog'i boshlang'ich va o'rta ta'lim uchun qo'shimcha davlat mablag'lari yoki resurslarini ajratish uchun kamida bitta aniq umumiy mezonidan foydalangan. Har bir daromad guruhidagi mamlakatlarning kamida yarmi ushbu mezonni e'tirof etdi va daromadi o'rtachadan kam bo'lgan mamlakatlarning 75 %dan ko'prog'i bu mezon bo'yicha mablag' ajratdi.

FIGURE 6-3: Criteria used to allocate additional public funds/resources in primary and secondary education, by income group



Iqtisodiy tanazzulning oldingi davrlaridagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, byudjetni qisqartirish choralari yuzaga kelgan inqirozdan biroz vaqt o'tib amalga oshiriladi, chunki favqulodda turli sohalarga ajratilgan mablag'lar, iqtisodiyot va jamiyatni barqaror saqlashga yordam beradi. Kelgusida investitsiyalar maktablar yopilgan davrda ta'lim oluvchilar orasida yuzaga kelgan ta'lim yo'qotishlarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus mezonlarga va/yoki ehtiyojlarga asoslanib mablag' ajratish masofaviy ta'limning uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim siyosati va dasturlarini moliyalashtirishda tenglikni hisobga olish, muntazam va favqulodda byudjet mablag'larini ajratish orqali kapital mablag'lar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oila farzandlariga yetib borishi va hamma uchun inklyuziv ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

O'zbekiston:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-son farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatga ko'ra, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, umumta'lim maktablari va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari uchun 800 mlrd. so'm mablag'lari ta'minlanishi belgilab berildi.

Umumta'lim maktablarning faoliyati to'xtatilgan davrda umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari o'quvchilarining ota-onalariga (ular o'rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylarga, homiylarga) yillik ta'tildan foydalanish grafigidan qat'i nazar, yillik ta'til olish imkoniyati taqdim etildi.

Давлат бюджети харажатларининг вазифа жихатидан таснифи бўйича
2021 йил учун параметрлари (трлн. сўм)




O'quvchi va pedagoglarning salomatligini asrash maqsadida maktablarni zarur tibbiy va antiseptik vositalar bilan ta'minlash uchun "Inqirozga qarshi kurash" jamg'armasidan 17 mlrd. so'm mablag' ajratildi.

VII BOB. MAQSADLI QAROR QABUL QILISH

Pandemiya sharoitida ta'limni tashkil etishga oid qarorlar qabul qilish usullarini o'rganish maqsadida mamlakatlarda pandemiya davrida olib borilgan quyidagi ma'muriy strategik chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan:

- maktablarning yopilishi va qayta ochilishi;
- maktab ish rejimiga o'zgartirishlar kiritish;
- maktabni yopish paytida o'qishni davom ettirish;
- maktabni qayta ochgandan keyin o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatish;
- o'qituvchilar ehtiyojlarini o'rganish;
- o'qituvchilar uchun tovon puli;
- maktabni qayta ochish uchun gigiyena choralari ko'rish;
- maktablarni moliyalashtirishdagi o'zgarishlar.



7.2-rasm. Maktablarda ikkita yo'nalish bo'yicha olib borilgan o'rganishlar natijalari

Hukumatlar mavjud maktablarni yopish, qayta ochish va maktab rejimiga moslashish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirgan.

Odatda hukumat qarorlarni bir yoki bir nechta sub-milliy darajalar bilan birgalikda qabul qiladi (7.2-rasm).

Maktablarni yopish yoki ochish to'g'risidagi qaror faqat 69% mamlakatlarda hukumat darajasida qabul qilingan va mamlakatlarning 21% bu qarorni boshqa hududiy yoki vazirlik darajalarida qabul qilgan. Ushbu qarorni qabul qilishda bir qancha maxsus guruhlar, turli xil tashkilotlar, shu jumladan, Bosh vazir, Polshadagi kabi Bosh sanitariya inspeksiyasi yoki Ruminiyadagi kabi Sog'liqni saqlash va ichki ishlar vazirliklari kabilar ishtirok etigan.

Turli darajalarda qabul qilingan qarorlar har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lgan. Masalan, 51% mamlakatlarda o'qituvchilar uchun tovon puli, 44% mamlakatda o'quvchi va o'quvchilar uchun qo'shimcha yordam dasturlari ko'rsatilgan.

Mamlakatlarning 7-8% da maktablarning yopilishi, ochilishi, o'qituvchilarning mehnat sharoitlari va maktabni qayta ochish uchun gigiyena choralari to'g'risida maxsus qaror qabul qilish uchun markaziy boshqaruvga vakolat berilgan. Bu kabi qarorlar Bosniya Gersegovina, Germaniya, Kanada, Italiya, Vengriya, Ispaniya, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda qabul qilingan.

Mamlakatlarning atigi 2 %da mahalliy darajada maxsus qaror qabul qilishga ruxsat berilgan. Masalan, Finlyandiya mahalliy organlar faqat maktabni tugatish paytida o'qitishni davom ettirish uchun resurslar, o'qituvchilarning mehnat sharoitlari va maktabni qayta ochishda gigiyena talablari bo'yicha qaror qabul qila olgan. Mamlakat bo'ylab moliyalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish vakolati, odatda, mahalliy hokimiyatga berilgan. Hukumat maktablarni moliyalashtirish tartibini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilishni o'z zimmasiga olgan.

O'quvchilar va o'qituvchilarning mehnat sharoitlarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash to'g'risida qarorlar faqat maktab darajasida qabul qilingan. Bunga Kamerun, Chexiya, Angliya, Estoniya, Mozambik, Gollandiya, Tailand va Ukrainani misol qilish mumkin. Faqat OECD mamlakatlarida foizlar ancha yuqori bo'lib, deyarli 50% mamlakatlarda o'qituvchilarning mehnat sharoitlarini maktab darajasida hal qilishga imkon berilgan.

Maktabni yopish uchun asos bo'ladigan mezonlar faqatgina 63 ta rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

O'zbekiston

Mamlakatda pandemiya boshlanishi bilan hukumat markazlashgan holda nazoratni o'z qo'liga oldi va tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda umumiy qarorlar qabul qildi. Bu qaror va hujjatlarning mazmun-mohiyati, asosan, pandemiya davrining asoratlarini yumshatishga qaratildi, ya'ni onlayn ta'limga o'tish, o'quv jarayonlari maxsus tartibini belgilash, o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlash, axbrot texnologiyalari va telekommunikatsiya xizmatlarini yaxshilash, o'qituvchi-pedagoglarning informatsion texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, xalq ta'limi sohasidagi maktablar infrastrukturasini yaxshilash, o'quvchilar salomatligini muhofazalash kabi muhim masalalarni o'z ichiga oldi.

Pandemiya davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir nechta muhim qaror va normativ hujjatlar davlat rahbari yoki hukumat tomonidan qabul qilingan.



VIII BOB. XULOSA

Mazkur hisobotda asosiy xulosalar uchinchi bosqichdagi so'rovnoma natijalari asosida shakllantirilgan. So'rovnoma 2020-yil to'liq va 2021-yil birinchi olti oylik ma'lumotlari asosida yig'ilgan. Tahlil natijalariga ko'ra 2020-yilda maktablar o'rtacha 79 kunga yopilgan. Bu esa daromadi past bo'lgan davlatlarda ta'lim sifatiga sezilarli darajada ta'sir etgan, shuningdek, bu nochor ahvoldagi oilalarga ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Aksariyat davlatlarning ta'limdagi yo'qotishlar darajasi va masofaviy ta'lim sifatini aniqlash qiyin bo'lgan.

Aksariyat davlatlar o'zlarining milliy baholash tizimlari orqali o'quvchilarning bilimni aniqlagan va ularni keyingi bosqichga o'tkazishgan. Shu bilan birga ko'pgina davlatlar ta'lim hujjatlariga va o'quv materiallarga o'zgartirishlar kiritib, ayrimlari sezilarli darajada qisqartirishgan.

Shunga qaramasdan daromadi past bo'lgan (radio va televideniya) va daromadi yuqori bo'lgan (onlayn-platforma) davlatlarning aksariyati ta'limda uzilishning oldini olish bo'yicha masofaviy ta'limga ko'proq e'tibor qaratishgan. Kelajakda pandemiya choralari yumshatilishi natijasida maktablarning ochilishi bilan masofaviy ta'limning ahamiyati deyarli yo'qolishi mumkin. Masofaviy ta'limni davom ettirish yoki offlayn ta'lim bilan birga olib borish uchun oqilona qarorlar qabul qilish zarur bo'ladi va moliyalashtirish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish talab etiladi.

Aksariyat mamlakatlarda o'qituvchilar ta'limni masofaviy shaklda, asosan internet orqali onlayn shaklda, ayrimlari elektron pochta, telefon so'zlashuvlari va boshqa shunga o'xshash aloqa vositalari orqali amalga oshirgan.

COVID-19 emlash dasturini kengaytirish maqsadida, aksariyat davlatlar barchani emlashdan o'tkazib, maktablarni ochishga harakat qilgan. Shu bilan birga ayrim davlatlar maktablarda kasallikning oldini olish bo'yicha gigiyena choralarini kuchaytirgan va sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqqan.

Biroq daromadi past bo'lgan davlatlarda oddiy suv va gigiyena bilan bog'liq choralar ham qo'llana olmagan. Shunga qaramasdan, daromadi past va o'rta bo'lgan davlatlar kasallikning birinchi to'liqinidan keyin maktablarni ochishgan.

Bunday choralarning oldini olish va ta'limni sifatli yo'lga qo'yish hamda o'qituvchilarni masofaviy ta'limga tayyorlash uchun qo'shimcha investitsiyalar jalb etish zarur hisoblanadi.

Aksariyat davlatlar mamlakat byudjetidan ta'limni har yilgi belgilangan

taqsimotdan ortiqcha pul mablag'larni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishgan. Daromadi past va o'rta bo'lgan davlatlar qo'shimcha byudjet mablag'larini ta'lim vositalariga qaratishgan bo'lsa, yuqori daromadli davlatlar o'qituvchilarning oylik maoshlarini oshirishga yo'naltirgan.

Ta'kidlash joizki, bunday so'rovlar natijasida doimiy monitoring olib borish turli xil ko'rinishdagi vaziyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Xususan, daromadi past bo'lgan davlatlarning ta'lim tizimida sezilarli darajada ta'lim sifatining tushishi va yo'qotishlarga olib kelinganligi aniqlangan.



UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLAR



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PEDAGOGIK TRANSFORMATSIYADA AXBORIY TA'MINOT - KASBIY RIVOJLANISHNING RAQAMLASHTIRILGAN MUHITI: MUAMMO VA YECHIMLARI

Mehriniso PARDAYEVA,

*A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti
direktor o'rinbosari, PhD*



Har birimiz ota-ona sifatida ilk bor farzandimizning jajji qo'llaridan yetaklab maktabga olib borganmiz/boramiz. Beixtiyor xayolimizda turli savollar aylana boshlaydi: bolam maktabga oson moslashib ketarmikan? O'qituvchisi yaxshimikan, darsni sifatli beradimi? Farzandim bilan dars qilishga qiynalasmikanman? Darsliklari qanday ekan? Maktabda muhit xavfsiz va do'stonami? Va boshqa ko'plab savollar har birimizni qiynagan.

Bunday xavotir har birimizda bo'lgan, faqat uning darajasi har xilligi bilan o'ziga xosdir. Kimdir maktabni tanlaydi, kimdir o'qituvchini, kimdir masofaga va yana kimdir boshqalarning fikriga e'tibor qaratadi. Chunki maktablar, pedagogik jamoalar, o'qituvchilar turli xil, ammo, maqsad bitta - maktab bitiruvchisi ota-ona orzusidagi, davlat buyurtmasiga mos muvaffaqiyatli shaxs- vatanparvar fuqaro, solih farzand bo'lsin.

Maktab ta'limidan ota-ona, davlat va jamiyatning bunday kutuvlari haqlidir. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va global chaqiriqlar maktab ta'limiga yangi talablarni qo'ymoqda. O'z navbatida ta'limiy transformatsiya yuz berib, progressiv islohotlar orqali ta'lim muammolariga innovatsion yechimlar topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar maktab ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatda o'qituvchi nufuzini oshirish va ta'lim mazmuni, o'qitish hamda baholashning o'quvchilarni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash maqsadida ilg'or tajribalarga tayanib takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Eng asosiysi, barcha islohotlarning ijrochisi – pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, masalan, doimiy ehtiyojlarga asoslangan individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini taqdim etuvchi “Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus raqamli platformasi joriy etilmoqda [1; 1 b.].

Mazkur raqamli makonda har bir xalq ta'limi xodimining kasbiy rivojlanish dinamikasi, uning pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari va o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi. Davriylikka asoslangan an'anaviy malaka oshirish tizimidan farqli o'laroq,

raqamlashtirilgan tizim o'qituvchiga texnik yechimlar bilan bir qatorda psixologik qulay bo'lgan muhitni ham taqdim etadi (1-rasm).

Ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. An'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi [1; 1 b.].



1-rasm: Malaka oshirishning raqamlashtirilgan tizimi qulaylik va imkoniyatlari

Demak, xalq ta'limi muammolarini o'rganish, istiqbollarini belgilash va kasbiy rivojlanishni yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati va pedagogik kadrlar malakasini uzluksiz oshirish, ularni sifatli o'quv-metodik va ilmiy axborot resurslar orqali qo'llab-quvvatlash dolzarb masaladir (2-rasm).



2-rasm: Kasbiy rivojlanuvchilar va tadqiqotchilar uchun raqamli tizimda taqdim etiladigan texnik yechimlar va kontent

Har qanday tadqiqot, eng avvalo, muammoni o'rganish, aniqlashtirish va asoslash uchun amaldagi me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik resurslar hamda ilmiy manbalar, adabiyotlarni tahlil qilishdan boshlanadi. Ularni esa tadqiqotchiga taqdim etish, muammoning yechimidan manfaatdolar uchun muhim tadbirlardan biri bo'lishi lozim.

Butun dunyoda ta'lim sohasi bo'yicha ilmiy ishlar, jurnallar, adabiyotlar va boshqa turdagi resurslarni jamlovchi, internet tarmog'ida foydalanuvchilar uchun turli tillarda, bepul va pulli ravishda taqdim etuvchi subyektlar mavjud.

Mamlakatimizda ham milliy tadqiqotchilar uchun shunday manbalarni ko'paytirish masalasi hukumat darajasida amalga oshirilishi belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil, 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, 2020-yil, 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 45-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari (41-band: Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritish uchun salohiyati yuqori bo'lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish) ga erishish vazifasi belgilab berilgan [2; 45 b.].

A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbolini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi uchun zamonaviy, shu jumladan, elektron formatdagi raqamli o'quv adabiyotlari bazasini yaratish, jahon ilmiy-texnik ma'lumotlarning elektron axborot resurslaridan foydalanish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini sifatli o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlash ustida keng ko'lamli ishlarni boshlamoqda.

Shuningdek, institut ilmiy ishlanmalarining doimiy yangilanib turadigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, ya'ni ilmiy ishlanmalarining elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va uni muntazam yangilab borishga bel bog'lamoqda. Ta'lim sohasi, jumladan, maktab ta'limi muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari nusxalari bazasi shakllantiriladi, mahalliy tadqiqotchilarning dissertatsiyalari tasniflangan holda ma'lumotlar bazasiga joylashtirib boriladi.

Natijada, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari(41-band: Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritish uchun salohiyati yuqori bo'lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish)ga erishish maqsadida ta'lim va pedagogika fanlari bo'yicha davriy ilmiy nashrlarning ma'lumotlar va kitoblar bazalariga a'zo bo'lish orqali tadqiqotchilarni zaruriy manbalar bilan ta'minlanadi.

Keng jamoatchilik, tadqiqotchilar va xalq ta'limi xodimlarini ilmiy-metodik va boshqa yangiliklar, ma'lumotlar bilan ta'minlab borish maqsadida institutning ilmiy-metodik jurnali, jumladan, elektron nashri joriy etiladi.

Institut Axborot resurs markazini ehtiyojlar asosida zamonaviy, shu jumladan, elektron formatdagi o'quv adabiyotlari bilan to'ldirish maqsadida mahalliydagi raqamlashtiriladi va xorijiy nashrlar, aniqrog'i, sotib olinadi.

Institut ilmiy ishlanmalari, kutubxona fondi resurslarni shtempellar, kitob belgilari, yakka tartibdagi mashina o'qiydigan shtrixli kodlash, chipashtirilgan, doimiy yangilanib turadigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, ya'ni elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va uni muntazam yangilab turishga erishiladi.

Yuksak mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini sifatli o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlash maqsadida variativ o'quv dasturlariga mos ravishda tasniflanuvchi, elektron tarmoqda avtomatlashtirilgan saralash hamda qidiruv tizimlari talablariga mos fokuslashtirilgan resurslar kartotekasi shakllantiriladi (3-rasm).



3-rasm: Kasbiy rivojlanuvchilar va tadqiqotchilarning axboriy ta'minoti

Xalq ta'limi xodimlariga ehtiyojlarga asoslangan raqamli axborot ta'lim resurslarini taqdim etish, kasbiy rivojlanishning raqamlashtirilgan muhitida innovatsion pedagogik transformatsiyani ta'minlash orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'ratish uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 45-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.



UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLAR



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**XALQ TA'LIMI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH:
DAVRIYLIKDAN UZLUKSIZLIKKA O'TISH MASALALARI**

Anvar BAXRAMOV,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti

direktor o'rinbosari,

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent



Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini isloh qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda xalq ta'limi xodimlarining oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar nuqtai nazaridan malaka oshirish tizimini davriylikdan uzluksizlikka o'tkazishning asosiy jihatlari, ta'lim muassasalari xodimlari malakasini oshirishning mavjud muammolari va istiqbollarini haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish; kasbiy rivojlanish; davriylik; uzluksizlik; ta'lim sifati; muqobil shakllar.

The article deals with the issues of reforming the system of retraining and advanced training of public education personnel in the Republic of Uzbekistan. The main aspects of the transformation of the system of advanced training from periodic to continuous, the existing problems and prospects of professional development of employees of educational institutions in the light of the ongoing reforms in the system of postgraduate education of public education personnel in the country are revealed.

Keywords: professional development; periodicity; continuity; professional development; the quality of education; alternative forms.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini, xususan, maktab ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari yangilanib, yangi darsliklar yaratilmoqda, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Biroq, maktab ta'limining muvaffaqiyati nafaqat ta'limning yangilangan mazmuni va zamonaviy maktab binolari bilan belgilanadi. Ta'lim sifatini oshirishda asosiy rolni maktabning pedagogik jamoasi o'ynaydi. Ma'lumki, maktabdagi ta'lim sifati unda faoliyat yuritadigan o'qituvchilarning sifatidan yuqori bo'lishi mumkin emas [1].

Ana shu obyektiv reallikdan kelib chiqib, mamlakatimizda pedagog kadrlarning muvaffaqiyatli mehnat qilishi, malakasini oshirishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O'qituvchi va murabbiylarning mavqeyi va nufuzini oshirish borasida maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi 4 yil davomida ular bevosita xizmat vazifalari va kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan turli yig'ilishlarga, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalbetilmayapti. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan o'qituvchining kasbiy mahorati maktabda ta'lim sifatini oshirishga, uning jamiyatdagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bir tomondan, malaka oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ikkinchi tomondan o'qituvchilarning o'z kasbiy mahoratini oshirishga intilishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu o'qituvchidan doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'zlashtirish ustida ishlashni taqozo etadi.

Afsuski, aynan shu sohada yillar davomida muayyan obyektiv va subyektiv muammolar to'planib qolgan. Xalq ta'limi xodimlarining umumiy va xususan pedagogik kadrlar malakasini oshirishning sovet davrida belgilangan tashkiliy tamoyillari obyektiv muammolar manbayi hisoblanadi. Ushbu tamoyillarga muvofiq ta'lim muassasalarining rahbarlari 3 yillik, pedagogik xodimlar esa 5 yillik davriylik asosida 144 soatlik o'quv dasturi bo'yicha, asosan, ish va yashash joyidagi ajralgan holda o'z malakalarini oshirishlari shart, chunki kurslar viloyat markazlarida joylashgan malaka oshirish institutlari tomonidan tashkil etiladi. Bu esa malaka oshirayotgan o'qituvchilarni boshqa o'qituvchilar bilan almashtirish, o'qituvchining oilasi va yashash joyidan yiroq ketishi, qo'shimcha moliyaviy xarajatlar bilan bog'liq ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan ham o'qituvchilar malaka oshirish kurslariga xohlamasdan boradilar va ilojini topsalar, malaka oshirishdan bosh tortadilar.

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar, shuningdek, ayrim o'qituvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmalarning etishmasligi bilan bog'liq subyektiv muammolarni



ham ko'rsatdi, bu esa kasbiy mahoratni oshirish bo'yicha mustaqil ishlarning yetishmasligidan dalolat beradi. Kasbiy tayyorgarlik saviyasini o'rganish uchun tasodifiy tanlangan o'qituvchilar va maktab rahbarlarining yarmidan ko'pi mutaxassislik (o'qituvchilar) va boshqaruv (maktab direktorlari) bo'yicha juda sayoz bilimga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.

Subyektiv tavsifga ega bo'lgan ushbu muammoning kelib chiqishi yuqorida qayd etilgan obyektiv muammoning salbiy ta'siri bilan izohlanadi. O'qituvchilar va maktab direktorlarining yomon ko'rsatkichlari nafaqat o'z-o'zini takomillashtirishga intilishning yetishmasligi, balki xalq ta'limi muassasalari xodimlarining malakasini oshirish davriyligi bilan ham bog'liq. 3-5 yil davriylikda amalga oshiriladigan malaka oshirish kursi ta'lim sohasidagi bilimlar yangilanishining zamonaviy sur'atlariga munosib tayyorgarlikni ta'minlab berolmaydi. Kurslarda olingan bilimlar tezda eskiradi, bu esa o'qituvchilarning taraqqiyotdan orqada qolishiga va o'qitiladigan fani, o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari bilan bog'liq yangiliklardan bexabar bo'lib qolishiga olib keladi.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan yuqoridagi muammolar va ularning kelib chiqish sabablarini inobatga olgan holda, malaka oshirish tizimini davriylikdan uzluksiz faoliyatga o'tkazishni, ya'ni xalq ta'limi xodimlarining davriy malaka oshirishdan uzluksiz malakasini oshirishga o'tishni nazarda tutuvchi qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi [2,3]. Yangi me'yoriy hujjatlarga muvofiq, xalq ta'limi xodimlarining malakasini davriy oshirib borish o'rniga uzluksiz rivojlanish tizimi joriy etilmoqda. Endi xalq ta'limi xodimlari har yili kamida 36 soat o'z malakalarini oshiradilar. Malaka oshirish kurslari uchun o'qitishning kredit-modul tizimi joriy etilmoqda.

Xalq ta'limi xodimlarining ishdan ajralmagan holda o'zini-o'zi takomillashtirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur elektron platforma xodimning kasbiy bilimlarini diagnostika qilish va malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash asosida mazkur xodim uchun kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyasini tuzib beradi. Elektron platforma xodim kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyasiga muvofiq unga muayyan o'quv modullarini o'zlashtirishni taklif qiladi, o'quv modullarining mustaqil o'zlashtirilishi tegishli miqdordagi kreditlar bilan rag'batlantiriladi. Malaka oshirish sertifikatini olish uchun zarur bo'lgan kreditlar miqdori tasdiqlangan.

Uzluksiz malaka oshirishning yangi tizimiga muvofiq, xodimning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan har qanday faoliyati rag'batlantiriladi. Buning

uchun malaka oshirishning muqobil shakllari va ularga mos kreditlar ro'yxati tasdiqlandi. Ushbu ro'yxatga pedagog xodim xalqaro indekslangan ilmiy jurnallarda ilmiy-uslubiy maqola yozish va chop etish, darslik yozish, ochiq o'quv platformalarida taklif etilayotgan turli malaka oshirish kurslarida muvaffaqiyatli o'qish, maktab o'quvchilaridan uchun xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlash kabi faoliyatlar kiritilgan. Xodimning muqobil shakllardagi muvaffaqiyatli faoliyati navbatdagi malaka oshirishga tenglashtiriladi.

Joriy yilning mart oyidan boshlab xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz malakasini oshirishning yangi tizimi hamda "Uzluksiz kasb-hunar ta'limi" maxsus elektron platformasi sinovdan o'tkazildi. Yangi tizim va platformani joriy etishning dastlabki natijalari xalq ta'limi xodimlarining keng ommasi tomonidan ular ijobiy qabul qilinganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Barber Maykl, Murshed Mona. Maktablarda ta'limning barqaror yuqori sifatiga qanday erishish mumkin. Eng yaxshi maktab tizimlarini tahlil qilish saboqlari. / Вопросы образования, 2008, 7-60.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta'lim va kadrlar tayyorlash, fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., № 06/20/6108/1483.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2021 y., 07/21/4963/0064.



UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLAR



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

XXI ASRDA TA'LIM SOHASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Dilnoza KURBANOVA,

*UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy komissiya ta'lim masalalari bo'yicha mutaxassisi*



Annotatsiya

Mazkur maqola XXI asr ta'limi sohasida duch kelinayotgan muammolar va yechimlariga bag'ishlangan. Xususan, XXI asr ta'limi ko'nikmalari, mohiyati to'g'risida ma'lumotlar hamda asr ta'limida "Z avlod" va "Alfa avlod" iborasining talqini keltirilgan.

Kalit so'zlar: *XXI asr ta'limi talablari, XXI asr ta'limi ko'nikmalari, o'quvchiga qaratilgan ta'lim, raqamli fuqaro, Z avlod, Alfa avlod, ijtimoiy- hissiy ta'lim, media savodxonlik.*

Эта статья посвящена проблемам и решениям, стоящим перед образованием в 21 веке. В частности, он предоставляет информацию об образовательных навыках 21 века, их значении и толковании терминов «поколение Z» и «альфа-поколение» в образовании 21 века.

Ключевые слова: *Требования к образованию 21-го века, образовательные навыки 21-го века, образование, ориентированное на учащихся, цифровое гражданство, поколение Z и поколение альфа, социальное эмоциональное обучение, медиаграмотности.*

This article focuses on the challenges and solutions facing education in the 21st century. Particulary, it provides information on 21st century educational skills, their meaning and interpretation of the terms "Z Generation" and "Alpha generatio"n in 21st century education.

Keywords: *21st Century Education Requirements, 21st Century Educational Skills, Student-Centered Education, Digital Citizenship, Generation Z and Generation Alpha, Social Emotional Learning, Media Literacy.*

Ta'lim insonlar hayotini tubdan o'zgartiradi va uning davlat rivojlanishdagi hissasi beqiyos. Ta'limning asosiy maqsadi – jamiyat faol shaxsini tarbiyalash, ularni mehnat bozoriga tayyorlash, malakasini oshirish, shuningdek, insonlarni jamiyat hayotiga jalb qilish, jamiyat qadriyatlari va axloqini o'rgatishdan iborat. Ta'limning vazifasi - shaxsni ijtimoiylashtirish va jamiyatni shakllantirish va barqarorlikni asrashdir.

Globallashuv jarayonida XXI asr ta'limi o'quvchilarga dunyo miqyosida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berish va ularni amalda qo'llashga bo'lgan ishonchni oshirishga ko'mak beradi. AKT rivojlangan davrda ma'lumotlar juda ko'pligi sababli, XXI asr ko'nikmalari ko'proq ma'lumotni tushunishga, baham ko'rishga va undan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kundda insonlar muvaffaqiyatga erishish uchun an'anaviy mehnat bozorini tark etgan holda o'z bandligini yaratishni afzal ko'rmoqdi. Muvaffaqiyatli insonlar dunyoning istalgan nuqtasida yashash va ishlashni hamda dunyo kezishni, qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib mehnat qilishni lozim topmoqda.

Vaholanki, hozirgi fan-texnika rivojlangan asrda ko'pchilik o'quvchilar o'tmishdagidek usulda ta'lim olishni davom etmoqdalar, xususan, yod olish va individual testlar orqali o'qitilmoqda. Ko'pchilik o'quvchilar bilim olishga motivatsiyasi past bo'lganligi uchun qiynalmoqda, Youtube videosini tomosha qilish yoki Internet orqali bir xil ma'lumotni o'rganish imkoniyati bo'lsa, maktabga borishni xushlamaydi. Yoki maktab ta'limidan qoniqmasligi tufayli repetitora qatnashni ma'qul ko'radi.

Maktablar hozirgi kundagi jadal rivojlanishlarga o'z vaqtida javob bera olmaganligi tufayli o'quvchilarga tez o'zgarishlarga javob berish hamda yangi ma'lumotlardan qanday foydalanishni yetarli darajada o'rgata olmaganligi tufayli eskirgan usullar qo'llanilmoqda.

XX asr ta'limi o'qituvchiga qaratilgan ta'lim sifatida, barcha tavsiyalar, pedagogik texnologiyalar ta'lim beruvchini shakllantirish hamda o'qituvchining ta'lim jarayonidagi boshqaruvchilik rolini ta'minlashga bo'ysundirilgan edi. Yangi asr ta'limi esa, avvalgidan farqli ravishda, o'quvchiga qaratilgan ta'limni targ'ib etmoqda.

XXI asr ta'limida Z avlod va Alfa avlod terminlari paydo bo'ldi. Z avlodi - 1995 va 2009-yillar oralig'ida tug'ilganlar - ko'pchiligi internetsiz hayotini tasavvur qila olmaydi va o'quv jarayonida smartfon, iPad, smartdoska va boshqa texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Alpha avlodi - 2010 yildan keyin tug'ilganlar bo'lib ular smartfonlar, iPad, 3D televizor, Instagram va Spotify kabi musiqa ilovalari paydo bo'lgandan keyin tug'ilgan avlod va 22-asrning birinchi avlodidir. Ular xohlagan ma'lumotlarni xonadan chiqmasdan



internetdan oson topa olishadi. Shuningdek, ular dunyoning turli burchaklaridagi insonlar bilan oson muloqot o'rnatishi, do'stlar orttirishi va sayohat qilishi mumkin, bu esa ularga cheksiz o'rganish tajribasini yaratadi.

Bugungi kunda o'quvchilarimiz zukko, mustaqil hamda qobiliyatli "raqamli avlod" bo'lib, raqamli texnologiyalardan osongina foydalanmoqda. Bu esa o'qituvchilardan jadal rivojlanayotgan zamonamiz talablariga moslashishni, o'z ustida tinmay ishlashni talab etadi.

XXI asr ta'limining mohiyati o'quvchilarga raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish va bu ko'nikmalarni amalda muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, raqamli rivojlanish jarayonida ijtimoiy-hissiy ta'lim berish, media savodxonlikni shakllantirishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy-hissiy ta'lim – bu barcha yoshdagi o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq anglashga va boshqalarga hamdardlik ko'rsatishga yordam beradigan texnikadir. Ijtimoiy-hissiy ta'limning quyidagi kompetensiyalari mavjud: O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, muomala ko'nikmalari va qaror qabul qilish. Bu ko'nikmalar barchaning huquq va qadriyatlarini himoya qiladigan raqamli fuqarolarni shakllantirishga ko'mak beradi.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarning ko'pligi tufayli, XXI asrning asosiy ko'nikmalari ma'lumotni saralash, tushunish, baham ko'rish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan. Xalqaro hamjamiyat tomonidan o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish tavsiya etilgan.

Mazkur to'rtta mavzu har bir darsning savodxonlik va hisoblash kabi ajralmas bo'lagi bo'lishi hamda o'quv dastur va rejalashtirishda o'z aksini topishi lozim.

Ijodkorlik negizida ma'lumotlarga yangicha yondashish, muammolarni innovatsion, ya'ni yangi yo'llar bilan o'ylash, yangi aloqalar o'rnatish va muammolarga innovatsion yechimlarni topish yotadi. Tanqidiy fikrlash orqali ma'lumotni tahlil qilish va tanqidiy baho berish tushuniladi. Muloqot orqali biron ma'lumotni yaxshi tushunish uchun boshqalar bilan muhokama etish mumkin. Hamkorlik - biron mavzu, loyiha bo'yicha bu jamoaviy ishlash tushiniladi.

Hozirgi kunda ba'zi maktab o'quvchilari darslarda to'liq qatnashmay, repetitorlarga qatnashni afzal ko'rmoqda. Ta'lim sifati maktab o'quvchilarning OTMLarga kirish foizi bilan belgilanmoqda. Vaholanki, bu natija ortida repetitorlar hissasi yotadi.

Ta'lim sifati bu - infratuzilma, darsliklar va malakali o'qituvchilardir. Hozirgi kunda o'qituvchilar malakasini sifatli oshirish muammosi turibdi.

O'qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirishda maktab direktorining boshqaruvchilik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kadrlar faoliyatida qog'ozbozlikni kamaytirib, ularni o'z ustida ishlashlariga imkoniyat yaratish lozim, xususan, Internet va AKTdan foydalanishda imtiyozlar yaratish lozim. Maktab doirasida o'qituvchilarga ta'til davrida onlayn va oflayn mahorat darslarini tashkil etish, ta'lim sohasidagi so'nggi yagiliklar, ilg'or tajribalar bilan tanishish imkoniyatini yaratish orqali repetitorlarga raqobatbardosh ustozlar jamoasini shakllantirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Issues and trends in Education for Sustainable Development, A. Leicht, J. Heiss and W. J. Byun (eds) 2018, UNESCO.
2. The future of education and skills Education 2030, OESD 2018.
3. <https://thinkstrategicforschools.com/category/21st-century-education/>
4. <https://www.medialit.org/reading-room/education-for-the-21st-century>
5. <https://www.waterford.org/education/educational-trends-for-teachers/>
6. <https://study.com/academy/lesson/current-issues-and-trends-in-education.html>
7. <https://www.jstor.org/stable/j.ctvpb3xhh>
8. <https://mgiep.unesco.org/>
9. <https://www.nu.edu/resources/social-emotional-learning-sel-why-it-matters-for-educators/>



UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLAR



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI YUZASIDAN
DASTLABKI ANIQLANGAN MUAMMOLAR**

H.Botirov,

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim mudiri*

M.Vohidova,

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi*



Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda boshlang'ich ta'lim bo'yicha kuzatilayotgan tendensiyalar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar boshlang'ich ta'limida o'qitiladigan fanlar, o'qitish muddatlari bo'yicha qiyosiy tahlil olib borilgan. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limdagi dolzarb masalalari, bunda moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligi, oliy ma'lumotli pedagog kadrlarning yetishmasligi yuzasidan mavjud o'rganilgan hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy farazlar, tavsiyalar keltirilgan.

В данном статье дается сравнительный анализ тенденций развития начального образования в зарубежных странах, а также предметов, изучаемых в начальном образовании за рубежом, продолжительности обучения. Представлены актуальные проблемы начального образования в Узбекистане, в том числе отсутствие материально-технической базы, нехватка вышеобразованных учителей, а также научные гипотезы и рекомендации по решению этих проблем.

This article provides a comparative analysis of the trends in the development of primary education in foreign countries, subjects taught in Primary Education as well as the duration of study in primary education abroad. The current problems of primary education in Uzbekistan are presented, including the lack of material and technical base, the lack of highly educated teachers, in addition to the scientific hypotheses and recommendations for solving these problems have been given.

Dunyoda boshlang'ich ta'lim bo'yicha kuzatilayotgan tendensiyalar

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri sifatida tan olingan. Rivojlangan davlatlar ta'limda konseptual o'zgarishlarni olib kelish uchun ular izlanishlarni amalga oshiradi.

Finlyandiya dunyo mamlakatlari orasida alohida o'rin tutadi. Finlyandiya maktablarida shved, ingliz va nemis tillarini o'qitish boshlang'ich ta'lim dasturidan boshlanadi.

Finlyandiya maktabining islohotlari yo'nalishini belgilab bergan asosiy tendensiyalari quyidagilar:

- maktabni demokratlashtirish, maktab avtonomligini kuchaytirish, maktablarning fuqarolik institutlari bilan ijtimoiy sherikligini rivojlantirish;
- ta'lim mazmunini doimiy yangilash, bunda o'quvchilar bilimlarining rivojlanish dinamikasini kuzatib borish;
- ta'lim sifatini oshirish va uning jamiyat zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga muvofiqligini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tamoyili asosida o'qituvchilar malakasini oshirish.

O'quvchilar uchun bepul ovqat tizimi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, imtihonlar va uy ishi vazifalari umuman mavjud emas va davomat ham yuritilmaydi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari 1-3-sinfgacha ta'limni erkin tarzda olishlari uchun ta'limda minimal darajada cheklovlar o'rnatilgan.

Yaponiyada boshlang'ich ta'limning eng muhim xususiyati bu "kokoro" tushunchasidir. Har bir yapon uchun "kokoro" ta'lim g'oyasi bu bilim va ko'nikmalar bilan chegaralanib qolmasdan, balki inson xarakterini shakllantirishga yordam beradi.

Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, maktab o'qituvchisi bo'lish uchun Yaponiya fuqarosi o'qituvchi diplomini olish uchun imtihonlaridan o'tishi kerak. Yaponiya dunyodagi yagona davlat bo'lib, o'qituvchilarning maoshi mahalliy hukumat amaldorlari maoshidan yuqori hisoblanadi.



Yaponiya ta'lim tizimini isloh qilishning xususiyatlari va tendensiyalarini ochib berdi:

- uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish;
- ta'limni nomarkazlashtirish;
- ta'lim tizimining xilma-xilligi va moslashuvchanligini ta'minlash;
- ta'lim tizimining baynalmilallashtirish jarayonini kuchaytirish;
- treningni individualizatsiya qilish va farqlash;
- ta'limni jamiyatni axborotlashtirish talablariga muvofiq yo'naltirish.

O'quvchilar 1850 iyeroglifni o'rganishi kerak - bu quyi sinflar uchun belgilangan minimal miqdor (kitob o'qish uchun 3 ming iyeroglif). Bolalar boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, test shaklida topshirishadi va o'rta maktabga borishadi.

Yaponiyaning har bir maktablarida kuzgi maktab madaniy tadbirlari o'tkaziladi, bunday tadbirlarning maqsadi maktabga yangi o'quvchilarni jalb qilishdir. Madaniy tadbirlardan tashqari, har bir maktabda sport turlari (poyga yoki sport o'yinlari) tashkil etiladi. Mehnatsevarlik har tomonlama rag'batlantiriladi, jamoaviy faoliyat va rivojlanish uchun sharoitlar yaratiladi. Yuzaga keladigan kelishmovchiliklar uchun ta'lim muassasalari, o'quvchilarning o'zi qaror qabul qiladi, ota-onalar faqatgina o'ta og'ir holatlarda jalb qilinadi.

Janubiy Koreyada boshlang'ich maktabning dastlabki uch yilida o'quvchilarga bitta ustoz tarbiyachi faoliyatini amalga oshiradi. So'nggi paytlarda texnik taraqqiyot tendensiyalariga rioya qilgan holda, o'qituvchiga robot yordamga kelishi mumkin, u dars mavzusini e'lon qiladi va asosiy mavzularni belgilaydi.

Dars yuklamalari ko'proq bo'lganligi sababli darslar o'yin sifatida o'quv dasturiga kiritilgan.

Maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish talab qilinadi.

Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni—xagvonlar bolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan. Boshlang'ich maktab koreys tilida — “chxodin xakke” deb nomlanadi va “boshlang'ich ta'lim” ma'nosini anglatadi. Boshlang'ich maktabni bitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtihonsiz o'tadilar.

Fransiyada boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv fanlarning barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yiladi. 1990-yildagi Fransiya Hukumatining qarori bilan bolalarning bilimi, qobiliyatiga qarab maktablarning dars jadvalini tabaqalashtirgan holda tuzish huquqi berildi.

Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbini ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo'lmog'i lozim. O'qituvchilar o'z nazariy-uslubiy malakalarini oshirishga ahamiyat beradilar. O'qituvchilar o'z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar. Shu imtihonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o'zining bo'sh vaqti va mablag'lari hisobiga malaka oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi bo'yicha qiyosiy tahlil

	Ўқитиладиган фанлар		Ўқитиш мuddати
 ФИНЛЯНДИЯ	 Ота (фин) тили ва ўқув  Математик  Табиат  Жисмоний тарбия  Мехнат	 Инглиз тили (3-синфдан бошлаб)  Музыка  Тасвирий санъат  Дин (жътикодига қараб) ёки ҳаётий тушунилар (динга қизиқмайдиغانлар учун)	 Дарслар эрталаб 7:00 дан бошланади  Ўқув йили 8-16 августдан бошланади  Ўқув йили май ойи охирида якунланади  Таълим – 5 кунлик  Машгулот 45 дақиқа

	Ўқитиладиган фанлар		Ўқитиш мuddати
 ЭСТОНИЯ 1-3 синфлар	 Ота (фин) тили ва ўқув  Математик  Табиат	 Инглиз тили (3-синфдан бошлаб)  АКТ	 Дарслар эрталаб 8:30 дан бошланади  Ўқув йили августдан бошланади  Ўқув йили май ёки июн гача якунланади  Таълим – 5 кунлик  Машгулот 45 дақиқа



 ЯПОНИЯ 1-6 синфлар	Ўқитиладиган фанлар Япон тили Математик Табийй фанлар Жисмоний тарбия Музыка Тасвирий санъат Ижтимоий фанлар Уй рўзгорлиги	Ўқитиш мuddати Дарслар эрталаб 9:00 дан бошланади Ўқув йили 1 апрелдан бошланади Ўқув йили 240 кун Таълим – 5 кунлик Машгулот 30 дақиқа
 ЖАҲУБИЙ КОРЕЯ 1-6 синфлар	Ўқитиладиган фанлар Корейс тили ва грамматикаси Математик Инглиз тили Музыка Ижтимоий фанлар	Ўқитиш мuddати Дарслар эрталаб 8:00 дан бошланади Ўқув йили мартда бошланади Ўқув йили июлгача давом этади Таълим – 5 кунлик Машгулот 40 дақиқа
 ФРАНЦИЯ 1-3 синфлар	Ўқитиладиган фанлар Хорижий тиллар (танлов) инглиз тили испан тили немис тили италиян тили Тарих Математика География Табийй фанлар	Ўқитиш мuddати Дарслар эрталаб 9:00 дан бошланади Ўқув йили сентябрдан бошланади Ўқув йили июнгача якунланади Таълим – 5 кунлик Машгулот 45 дақиқа
 АҚШ 1-3 синфлар	Ўқитиладиган фанлар Она тили ва адабиёт Математика Музыка Табийй фанлар Ўқиш, хат ёзиш Гигиена, иш ва зарур жисмоний маданият География	Ўқитиш мuddати Дарслар эрталаб 8:40 дан бошланади Ўқув йили август ёки сентябрда бошланади Ўқув йили 180 кун ва май ёки июнгача давом этади Таълим – 5 кунлик Машгулот 25 дақиқа
 ГЕРМАНИЯ 1-6 синфлар	Ўқитиладиган фанлар Немис тили Табиятушунослик Музыка Эстетика Математика	Ўқитиш мuddати Дарслар эрталаб 8:00 дан бошланади Ўқув йили август ёки сентябрда бошланади Ўқув йили июнгача давом этади Таълим – 5 кунлик Машгулот 25 дақиқа

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limdagi dolzarb masalalar. 2020-2021-yil statistik ma'lumotlarga ko'ra:

Ўзбекистонда бошланғич таълим (2020-2021 йил)



10008 та
мактаб



5061562 нафар
меъёр қувват



6236751 нафар
ўқувчилар сони



1.2
коэффициент

Respublikada 10008 ta umumta'lim maktablari bo'lib, belgilangan me'yor quvvati bo'yicha 5061562 tani o'rinni tashkil etadi. Hozirgi kunda o'quvchilar soni 6.236.751 nafarni tashkil etadi. Bu esa 1175189 nafar o'quvchi amaldagi me'yordan ko'pligini ko'rsatmoqda. Tahlil shuni ko'rsatadiki, 1.2 koeffitsiyentni tashkil etmoqda.

Shuningdek, tajriba-sinov natijalaridan aniqlandiki, maktablarda bolalar soni har bir sinfda 40-45 nafarni tashkil qilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomga ko'ra, sinfda o'quvchilar soni 35 tadan oshmasligi belgilangan. Mazkur holatning kelib chiqishiga bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

Dastlabki sabablardan biri davlat byudjetidan maktablar uchun qo'shimcha binolar qurilishi uchun yetarli mablag' va o'rinlar ajratilmayapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi PQ-4565-son qaroribilantasiqlangan 2020-yilda umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash manzilli dasturi, shuningdek, 2021-2022-yillar uchun kapital qo'yilmalarning prognoz parametrlari 5-ilovasiga muvofiq, 17352 ta qo'shimcha o'rin uchun binolarni qurish belgilangan. Bu bilan ortiqcha o'rinlarni qoplab bo'lmaydi.

Bundan tashqari, mazkur muammoni bartaraf etish yuzasidan nodavlat maktablarni tashkil etish yuzasidan hali-hanuzgacha muammolar mavjud. Xususan, tadbirkorlarga xususiy maktablarni qurish uchun tekin yer ajratish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

Ayrim bo'sh turgan maktab binolarini investitsiya kiritish (rekonstruksiya) sharti bilan uzoq yillarga ijaraga berishning aniq tartiblari, shuningdek, maqsadli subsidiyalarni ajratish bo'yicha aniq bir mexanizmlar mavjud emas.


Ta'kidlash joizki, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 24-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy

vakolatlariga hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash vakolati mavjud bo'lsa-da, biroq Xalq deputatlariga berilgan ushbu mutlaq vakolatlar ular tomonidan mahalliy byudjetdan maktablar rekonstruksiya va qo'shimcha binolar qurilishi uchun mablag'lar yo'naltirish bo'yicha ishlar qilinmayapti. Boshlang'ich sinf bo'yicha oliy ma'lumotli pedagog kadrlarning yetishmasligi ham asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Respublika umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan "Boshlang'ich ta'lim" fani o'qituvchilarining 2019-yil sentabr holatiga ko'ra o'rtacha hisobda 28,8% ni o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilari tashkil etmoqda.

Viloyatlar kesimida tahlil etilganda Qashqadaryo viloyati 8386 ta 53,8%, Surxondaryo viloyati 5280ta 41,9%, Qoraqalpog'iston Respublikasi 2363ta 29,3%, Xorazm viloyati 1838ta 28,5% eng yuqori ko'rsatkichlarni belgilab bermoqda.



Shunga qaramay, 2021-2022-o'quv yilida esa maqsadli tayyorlov bo'yicha kvotalar soni ushbu hududlarga ancha kam etib belgilangan. Qashqadaryo viloyati 125 ta, Surxondaryo viloyati 275 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi 150 ta kvota ajratilgan bo'lsada, Xorazm viloyatiga esa umuman kvota ajratilmagan.



2020-2021-o'quv yilida boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga atigi 4250 nafar talaba qabul qilingan. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limga tayyorlaydigan OTMlarning quvvati va ularni tayyorlaydigan professor-o'qituvchilarning soni

yetarli darajada emas. Buning uchun boshlang'ich ta'limga oliy ma'lumotli pedagoglarni jalb etish va ularning sonini oshirish yuzasidan lokal, tuman, shahar, viloyat miqyosida aniq chora-tadbirlar yoki mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan maqsadli boshlang'ich ta'limga tayyorlaydigan mexanizmlar to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi hozirgi muammolardan biri moddiy texnik bazaning yetishmovchiligi, bunda xonalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilmaganligi bilan belgilanadi. Toshkent shahar misolidan ko'radigan bo'lsak, davlat maktablari soni 312 ta, quvvati (o'quvchi o'rni) 312652 ta, o'quvchilar soni 449044 nafar, koeffitsienti 1,4 bundan ko'rinib turibdiki, 3 nafar bolaga 2 tadan jihoz to'g'ri keladi.



Shuningdek, tajriba-sinov natijalaridan aniqlandiki, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi maktablardan birida maktab tomonidan ko'rsatilgan pullik xizmatlar asosida o'zlari topgan mablag'lar ularning ruxsatisiz tuman xalq ta'limi bo'limlari tomonidan rentabelligi past bo'lgan maktablarga yo'naltirilgan. Bu esa maktabning moliyaviy faoliyatini mustaqil yuritishga va moddiy-texnik faoliyatini takomillashtirishga keskin salbiy ta'sir etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi 343-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizamning 11-bandiga ko'ra, pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan tushgan mablag'lar xarajatlar turi bo'yicha shartnoma asosida mazkur xizmatlarga jalb etilgan o'qituvchilarga to'lanadigan to'lovlar, soliq va boshqa majburiy to'lanmalar, mashg'ulotlarni tashkil etish uchun moddiy-texnik ta'minot xarajatlari qoplangandan so'ng maktabning rahbar va pedagog xodimlarini moddiy rag'batlantirishga va boshqa xarajatlarga Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda yo'naltiriladi.



Mazkur qoidaga asosan maktab direktori jamg'arma mablag'larini erkin tasarruf etish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan amalda cheklovlar qo'yilgan.

MAVJUD MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ILMIY FARAZLAR

Respublikada ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar asosan moddiy-texnik bazani takomillashtirishga qaratilmoqda. Lekin islohotlar samarasi amaldagi vaziyatni yetarlicha bartaraf etish imkoniyatiga ega emas.

Shu nuqtai nazardan, davlat byudjetidan maktablar uchun qo'shimcha binolar qurilishi va amalda bo'sh turgan binolarni qayta rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun manzilli dasturlarni aniq ishlab chiqish kerak.

Bundan tashqari, xorijiy va mahalliy investorlarni nodavlat maktablarni tashkil etish bo'yicha ularga imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Binobarin, xususiy maktablarning amaldagi soniga qarab, xususiy maktablar kam bo'lgan hududlarda qurish uchun investorlarga maqsadli tekin yer ajratish bo'yicha tartiblarni ishlab chiqish zarur.

Ayrim bo'sh turgan maktab binolarini investitsiya kiritish (rekonstruksiya) sharti bilan uzoq yillarga (kamida 30 yillik) ijaraga berish, shuningdek, maqsadli subsidiyalarni (kamida 15 yilga) ajratish bo'yicha aniq bir mexanizmlar belgilash kerak.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 24-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolatlariga hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasini va uni qurish qoidalarini tasdiqlash kiradi.

Mazkur qoidaga mahalliy byudjetdan maktablarni rekonstruksiya va qo'shimcha binolar qurilish uchun mablag'lar ajratish yuzasidan minimal va qat'iy foizli stavkalarni (masalan, kamida 5% kam bo'lmasligi lozim) belgilash kerak. Bu kelgusida har doim maktablar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va hech bo'lmaganda doimiy ravishda mahalliy byudjetdan ajratilishiga olib keladi.

Bu esa kelgusida sinfda o'quvchilar sonining me'yorini ta'minlashiga olib kelishi mumkin.

Pedagoglar salmog'i kam bo'lgan hududlarni oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish maqsadida ushbu hududlar bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish lozim. Mazkur rejada bosqichma-bosqich boshlang'ich

ta'lim yo'nalishiga o'qishga talabgorlarni maqsadli tayyorlash bo'yicha aniq vazifalar kiritish lozim.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limga tayyorlaydigan OTMLarga boshqa viloyatdan yoki Toshkent shahridan masofaviy shaklda tajribali professor-o'qituvchilarni o'quv jarayoniga jalb etish lozim. Buning uchun istiqbolli pedagoglarni jalb etish va ularning sonini oshirish yuzasidan lokal, tuman, shahar, viloyat miqyosida aniq konsepsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirliklariga maqsadli kadrlarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash bo'yicha doimiy ravishda aniq funksiyalar belgilash lozim.

Moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligini va xonalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslashtirish uchun maktablarga o'z-o'zini ta'minlashga bo'lgan mavjud imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Bunda maktablar tomonidan pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan tushgan mablag'larni mustaqil tasarruf etishlari va foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratilishi kerak. Shu bilan birga, pullik xizmatlari asosida o'zlari topgan mablag'larning muayyan maqsad sari yo'naltirilish ishlarida yuqori turuvchi tashkilotlar aralashuvini cheklash maqsadga muvofiqdir.

Bu esa maktabning moliyaviy faoliyatini mustaqil yuritishga va moddiy-texnik faoliyatini rivojlantirishga, raqobat muhitiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 140-son qarori (<https://lex.uz/docs/3137130>)
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (<https://stat.uz/uz/>)
3. A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot institutining tayanch doktoranti D.Yusupovanning tajriba-sinov ma'lumotlari
4. Education in Finland (https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_Finland)
5. Primary Schools in Japan (<https://bit.ly/3Frb15O>)
6. Education in France (https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_France)



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**ANDRAGOGIKA - KATTALAR AUDITORIYASIGA
TA'LIM BERISH ASOSI**

G.Amanova,

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
magistranti*



Annotatsiya.

Ushbu maqolada kattalar auditoriyasini o'qitishning asosiy yondashuvlari, usullari va shakllari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: andragogika, kattalar ta'limi, pedagogika, o'qitish modeli

В этой статье рассматриваются основные методы, приемы и приемы обучения взрослой аудитории.

Ключевые слова: андрогогика, обучение взрослых, педагогика, модель обучения.

Bugungi zamonaviy jamiyatda kreativ, nostandart fikrlaydigan, o'z sohasida yangi usullarni taklif qila oladigan professional mutaxassislarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu esa insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: "uzluksiz ta'lim-butun hayot davomida egallaydigan ta'lim", "uzluksiz ta'lim - kattalar uchun ta'lim", "uzluksiz ta'lim - bu uzluksiz kasbiy ta'lim" kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir necha atamalar bilan izohlanib ular ichida "davom etuvchi ta'lim", "hayot davomida o'qish", "doimiy o'qish" iboralari keng qo'llaniladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvallari asosan bolalar o'qitilgan. Bu faoliyat negizida pedagogika fani shakllandi. XX asrda, jadal ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida kasbiy faoliyatning murakkablashishi bilan, kattalarni

o'qitish masalasi paydo bo'ldi. Buning sababi, ular bolalik va o'smirlik davrida olgan bilimlari bir necha o'n yillardan so'ng eskirganligi aniqlandi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun dastlab pedagogika vositalaridan hech qanday o'zgarishsiz foydalanilgan bo'lsa-da, tezda yangi yondashuv zarurati paydo bo'ldi. Bu andragogika – kattalarni o'qitish fanining paydo bo'lishida o'z aksini topdi. Shu bilan birga, “g'ildirakni qayta ixtiro qilishga” urinib, pedagogikaning barcha ilmiy va amaliy yutuqlarini butunlay inkor etish umuman rejalashtirilmagan. O'qituvchilarning kasbiy kapitalini yangi vaziyat talablariga moslashtirish va kattalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini maksimal darajada aks ettiruvchi maxsus o'qitish usullarini ishlab chiqishga harakat qilish zarur edi.

Natijada, o'qituvchilar ma'lum bir yoshdagi auditoriya bilan ishlashga e'tibor qaratdilar. Faqat kattalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Asosan pedagogik ma'lumotga ega bo'lishiga qaramay, ularni androgog deb atash to'g'riroq.

Andragogika - bu kattalar ta'limining xususiyatlarini tavsiflovchi nazariya. Bu atama pedagogik voqelikdan vujudga kelgan ekan, unda so'z katta yoshdagi odamni ta'lim orqali boshqarish, yetaklash to'g'risida boradi. Aynan kattalarga ta'lim beruvchi pedagog androgog hisoblanadi.

Kattalarlarning samarali ta'lim olishi uchun ikkita asosiy to'siq mavjud - bu faollik va motivatsiyaning yo'qligidir.

Bu to'siqlar nafaqat o'quv jarayonida, balki olingan bilimlarni qo'llash bosqichida ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda andragogika ko'proq katta yoshdagi o'quvchilarning xususiyatlariga va ularning fan orqali o'rganishni yaxshilashga ko'plab ilmiy ishlarni bag'ishlagan Malkolm Noulz bilan bog'liq.

Noulz fikriga ko'ra, kattalar va bolalar o'rtasida oltita asosiy farq mavjud:

1. Bilimga bo'lgan ehtiyoj. Kattalar “nima uchun” o'rganish kerakligini bilishlari kerak.
2. Motivatsiya. Kattalar ichki motivlar bilan boshqariladi. Ular o'rganishni xohlaganlaridagina o'rganadilar. Agar siz “bu menga nima uchun kerak?” degan savolga ishonchli javob bersangiz, siz kattalarga kuchli ichki motivatsiya berasiz.



3. Xohish-istak. Katta yoshlilarda o'rganishga intilish va o'qishga tayyorlik bilimning muhimligini anglaganlarida paydo bo'ladi. Ular uchun o'rganish hayotlarini yaxshi tomonga o'zgartirishga qanday yordam berishini tushunish muhimdir.
4. Tajriba. Kattalar boy tajribaga ega. Bu ularning yutug'i. Ular o'zlarining tajribalari orqali yangi g'oyalarni tahlil qiladilar, tushuntiradilar, birlashtiradilar va yaratadilar yoki eskilarini "burmalaydilar".
5. Mustaqillik. Kattalar o'zlariga ishonadilar va o'qish uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishni xohlashadi. Ular mustaqil va hamma narsa nazorat ostida bo'lishini xohlaydilar.
6. O'qishga munosabat. Kattalar biror narsa qilish orqali yaxshiroq o'rganadilar. Ular uchun muammoga yo'naltirilgan ta'lim dolzarb bo'lib, ular o'z ishlarida buni qo'llashlari mumkin. Hech bir kitob inson o'zi biror ishni qilganda oladigan darajada aniq, chuqur bilim bermaydi. Empirik ta'lim nazariyasi kattalar ta'limi amaliy tajribani anglash bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Kattalar kitoblardagi raqamlar va ta'riflarni yodlash bilan emas, balki biror narsa qilish orqali yaxshiroq o'rganadilar.

Bu tamoyillarning barchasi bir xil asosiy g'oyalar atrofida aylanadi: motivatsiya, mustaqil ta'lim, hayotiy tajriba, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim, amaliy qo'llash va hurmat.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qishga bo'lgan motivatsiya omili ko'pincha aqliy omildan kuchliroqdir.

Kattalar auditoriyasida motivatsiyani shakllantirish, rivojlantirish, kerakli darajada saqlashga doir metod hamda yondashuvlarni inobatga olish, darslar va o'quv materiallarini tashkillashtirgan holda olib borish juda muhimdir.

Birinchidan, taqdim etilayotgan matnlar, materiallar, vazifalar va dars mashg'ulotlari kattalar auditoriyasining qiziqishlariga mos bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchiga vazifalarning bajarilishini mustaqil baholash imkonini berishi lozim.

Uchinchi muhim narsa – mashg'ulotlarni faqat ma'ruza ko'rinishida emas, balki hayotiy voqealar, bellashuvlar uyushtirish, video taqdimotlar, loyiha ishlari singari dars mavzusidan tashqari, qo'shimcha mashg'ulotlar komponentlari bo'lgan shaklda olib borish o'quvchining ishtiyoqini oshirish xususiyatlari hisoblanadi.

Kattalarni o'qishga nima undaydi?

Motivatsiya - insonda ma'lum ma'lumot yoki ko'nikmalarga muhtoj bo'lganda paydo bo'ladi. Albatta, har qanday jamiyatda motivatsiyaning turli darajalari mavjud. Birinchisi motivatsiya insonning boshqalar tomonidan kuchini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchisi esa, insonning kim yoki nimadan olgan taassuroti orqali motivatsiya namoyon bo'ladi. Ayrim insonlar hayotidan nolib, o'zlarini tiklab ololmayotganidan shikoyat qilib qoladilar. Ular motivatsiyadan oldin o'zlaridagi qo'rquv, norozilik, uyatchanlik, ikkilanish va ichki bloklangan xislatlaridan xoli bo'lish haqida qayg'urishlari lozim. Ushbu xislatlar motivatsiyaning aksi bo'lib, insonning maqsad sari intilishlarini yo'qotishga xizmat qiladi. Motivatsiya yetishmasligidan azob chekadigan odamlar ko'p hollarda xayolparastlikka berilgan, aqlarini ishlatishni xohlamaydigan, o'zlariga bee'tibor bo'lib, yoshlariga qaraganda ancha keksaygan va hayotga qiziqishi so'ngan, noumid inson bo'ladilar. Buyuk faylasuf Suqrot aytganidek, «Kimda istak bo'lsa – yo'lini qidiradi, kimda istak bo'lmasa – sabab qidiradi».

Kuchli motivatsiyagina kattalarni o'qishga undaydi. Kattalarni o'qitish, o'rgatish sohasi hisoblangan “andragogika” esa, kattalarga ta'lim beruvchi san'at va fan hisoblanadi. Androgogik model quyidagi beshta asosga tayanadi:

- 1) O'rganuvchilarga biror narsani o'rganish nima uchun muhimligi bildiriladi;
- 2) O'rganuvchilarga ma'lumotlar ichida o'zlarini qanday boshqarishni ko'rsatadi;
- 3) Mavzu o'rganuvchilar tajribasiga bog'lanadi;
- 4) Odamlar to o'rganishga tayyor bo'lmagunicha yoki motivlanmagunicha ishga kirishmaydilar;
- 5) Bu esa o'rganish bo'yicha to'siqlarni, xatti-harakatlar va e'tiqodlarni bartaraf etishni talab qiladi.

Bolalar ta'limida o'qituvchilar tashqi motivatsion omillar (baho olish, ota-onaning yoki o'qituvchining talabi, uyalib qolishdan qo'rqish va h.k.) sifatida muhim o'rinni egallasa, kattalar ta'limida esa tashqi omillar o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatsa-da, o'quvchi mas'uliyatini kuchaytirmaydi. Bunday farqni ajrata bilgan androgog tegishli metod, texnologiya va yondashuv orqali kattalarga bilim olish ko'nikmalarini o'rgatishda muvaffaqiyatga erishadi.

Kichik yoshdagi bola bog'chaga yoki maktabga ketayotganda, hech kim buni xohlaysanmi, agar xohlasa, asosan nimani o'rganishni xohlaydi, deb so'rashni jiddiy o'ylamaydi.



Kattalar uchun majburlash masalasi hech qanday ma'noga ega emas, chunki ularning o'zi o'rganish, o'qish tashabbuskori hisoblanadi. Odatda, kattalarning aniq shakllangan kasbiy rejalari bo'lib, yangi bilim va ko'nikmalardan aynan nima kerakligini tushunadilar.

Kattalarning bu xususiyatiga ko'ra, androgog yanada samarali o'qitish usullaridan foydalanishi kerak, chunki faol idrok etish va fikrlash butunlay boshqacha tarzda yangi materialni o'rganishga imkon beradi. Bunda o'qituvchi faoliyatining o'zagi endi majburlash masalasi emas, balki o'quvchining bilim olish va ko'nikma hosil qilishdagi ishtahasi (ma'rifiy ehtiyoji)ni imkon qadar tezroq qondirishdir.

Bola uchun o'qituvchi odatda hayotidagi asosiy namunadir. Bunday vaziyatda o'qituvchining ishlashi oson, chunki har qanday so'z avtomatik ravishda haqiqat sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari, o'qituvchi, qoida tariqasida, bir vaqtning o'zida ikkita vazifani bajaradi - o'qituvchi va tarbiyachi.

Androgogning kattalar bilan munosabatlari butunlay boshqacha asosda qurilgan. Bu yerda o'qituvchi - xodim. O'qituvchining moddiy farovonligi talabaning o'z ishidan qoniqishiga bog'liq bo'lib, bu eng yomon holatda ba'zi o'qituvchilarning tinglovchilari oldida xizmatkorligiga olib keladi. Agar o'qituvchi va katta yoshli o'quvchi psixologik jihatdan teng huquqli sherik bo'lishsa, yaxshi bo'ladi.

Ular uchun o'quv jarayoni o'zini va bir-birini hurmat qiladigan odamlarning ishbilarmonlik munosabatlari bo'lib, unda o'qituvchi har doim ham yetakchi o'rinni egallamaydi.

Xulosa shuki, pedagogikadan farqli ravishda, andragogikaning ta'limiy maqsadi o'rganuvchilarga mazmunni qabul qilishga va unga tanqidiy fikr bildirishga zamin yaratish hamda uni hayotda amaliy qo'llay olishda namoyon bo'ladi.

Kattalarni o'qitish tamoyillarini amalda qanday qo'llash kerak?

Andragogikaning asosiy pozitsiyasi, an'anaviy pedagogikadan farqli o'laroq, o'quv jarayonida yetakchi rolni o'qituvchi emas, balki o'quvchi bajaradi. Andragogika ma'ruza o'rniga, asosan, amaliy mashg'ulotlarni (munozaralar, interfaol metodlarni) ta'minlaydi. Katta yoshdagi o'quvchilar, ta'lim faoliyati bilan shug'ullanib, o'quvchining yangi, ko'pincha unutilgan rolini o'ynaydi, ammo bu rol avvalgisidan sezilarli darajada farq qiladi. Asosiy farq shundaki, o'quv motivlari keskin o'zgaradi, chunki olingan bilim endi hayot rejalari hamda muvaffaqiyatlarga erishish va ijtimoiy mavqeni aniqlash vositasi sifatida qaraladi.

Bilish jarayoni ongli ravishda, mazmunli sodir bo'ladi va bundan tashqari, talabalar o'z yutuqlari natijalarini baholash imkoniyatiga ega.

Bunday o'quvchilarni o'qitishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zlarini ta'lim faoliyati subyekti sifatida bilishadi, o'quv jarayonida yangi harakat usullarini tushunish va amalga oshirishga intilishlari, o'z-o'zini baholashlari, natijalarini amalga oshirishlari mumkin. Shuni unutmasligimiz kerakki, katta yoshli talabalar oldingi o'quv va mehnat faoliyati jarayonida allaqachon ma'lum e'tiqod va qadriyatlarni shakllantirgan, shuning uchun o'quv jarayoni hayotiy muammolarni hal qilish usuli va kelgusida yanada malakali kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, andragogikada butun o'quv jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga asoslanadi. Katta yoshdagi talabalar bilan ishlaydigan o'qituvchiga juda jiddiy talablar qo'yiladi va uning o'zi ham shogirdlari kabi o'rganishga majbur. Shuni aniq tushunish kerakki, tayyor mutaxassislarni muvaffaqiyatli tayyorlash uchun faqat materialni yaxshi bilishning o'zi kifoya emas, ichki xarizma, guruhda mutlaq obro'li va yetakchi bo'lish, yangi kadrlarni tayyorlash muhimdir. O'qituvchi o'quv jarayonining barcha bosqichlarida birgalikdagi faoliyatni tashkil qiladi va o'quvchilar o'z navbatida bu faoliyatda faol ishtirok etadilar.

Ko'p yillik amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, katta yoshli talabalarni o'qitish jarayonida androgogik tamoyillardan foydalanish talabalarning faolligi va mustaqilligini, motivatsiyani ta'minlash o'quv jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Andragogikaning eng muhim tamoyillaridan biri - natijalarga ham, jarayonga ham bir xil e'tibor berish, shuningdek, undan zavq olish o'qishni tugatgandan keyin emas, hozirning o'zidayoq namoyon bo'lishidir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar) - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. - 380 b.
2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001
3. A.Zokirov, N.Abdunazarova, G.Eldashyeva, N. Raximov. Kattalar ta'limining xususiyatlari.- T.: RELIABLE PRINT, 2013.
4. С.И.Змеев. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. – М.: ПЕР СЭ, 2007. – 272с.
5. Громкова, М.Т. Психология и педагогика профессиональной деятельности / М.Т. Громкова - М.: Юнити, 2003. - 415 с.
6. Вершловский, С.Г. Рабочая книга андрагога / Под редакцией С.Г. Вершловского. – СПб., 1998. - 197 с.
7. Змеёв, С.И. Технология обучения взрослых: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / С.И. Змеёв. – М.: Академия, 2002. - 128 с.
8. Калиновский, Ю.И. Введение в андрагогику. Мобильность педагога в образовании взрослых / Ю.И Калиновский. – М., 2000. - 122 с.
9. Колесникова, И.А. Основы андрагогики: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / И.А. Колесникова. – М.: Академия, 2003. - 240 с.
10. Ноулз, М.Ш. Современная практика образования взрослых. Андрагогика против педагогики / М.Ш. Ноулз - М., 1980. - 248 с.





TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

DARS REJALARI: DARS SIFATINI BELGILOVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

Gulnoz Khodjayeva,

*Respublika ta'lim markazi Standart
va baholash bo'limi metodisti*



Annotatsiya

Ushbu maqolada dars rejasi yozishda e'tibor beriladigan asosiy jihatlar yoritib berilgan. Tahlillar natijasida dars rejasi tayyorlash qirralari va uning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *mashg'ulot, dars, maqsad, tashkillashtirish.*

Dars mashg'ulotini o'tkazishdan ko'ra, unga tayyorlanish uchun ko'proq vaqt ajratish kerak. Bu juda muhim va darsning sifati aynan dars uchun tayyorgarlikka bog'liq. Biz mutaxassis sifatida akademik bilimlarimizni, qanday didaktik tamoyillar orqali yetkazishni aniqlashimiz uchun ham dars rejalari tuzishimiz lozim.

Nima uchun reja yozish kerak?

Chunki dars o'tish uchun eng yaxshi variant har doim tayyor bo'lishi kerak. Dars rejasi oldindan tayyorlaganda, o'qituvchi sinfga kirib borgan payt o'ziga ishongan holatda bo'ladi va vaziyatga tez va oson kirisha oladi.

Dars rejani yozishda hisobga olinadigan jihatlar: darsning asosiy mazmuni, o'quvchilarning qiziqishlarini darsga jalb etish usulini topish, dars maqsadini belgilash va boshqalar. Agar darsdagi mashg'ulotlar mantiqiy mazmunga ega bo'lsa, unda o'quvchilar darsni osonroq kuzatib borishlari mumkin. Qanday qilib o'quvchilarning mashg'ulotga qiziqishini uyg'otish mumkinligi ham dars rejasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Darsni darhol bolalarni jalb qilish bilan boshlash, ularning e'tiborini jalb qilish uchun ularga rasm, fotosurat yoki obyektini va dars qaysi mavzuga asoslanganligini ko'rsatish orqali erishiladi.

Qanday qilib o'quvchilarni o'rganishga undash mumkin?

Har bir o'quvchi, uning yoshi yoki darajasidan qat'iy nazar, u qiyinchilik ostiga olinishi kerak, ya'ni o'zlashtirish mas'uliyatini his qilishi kerak. Agar hech qanday qiyinchilik mavjud bo'lmasa, unda o'rganish bo'lmaydi. Agar o'rganish

bo'lmasa, motivatsiya bo'lmaydi. O'quvchilar oldin o'rgangan va bilgan narsalar haqida o'qituvchi o'ylab ko'rish va dars mashg'ulotida ularga bir xil narsani o'rgatmasligiga ishonch hosil qilishi kerak.

O'quvchilar oldin o'rgangan bilimlari qanday aniqlanadi?

O'quvchilarga tekshirish kerakligini aytib, avvalgi bilimlarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Bir terminni bitta darsda o'rgatilganda, bu uni barcha o'quvchilar o'rgandi, degani emas. O'quvchilarga ko'proq amaliyotli vaziyatlarni berish muhim.

Darsning maqsadlari nimalardan iborat?

Har doim o'quvchilar nima uchun mashg'ulotlar, o'yinlar yoki qo'shiqlar kuylash bilan shug'ullanayotganliklari haqida o'ylashlari juda muhimdir. Dars rejadagi hamma narsa ilmiy bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi qanday faoliyatni o'rgatayotganini bilmasa, uni fan dasturidan olishi kerak.

O'quvchilarning ilmiy so'z boyligini ham dars reja yozayotgan paytda, ilmiy so'zlarga aniq diqqatni jamlab, qanday taqdim etishga oldindan tayyorlangandagina, ularni bolalarga aniq tushuntirib bera olamiz.

Darsni qanday tushuntirish mumkin?

Har bir mashg'ulotni qanday qilib tushuntirmoqchi bo'lishimizni, oldindan hech bo'lmaganda, ruhiy jihatdan bilishimiz lozim. Tushuntiriladigan tushunchalar qisqa, aniq va vizual materiallar ko'rishga qulay tarzda bo'lishi kerak.

Dars reja uchun qancha tafsilotlar kerak?

Agar o'qituvchi kitob bilan ishlayotgan bo'lsa, unda mavzuning sahifa raqamlarini hisobga olishi muhim. Sinfni va dars o'tishni o'zi bo'lmagan paytda ham kimdir qamrab olishi kerakligini oldindan tasavvur qilish, ular rejani tushuna olishlari va darsni o'ta olishlari kerakligi hisobga olinadi.

O'zlashtirishni qanday tartibda tekshirish kerak?

Odatdagidek, dars bilan tanishtirish, yangi mavzularni tushuntirish, bolalarga nazorat uchun mashq berish va erkin amaliyot o'tish ham mumkin. Oxir-oqibat o'quvchilar natijalarini ko'rib chiqish va bolalarning o'zlaridan nimani o'rganganliklari haqida fikr-mulohazalarini ham olish muhim.

Dars rejasiga qanday muammolarni kiritish mumkin?

Agar tanlangan metod ish berishiga ishonch hosil bo'lmasa, agar o'qituvchi



bu juda qiyin yoki juda uzoq vaqt oladi deb o'ylasa, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni qanday hal qilish haqida dars oldidan, rejalashtirish bosqichida vaqt ajratiladi. Oldindan kutilayotgan yechimlar to'g'risida o'ylashni rejalashtirayotganda qo'shimcha daqiqalarni ajratib qo'yish sizni mushkul vaziyatdan saqlaydi.

Darsni to'g'ri rejalashtirish uchun, pedagog ishni o'zining vaziyatidan boshlashi lozim: "Mavzuni ilm-fanning eng so'nggi talablariga muvofiq o'rgata olamanmi yoki buning uchun men yana alohida tayyorlanishim kerakmi?" degan savolni o'ziga berib ko'rish muhim.

Bundan keyin, pedagog o'quvchilarning hozirgi vaziyatini tahlil qilib, rejalashtirishni davom etishi mumkin, ya'ni u o'quvchilarning dastlabki bilim va sharoitlarini aniqlab olishi lozim.

Buning uchun quyidagi asosiy savollar qo'yiladi:

- Bilim olishi kerak bo'lgan o'quvchilarning dastlabki sharoitlari qanday?
- Nazariy dars yoki amaliyotni o'tkazish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud?

• Qanday o'quv mazmunlar o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda?

Rejalashtirishning eng boshida bu savollarni o'rganib chiqish – dars mazmunining boshqa barcha tayyorlanish harakatlariga asosdir. Bu tushunchalar va savollar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi omillar aniq ko'rsatadi.

Maqsadlar: Nima uchun?

Har bir dars oldindan belgilangan maqsadlarga rioya qilishi lozim. Odatda o'quv dasturi asosida belgilashimiz mumkin bo'lgan aniq bir maqsad ko'rsatilishi lozim. Maqsadlar yozma ravishda dars rejasiga kiritiladi va maqsadga erishilgan-erishilmaganligi test va topshiriqlar yordamida tekshiriladi.

Mazmunlar: Nima?

Tanlab olingan o'quv maqsadlarga muvofiq ravishda bilimlar sohaning mazmuni (shu jumladan, ko'nikmalar va o'zini tutish tarzlari) belgilanadi. Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (nazariy dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli maxsus bilimlarni (amaliy dars mazmunini) inobatga olishi kerak. Buning uchun "Mazmun strukturasi" tuzilishi kerak. O'zini tutish tarzlari o'zgarishini ifodalaydigan mazmunlar ham tanlab olinishi kerak.

Usul: Qaysi tarzda?

Agar maqsadlar va mazmunlar aniq bo'lsa, aynan shunday usullar tanlab olinishi kerakki, ular shu maqsad va mazmunlarni o'lchanadigan natijalarga aylantira olishlari lozim. Bu munosabatda "o'rgatish va o'rganish usullari" deb atalgan usullar o'qituvchi tomonidan tanlab olinadi va qo'llanadi.

Sharoitlar: Nimalar yordamida?

Sharoitlar deganda, birinchi navbatda material-texnikaviy shart-sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, texnikaviy sharoitlar tushuniladi, ya'ni binolar, sinfxonalar, o'quv ustaxonalar, laboratoriyalar, jihozlanganlik darajasi, asbob-uskunalar, materiallarning umumiy holati va hokazo, chunki ular ma'lum sifat standartlariga javob berishi kerak.

Boshqa tomondan esa, usullar va o'quv vositalari tushuniladi, chunki ular o'quv jarayonini bilimlar o'zlashtirilishiga yordam beradi. Lekin gap, vositalarning ko'pligida emas, balki muayyan o'quv maqsadiga erishish uchun ma'qul keladigan vositalarni tanlay olishdadir.

Tashkillashtirish: Bu qanday qilinadi?

Yuqorida aytilgan hamma narsalar – vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi kerak. Chunki har bir darsga aniq vaqt chegaralari bor va aynan shu vaqt doirasida o'quv maqsadlarga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki unumli tashkillashtirish ham zarur.

Natijalar: Maqsadga erishildimi?

Dars oxirida maqsadlarga erishilgan yoki erishilmaganini tekshirish kerak.

Buning uchun baholash vositalari, usullari va mezonlari belgilanishi lozim. Bular mashqlar, og'zaki va yozma testlar hamda imtihonlar bo'lishi mumkin. Ular o'quvchilarning qobiliyatlari va bilim-ko'nikmalarini baholash imkoniyatini yaratadi.



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA TINGLASH, JAMOA BO'LIB KUYLASH, MUSIQA SAVODI VA MUSIQA IJODKORLIGI FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Gulnora GANIYEVA,

Respublika ta'lim markazi metodisti



Annotasiya

Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun tayyorlangan bo'lib, unda musiqa tinglash, musiqa savodi, jamoa bo'lib kuylash va musiqa ijodkorligi faoliyati turlarini musiqa madaniyati darslarda samarali tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Эта статья предназначена для учителей музыкальной культуры в общеобразовательных школах и содержит методические рекомендации по эффективной организации слушания музыки, музыкальной грамоты, хорового пения и музыкального творчества на уроках музыкальной культуры.

This article is designed for music culture teachers in secondary schools and contains methodological recommendations on how to effectively organize music listening, music literacy, group singing and music creative activities in music culture lessons.

Bolani musiqa olami bilan tanishtirishning ko'plab usullari, pedagogik ishlanmalar va ajoyib g'oyalari mavjuddir. Musiqa ta'limida bir necha mashhur musiqa konsepsiyalari (metodlari) borki, ular rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida ham turli metodik va o'quv dasturlari ishlanmasida asos bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofdagi go'zallikni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarda badiiy va ijodiy didini tarbiyalash va rivojlantirishda umumta'lim maktablaridagi, musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. O'quvchilar nafosat hissini, san'at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san'atdan bahramand bo'lishni, avvalo, maktablarda o'rganadilar.

Zotan, musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo, insonni tarbiyalaydi.

Musiqa o'sib kelayotgan yosh avlodni go'zallik olamiga olib kirishi shubhasiz. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega va axloqiy-nafosat tarbiyasining muhim vositasidir.

Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq oladi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan bo'lishi kerak.

MUSIQA TINGLASH

Musiqa madaniyati darslarida tinglash faoliyati kuylash bilan bir qatorda, o'quvchilarning musiqiy ongini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Musiqa madaniyati darsining barcha faoliyatlari avval musiqani tinglab, uni idrok etishdan boshlanadi va o'quvchi ruhiyatiga ta'sir etadi. Shuning uchun musiqa tinglash musiqa madaniyati darsining yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Shu bois o'quvchilarning musiqani to'g'ri tinglashga o'rgatilishi uni barcha faoliyat turlari bilan chambarchas bog'lab (*intonatsion mashqlar, jamoa bo'lib kuylash, notaga qarab kuylash, ijodiy mashqlar, diktantlar va h.k.*), musiqiy xotira va tafakkurini rivojlantirishga, musiqiy amaliy ko'nikmalarini shakllantirib, asarlarni to'g'ri ijro etishiga yordam beradi. O'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda, har bir musiqiy asar zahirida ma'lum, his-tuyg'u va fikr aks ettiriladi.

1-sinf o'quvchilari tinglash faoliyatlarida tinglagan asarlarining nomini to'g'ri ayta olishi, uni xarakterini (*g'amgin, quvnoq va h.k.*) so'z bilan tushuntirib bera olishi, qo'shiqlarning esa mazmunini so'zlab bera olishi lozim. Doira, nog'ora, rubob, dutor, karnay va surnay cholg'ulari ijrosidagi kuylarni tinglaganda ularni ovoz tembridan farqlay olishi lozim.

Musiqa tinglash bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

- tinglashga berilayotgan asar haqida o'qituvchi kichik ma'lumot (kirish so'zi) berishi va tinglash jarayonida ahamiyatli bo'lgan jihatlarni eslatib o'tishi;
- Kuy o'qituvchi ijrosida yoki audioyozuvda bir necha bor tinglanishi;
- tinglangan kuyga chapak yoki bolalar cholg'ularida ritmga jo'r bo'lib ijro etilishi;



– asarni bir butunligicha qayta tinglash va o'quvchilar bilan umumiy taassurotlar yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazilishi kerak.

Bu o'quvchilarning uquvi, diqqati va koordinatsiyasini rivojlantirish bilan birga, tinglash madaniyatini ham shakllantiradi. Ushbu faoliyat o'quvchiga ichki eshitish, tasavvurini jamlash, musiqiy xotira va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqqa tinglash metodlari:

1. Ko'rgazmali metod:
2. o'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar va illyustratsiyalar, bolalar cholg'usi (torli va h.k), ritmli harakatlar.
3. Amaliy metod:
4. asarni tinglash va kuylash orqali o'quvchilarning musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ularning hayotiy tajribasiga bog'lab tushuntirish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.
5. Taqqoslash metodi:
6. bunda asarlarning janrlari, ijrochilik xususiyatlari, templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi.
7. Og'zaki metodlar:
8. O'qituvchi tinglanadigan asar mazmunini bolalar hayotiga bog'lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualliflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli hikoya qilib beradi.

Tinglash faoliyati uchun tavsiya etiladigan mashqlar.

Xotira mashqi (diktant)– tinglash faoliyatining murakkab va shu bilan birga, qiziqarli shaklidan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning musiqiy xotirasini rivojlantiradi, musiqani ongli idrok qilishga va musiqiy talaffuzning boshqa elementlarini his qilishga ko'maklashadi, eshitilgan kuyni aniq takrorlashga o'rgatadi.

O'quvchilarning olgan bilim va malakalari xotira mashqlarida namoyon bo'ladi va eshitish qobiliyati qay darajada ekanligini aniqlab beradi. Shu bois, ushbu shaklda ishlashga shoshilmasdan, ishni turli xil ritmik tayyorlov mashqlari bilan shug'ullanishdan boshlash kerak.

Xotira mashqlari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'qituvchi yordamida kuyning xarakterini, tempini, ovoz tembrini aniqlaydilar, kuyning muntazam ravishda rivojlanishini tahlil qiladilar, shundan so'ng uni takrorlab, kuylab yoki qarsak (bolalar cholg'ularida jo'r bo'lib) bilan ijro etib beradilar. Ushbu jarayon uchun 3-5 daqiqa yetarli bo'ladi.

Takrorlash mashqi. Kuy yoki qo'shiq bir necha bor takroriy ijro etilganidan so'ng, o'quvchilar tomonidan kuylab yoki qarsak (*bolalar cholg'ularida jo'r bo'lib*) bilan ijro etiladi. Dastlab kuyning sodda jumlasini bir marotaba ijro etib berilib, keyin takrorlash so'raladi, shunday so'ng, asta murakkablashtirish orqali rivojlantirib boriladi. Buni 2-3 marotaba (*bu vaqtda o'quvchilar kuyni eshitishadi va eslab qolishadi*) takrorlash mumkin.

Og'zaki diktant - O'qituvchi kuylab bergan yoki cholg'uda ijro etgan kuy namunasini takroran kuylay olishi. Bu shakldagi diktant o'quvchilarga ayrim murakkab kuylarni tushunib qabul qilishlariga, musiqiy xotiralarini rivojlantirishga yordam beradi. Ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilarga qisman tanish kuylar usulini mashq qilib kelish uy vazifasi sifatida tavsiya etiladi. Bunday jarayon aytilgan kuyni eslab qolishga va uni tushunishga yordam beradi hamda eshitilgan ohangning nota tasvirlari bilan aloqalarini mustahkamlaydi.

Jamoa bo'lib kuylash (Vokal-intonatsion malakalar)

O'quvchilarning musiqiy uquvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, jamoa bo'lib kuylashning ahamiyati kattadir. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqitira olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiqni o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berilishiga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan vokal-xor mashqlari, ko'p hollarda, o'qituvchi ovozigacha taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi lozim.

Jamoa bo'lib kuylashda o'qituvchi, albatta, ovoz sozlash mashqlarini to'g'ri tashkil eta olishi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarning ovoz diapazoni (do¹-do²), ishchi diapazoni (mi¹-fa¹-sol¹) primar tovushlarida kuylash uchun qulay bo'lgan (sol¹-lya¹) tovushlarini aniq bilishi lozim.

Kichik sinflarda o'qituvchi o'quvchilarning ovoz diapazonini mo'ljalga to'g'ri ola bilishi zarur. 2-4-sinflarda esa ovoz diapazonini 1-2-tonga kengaytirib borish mumkin. Ovoz diapazoni cheklangan o'quvchilar ham uchrab turadi. Bunday o'quvchilar bilan ovoz apparatini zo'riqtirmagan holda, ovoz diapazonini kengaytirish ishlarini doimiy amalga oshirib turishlari kerak. Ayrim holda bunday o'quvchilarning ovoz diapazoniga moslashtirib transpozitsiya qilish, ijro etayotgan asarning tonalligini almashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ovoz sozlash mashqlari (*vokal-intonatsion mashqlar*) o'quvchilarning musiqa madaniyati darslari orqali olgan amaliy-nazariy ma'lumotlarini mustahkamlashga yordam beradi.



Sof intonatsion mashqlarni kuylash jarayonida o'qituvchi kuylash sifatini diqqat bilan kuzatishi lozim (*intonatsiyaning sofliqi, erkin nafas, legato bilan kuylashni bilishi*).

O'quv faoliyatining dastlabki bosqichlarida intonatsion mashqlarni jamoa bo'lib yoki guruhlariga bo'linib kuylab, undan so'ng yakka ijroga o'tish tavsiya etiladi. Ovoz sozlash mashqlari dastlab o'rtacha tempda, erkin ritmda o'qituvchining qo'lga qarab bajariladi. Keyinchalik intonatsion mashqlarni ritmik boyitish lozim.

Ovoz sozlash mashqlari (*vokal-intonatsion mashqlar*) odatda jamoa bo'lib kuylashdan oldin amalga oshiriladi. Asosiy malakalarni tarbiyalashda qo'shimcha vosita hisoblanganligi sababli, ularga ko'p vaqt ajratish zarur emas. Musiqiy adabiyotlardan parchalar, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan tuzilgan mashqlar intonatsiya mashqlari uchun vokal ijrochilik materiallari bo'lib xizmat qiladi. Quyida boshlang'ich sinflarda yaxshi samara beradigan bir necha mashqlar keltirilgan. Uni o'qituvchi ijodiy yondoshgan holda (*o'quvchilarga tanish bo'lgan tez aytishlar so'zlaridan ham foydalanish mumkin*) turli ritmik usullarda berishi mumkin.

Ovoz sozlash mashqlari

1

2
Dil - shod va O't - kir nay - cha ya - sash - di Dil - shod va O't - kir nay - cha ya - sash - di

3
du - du - du - du du - du - du - du nay - cha ya - sash - di du - du - du - du du - du - du - du nay - cha ya - sash - di

4

5

6
Du - du - du - du sur - nay - cha sur - nay - cha men ch - la - man sur - nay - cha du - du - du - du



Musika madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalar diqqatini qo'shiqqa jalb qilish.
2. Qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (*qo'shiq mualliflari, asarining mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha hikoya qilish*).
3. Qo'shiqni tahlil qilish (*musiqiy ifoda vositalari, xarakteri va mazmunini suhbat yo'li bilan belgilash*).
4. Qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish (*to'g'ri nafas olib, jumlani oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatlari ustida ishlash*).
5. Qo'shiqning badiiy ijrosiga erishish (*qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o'tkazish ya'ni umumlashtirish*).

Jamoa bo'lib kuylashda dirijyorlik harakatlariga amal qilish

Musika madaniyati fanida dirijyorlik harakatlariga amal qilgan holda jamoa bo'lib kuylash – intonatsion aniqlik qobiliyatlarini rivojlantirib, musiqiy matnga aqliy yondashuvni shakllantiradi, ladni his qilishni tarbiyalaydi. Barcha o'quv yillari davomida ushbu faoliyatning rivojlantirib borilishi lozimdir.

Dirijyorlik harakatlariga amal qilgan holda jamoa bo'lib sof, ifodali, aniq unisonda kuylashga erishilishi zarur (*dastlab yod olingan kuylar, keyinchalik – begona kuy va qo'shiqlar*).

Birinchi darslardan oq, o'quvchilarni kuylash jarayonida to'g'ri o'tirishiga, shuningdek, to'g'ri tovush hosil qilish, nafas olishlariga e'tibor berishi muhim.

Musika ijodkorligi (Metroritmni his qilishni tarbiyalash)

Lad va intonatsion malakani rivojlantirish singari, metroritmni his qilishni tarbiyalash ham muhimdir.

Metroritmni rivojlantirish ish jarayonining har bir turida mavjud (*dirijyorlik, jamoa bo'lib kuylash, tinglash tahlillari va h.k.*), lekin yanada muvaffaqiyatliroq, samarali natijalarga erishish uchun ba'zida o'rganiladigan asarning metroritmik darajasini tushunish, ajratib va alohida ishlab chiqish, shuningdek, maxsus ritmik mashqlardan foydalanish muhim.



Boshlang'ich ritmik mashqlarni tanlashda, ritmni his qilish, ayniqsa, bolalarning harakat-holati bilan bog'liqligiga tayanish kerak.

Bolalarda boshlang'ich nota cho'zimlarini tasavvur qilishda, aynan mana shu harakatlarga asosiy e'tibor beriladi (chorak – «qadam», nimchorak – «yugurish»).

Bir qator ritmik mashqlarni tavsiya qilish mumkin:

- tanish qo'shiq, kuylarning ritmik sur'atiga zarb berish;
- o'qituvchi ijrosining ritmik sur'atiga qayta zarb berish (*chapak yoki zarbli cholg'ular yordamida*);
- doskada yozilgan misolning ritmik sur'atiga chapak chalish;
- darslikda berilgan ritmik namunalarni chapak yoki bolalar cholg'ularida ijro etish;
- nota yozuvlari bo'yicha maxsus kartochkalar bilan ishlash;
- ritmik sur'atni bo'g'inlab so'zlash;
- qo'shiqlar akkomponentiga ritmik ostinato (ital. ostinato, lot. obstinatus – mustahkam tayanib) musiqiy kompozitsiyasining usuli va texnikasi bo'lib, unda melodik jumlaning (melodik ostinato), ritmik jumlaning (ritmik ostinato), garmonik aylanmaning (garmonik ostinato) ko'p marotaba takrorlanishidir);
- zarbli cholg'ularda murakkab bo'lmagan ritmik partituralarni o'qib, aytib berish;
- ritmik diktantlar (yozilgan kuyning ritmik sur'atini chapak yoki zarbli cholg'ular orqali ijro etish va h.k.).

Barcha mashqlar turli xil o'lcham va templarda beriladi. O'qituvchining o'zi ham mazkur mashqlarning turli variantlarini tuzishi yoki yangilarini o'ylab topishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari notalarni to'liq o'zlashtirmagani va ularning cho'zimini bilmagani bois, ularda obrazli "katta" va "kichik" tasavvurlar mavjud. Darlikda kuy-qo'shiqlar ritmi katta va kichik doirachalar shaklida berilgan bo'lib, kattaroq doirachalar kichiklaridan uzunroq tarzda chapak yoki bolalar cholg'ularida ijro etiladi. Darslikda esa ular maxsus shartli belgilar bilan berilgan.

Bolalar cholg'usida jo'r bo'lish

Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki bolalar cholg'ulari jonli va tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Bolalar cholg'ulari, birinchi navbatda, o'quvchilarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqqa madaniyati darslarida bolalar cholg'ularidan foydalanish yaxshi natijalar berishi bilan birga, o'quvchilarning darsga intiluvchanligi, qiziqishi hamda musiqiy o'quvini oshiradi. Musiqqa darslarida asosan, kuychan va kuychan bo'lmagan (shovqinli) cholg'ular qo'llaniladi.

1. Kuychang cholg'uga metallofon va ksilafon kiradi.

2. Kuychang bo'lmagan cholg'ularga: doirachalar, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shiqildoqlar, safoillar, barabanchalar, uchburchak, markassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg'ularida jo'r bo'lish qo'yidagicha amalga oshiriladi:

✓ kuyni tinglab, chapak chalish va unga ritmik jo'r bo'lish.

✓ Musiqaga ritmik jo'r bo'lishni aniq bajarganlar, bolalar cholg'ularida jo'r bo'ladilar, asta sekinlik bilan jo'r bo'lishga qiynaluvchi (passiv) o'quvchilarni ham o'zlari bilan ijro etishga o'rgatib boradilar.

✓ Bolalar musiqaga cholg'ularida jo'r bo'lishda turli cholg'ularidan almashtirib foydalanishlari mumkin.

✓ Sinf 2 guruhga bo'linadi. 1-guruh chapak va cholg'uda, 2-guruh esa ovozda usul berish (bum-bak, baka-baka-bum) bilan amalga oshirishi ham mumkin.

✓ Cholg'u ijrochiligida grafik usulda ko'rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o'quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Musiqaga xos harakatlar bajarish.

Boshlang'ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ovoz apparatlari nozik, diqqat e'tibori tarqoq, serharakat, o'ynqaroq, xotirasi, nutqi, to'liq rivojlanmagan bo'lganligi sababli musiqqa madaniyati darslarida faoliyat turlari tez-tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish, o'quvchilarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va ularning jismonan o'sishlariga yordam beradi.

Dars davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raqs elementlarini bajarish, mustaqil



o'yinlar o'tkazish, musiqaning xarakteriga mos, turli qo'l va tana harakatlari bilan mazmunni ifodalash.

Ma'lumki, milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o'rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Har bir harakat turini o'qituvchi oldindan belgilaydi va o'zi uni aniq go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqa mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra harakatlar bajarishi yaxshi natija beradi.

Bolalar musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Ko'p musiqiy asarlar mazmunida o'yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayonida bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o'yinlar, o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismoniy sog'lom bo'lishiga ko'maklashadi va ularni ruhlantirib, musiqa darsiga qiziqishlarini oshiradi. Bunda dars tuzilishining pedagogik maqsadlariga qarab, mashg'ulotni istalgan dars faoliyatidan boshlash mumkin. Bundan maqsad, o'quvchilarni musiqaga qiziqitira olish, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, dars faoliyatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'lab mazmun jihatdan mantiqiy bir butunlikka erishishdir.

Musiqa savodi

Musiqa savodi – musiqa san'ati haqidagi boshlang'ich tushunchalar tizimidan iborat. Shuning uchun musiqa savodi darsning mustaqil musiqiy faoliyati tarzida emas, balki butun dars davomida, ayniqsa, jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash uchun asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganiladi.

Musiqa madaniyati darslari mazmunida o'quvchilarning musiqiy savodxonligini tarkib toptirish muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Chunki musiqa savodi darsning ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqa savodining asosiy negizi berilgan mavzularni, kuylash va tinglashga doir asarlarini savodli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari asosida o'rgatiladi. Har bir darsda o'quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O'quvchilarining musiqiy taassurotlari va tajribalarining o'sishi, musiqani hayot bilan bog'lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo'yicha o'rgatiladi:

1. O'quvchilar diqqatini boshlang'ich nota savodxonligi bilan birga musiqaning ifoda vositalari kuy, registr, temp, ritm, dinamik belgilarga qaratishga o'rgatish.

2. Ovoz sozlash va qo'shiq ijro etish qoidalariga doir bilimlar – chapak va cholg'ularini chalish qoidalariga amal qilishga o'rgatish.

3. Musiqa ijodkorlari: "kompozitor", "ijrochi", "tinglovchi" mavzularining mazmuni va o'rganiladigan asarning mualliflari haqidagi ma'lumotlar musiqa savodi orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. «Musiqa va uni o'qitish metodikasi» G.Sharipova. 2006
2. G.Muxammedova «Xonandalik uslubiyoti asoslari». 2006
3. П.В.Голубев «Советы молодым педагогам-вокалистам
4. С.Мирзаева «Вокальное воспитание учащихся» Ташкент-2005
5. О.Содиқов "Vokal ansambli" Toshkent-2005
6. Н.Айрумова „Вокальный ансамбл" Ташкент-2004
7. М.Ризаева „Yosh xonandaning kamoloti" Toshkent-2003
8. Гудкова Е.А. Василева А.Б. Ашула дарслиги методикаси – Т: "Ўқитувчи" 1973.
9. Дмитриева Н.Г. и др. Методика музыкального воспитания в школе – М., 1989.



ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

FINLYANDIYADA TILLAR O'QITILISHI TAJRIBASI

Abdurahim NASIROV,

*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat
qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i maslahatchisi,
filologiya fanlari doktori,
O'zDJTU dotsenti*



Annotatsiya.

Ushbu maqolada Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ayrim tajribalariga e'tibor qaratilgan. Xususan, Finlyandiya ta'lim muassasalarida tillarning, fin, tili, shved tili va boshqa tillarning o'qitilishi hajmi va mazmuni O'zbekistondagi ona tili va davlat tilining o'qitilishi bilan qiyosiy yoritilgan. Finlyandiya maktablarida o'quv rejadagi soatlar hajmi hamda ularning farqi, baholash tizimi, o'quv dasturlaridagi ayrim yondashuvlar, tillar ona tili va adabiyot fani sifatida, xorijiy til sifatida yoki ikkinchi davlat tili sifatida majburiy, ixtiyoriy yoki fakultativ ko'rinishda o'qitilishi haqida ma'lumotlar tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv reja, o'quv dasturi, davlat tili, ona tili, adabiyot, soatlar ulushi, kompetensiya, tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish.

This article focuses on some of Finland's experiences in the field of education. In particular, the scope and content of the teaching of languages, Finnish, Swedish and other languages in Finnish educational institutions are compared with the teaching of the native language and the state language in Uzbekistan. An analysis of data on the number of hours in the curriculum in Finnish schools and their differences, the assessment system, some approaches in the curriculum, compulsory, voluntary or optional teaching of languages as a mother tongue and literature, as a foreign language or as a second state language.

Keywords: curriculum, syllabus, state language, mother tongue, literature, percentage of hours, competence, listening comprehension, speaking, reading, writing.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi ta'lim tizimini isloh qilishga doir Farmon va qarorlarida Finlyandiya tajribasini o'rganish masalasi ta'lim boshqaruv idoralariga, jumladan, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga vazifa sifatida qo'yilgan edi. Shunga ko'ra o'rganish ishlari olib borilmoqda.

Finlyandiya bugungi kunda 5,5 mln. aholi istiqomat qiladi, mavjud 2341 ta maktabda 560 ming nafar o'quvchi tahsil oladi. Barcha maktab bir xil mavqegaga, o'quvchilar uylari yaqinidagi maktabga borishadi. Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil, umumiy o'rta ta'lim 3 yil davom etadi. 9-sinf bitiruvchilari o'qishni ta'limning keyingi bosqichi litsey va kasb-texnika maktablarida davom ettiradi. Litseylar xuddi O'zbekistondagi singari OTMLarga bog'langan, u yerda o'qish 3 yil davom etadi. Kasb-texnika maktablarida esa o'qish 2-3 yil davom etadi. O'quvchilarga boshlang'ich sinflarda baho qo'yilmaydi, yuqori sinflarda 4-10 ball bilan baholanadi.

Finlyandiya maktablarida o'quv jarayoni uchun majburiy o'quv dasturlari «Asosiy ta'lim to'g'risida»gi qonun va hukumat qarorlariga muvofiq ishlab chiqiladi. O'zbekistondagi tartibdan farqli ravishda Finlyandiya asosiy tayanch o'quv reja va dastur asosida mahalliy o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Mahalliy o'quv dasturi maktab faoliyatining asosiy o'quv mazmunini belgilab beradi hamda u strategik yo'nalish hisoblanadi.

O'quv dasturini tayyorlashda dars mashg'ulotlarini o'tish predmetli yoki integral bo'lishi mumkin. Bizning o'quv dasturlardan farqli yana bir jihat – bu integral ta'lim. Bunda bir mavzu ma'lum vaqt (soat, kun, hafta) davomida bir nechta fan orqali o'qitiladi. Masalan, “Vatan” mavzusi, ona tili, adabiyot, chet tilida til va tarbiya nuqtai nazaridan, geografiya, tarix fanlarida joylashishi va o'tmishi, matematika, iqtisodda mamlakatning real daromadlari, raqamlar bilan bog'liq jihatlari, tabiiy fanlar o'z yo'nalishidagi masalalar doirasida va hokazo. Har qanday holatda maktab sifatli ta'lim berishni kafolatlaydi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni - nimani o'qitamiz (o'quv dasturi), qancha hajmda o'qitamiz (o'quv reja), qanday o'qitamiz (metodika), kim o'qitadi (kadr)? kabi savollarga javob topish orqali tashkil etiladi. Shundan qancha hajmda o'qitamiz, degan savolga Finlyandiya maktablarining o'quv rejasidagi tillarning ulushiga qiziqdik.

Finlyandiya maktablarining o'quv rejasiga ko'ra 9 yillik haftalik umumiy yuklama 233 soatni tashkil qiladi, majburiy 224 va fakultativ 9 soat. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 1-9 sinflarda 246 soatni tashkil etadi. (+10-11 sinflar uchun 68 soat)



Shundan, Finlyandiya maktab o'quv rejasida ona tili va adabiyoti fanining ulushi 42 soatni yoki 18,7% ni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkich O'zbekistonda, ya'ni ona tili va adabiyoti fanining ulushi 2018-yilda 61 soat (23,6%)ni tashkil etgan, 2021-yilda esa 51 soat (20,4%)ni tashkil etmoqda, ya'ni 3,2% ga kamaygan.

Ammo o'zbek tili (davlat tili)ning ulushi esa 2018-yilda 16 soatdan (6,2%) 2021-yilda 21 soatga (8,4%) ya'ni 2,2% ga oshgan. Bu esa mamlakatimizda ta'lim o'zbek tilidan boshqa tilda olib borilayotgan maktablarda davlat tilining o'qitilishga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilganligidan dalolat beradi. *(Tahlillar Finlyandiyadagi 9 yilga mos ravishda O'zbekistonda ham 9 yilga nisbatan olindi).*

Xuddi shunday ko'rsatkichlar, ya'ni ona tili va adabiyoti fanining boshqa barcha fanlarga nisbatan ulushi Germaniyada 13,4%, Janubiy Koreyada 17,8%, Yaponiyada 19,1%, Rossiyada 17,5%, Belorussiyada 13,4% ni tashkil etishi kuzatildi.

O'quvchi B2 tilni fakultativ fan sifatida (9 soat) o'rganishi mumkin. A2 (12 soat) va B2 (4 soat) tillarini erkin tanlash asosida alternativ tarzda, ajratilgan minimal vaqtdan tashqari mashg'ulotlar sifatida tashkil etilishi mumkin. Bunday holda, ularni o'qitish - ushbu badda belgilanganidek, fakultativ (9 soat) yoki B1 (6 soat) tili uchun ajratilgan dars soatlarining minimal vaqtdan foydalangan holda tashkil etiladi.

Finlyandiya umumiy o'rta ta'lim maktabi tayanch o'quv rejasida tillarga ajratilgan soatlar hajmi

O‘quv fanlari	Sinflar				Jami
	1 2	3 4	5 6	7 8 9	
Ona tili va adabiyot	14	18	10	42	
A 1 – til ¹	2	9	7	18	
B 1 - til	2		4	6	
Fakultativ fanlar	9			9	
Darslarning minimal soni				224	
Ixtiyoriy A2-til ⁴	(12)			(12)	
Ixtiyoriy B2-til ⁴				(4)	
*Manba - Finlyandiya tanyach o‘quv rejasi. 2012-yildagi 422-sonli hukumat qarori					

¹bu fan maktab dars jadvalida ko'rsatilishiga qarab o'qitiladi (fin, shved, sami kabi)

⁴o'quvchi qaysi tilda ta'lim olishiga qarab, ixtiyoriy tanlagan A2 tilni fakultativ fan sifatida yoki B1 tilning o'rniga o'rganadi.

Tilga qarab o'quvchi ushbu B1 (6 soat) tilida ta'lim oladi, yoki ushbu B1 til o'rniga fakultativ fanlar (9 soat) hisobidan tahsil oladi.

O'quv soatlarining taqsimlanishi A2 ni o'rganayotgan o'quvchi uchun eng kam vaqt ajratilganidan ortiq o'qitish hisobiga kamida 234 ta yillik darsni tashkil etadi. Mos ravishda B2 ni o'rganayotgan o'quvchi uchun yiliga tegishli darslar soni kamida 226 tani tashkil qiladi. A2 va B1 tillarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun yiliga o'tiladigan darslarning umumiy soni kamida 238 tani tashkil etadi, chunki o'qitiladigan vaqt minimal vaqtdan oshib ketadi.

Agar maktab A2 va B2 tillarida ixtiyoriy tillarni o'qitmoqchi bo'lsa, o'qitish tamoyillarini tavsiflab berishi, agar maktabda tilni o'qitish uchun qo'shimcha dastur soatlarida til dasturida ko'rsatilganidan ko'proq vaqt sarflansa, buni ta'riflash kerak.

Boshlang'ich ta'limda ingliz tili (A2) 3-sinfdan boshlab barcha maktablarda (12 soat) taklif etiladi, chet tili sifatida boshqa tilni ham tanlash mumkin. Maktabda A2 tilli guruh tuzish uchun kamida 12 nafar o'quvchi ushbu tilni tanlashi kerak. Ba'zan tanlagan chet tili fransuz, nemis yoki boshqa til bo'lsa-yu, 12 nafar o'quvchi yig'ilmasa, maktabni almashtirishi mumkin. O'rta ta'limga o'tganda 7-sinfdan boshlab yana bir chet tili (B2) o'qitiladi (4 soat).

Ko'rib turganimizdek, Finlyandiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida tillar ona tili va adabiyot fani sifatida, xorijiy til sifatida yoki ikkinchi davlat tili sifatida majburiy, ixtiyoriy yoki fakultativ ko'rinishda o'qitilarkan.

Finlyandiya maktablarida ona tili sifatida fin tili, shved tili, sami tili, sigan tili kabi fanlar o'qitiladi.

O'quvchilar ona tili	"Ona tili va adabiyoti" fanidan o'quv dasturi nomlanishi	Ikkinchi davlat tili	
	Majburiy komponent	Majburiy komponent	Ixtiyoriy komponent
Fin tili	Fin tili va adabiyoti	Shved tili	-
Shved tili	Shved tili va adabiyoti	Fin tili	-
Sami tili	Sami tili va adabiyoti	-	Fin /shved tili
Sami tili	Fin/shved tili va adabiyoti, sami tili va adabiyoti	Fin tili/ shved tili	-
Sigan tili	Fin/shved tili va adabiyoti, sigan tili va adabiyoti	Fin tili/ shved tili	-



Imo-ishora tili	Imo-ishora tili va adabiyoti, imo-ishora tili foydalanuvchilari uchun fin yoki shved tili	-	Fin tili/ shved tili
Boshqa til	boshqa ona tili (rus) to'liq o'qitiladi ikkinchi chet tili sifatida fin yoki shved	-	Fin tili/ shved tili

Yuqoridagi jadvalda ko'rganingizdek **Finlyandiyada** ikkita davlat tili mavjud, ona tili fin tili bo'lganlar, shved tilini, ona tili shved tili bo'lganlar fin tilini davlat tili sifatida o'rganishadi. Ona tili sami yoki sigan, rus tili bo'lganlar ham fin yoki shved tilini o'rganishadi.

Bizdachi, umumiy o'rta ta'limning yangidan ishlab chiqilayotgan Milliy o'quv dasturida "Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, tojik, turkman), rus tili (ta'lim rus va o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi", deb qayd etilgan.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda olib boriladi. Shundan, 2069 ta maktabda ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda ya'ni rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman, qirg'iz tillarida olib boriladi va har bir millat vakillari uchun millatlararo bag'rikenglik tamoyili asosida sharoitlar yaratilgan, o'quv jarayoni o'z ona tillarida tashkil etilgan va ushbu maktablarning har birida o'quvchilar uchun barcha fanlardan o'z ona tilida darslik va o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Fin ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda til o'rganish qobiliyatini rivojlantirish erta bolalikdan boshlanadi va butun hayotida davom etadi. Til uyda, maktabda va maktabdan tashqari vaqtlarda rivojlanadi. Maktabda til o'qitishning asosiy prinsipi - turli vaziyatlarda tildan foydalanishga o'rgatish hisoblanadi.

O'qish va yozish strategiyasi - bu ona tilini o'rgatish paytida ta'kidlash zarur bo'lgan markaziy metakognitiv ko'nikmalardir. Til o'rganishning maqsadi tilni anglash va tahliliy til qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdir.

1-2-sinflarda ona tili va adabiyot fanini o'qitishda o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ongli yondashish, o'zini namoyon qilish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish, til, shuningdek, tinglash, gapirish, o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirish alohida vazifa hisoblanadi. O'quv jarayonining davomiyligiga e'tibor qaratish, maktabgacha yoshdagi asosiy ko'nikmalar va o'zaro kompetensiyalarga bog'lagan holda davom ettirish muhim.

3-6 sinflarda fanning o'ziga xos maqsadi o'quvchilarni o'zini namoyon qilish, o'zaro ta'sir o'tkazish salohiyatlari, o'qish va yozish qobiliyatlari va strategiyalariga yo'naltirishdir. Bundan tashqari, ushbu bosqichda matn janrlari doirasi kengayadi. O'quvchilarga ko'proq turli xil matnlarni talqin qilish, tahlil qilish, tuzish va baholash ko'nikmalari o'rgatiladi. O'quvchilar tomonidan tanlangan qiziqarli kitoblar va boshqa multimediali matnlar o'quv jarayoniga jalb qilinadi. O'quvchilar o'qish orqali o'zlarining dunyoqarashlarini kengaytirishadi. Maktabdan tashqari madaniy va multimedia xilma-xilligi orqali ona tili va adabiyotni o'rganish imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

O'zbekistonda esa – o'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallarini har bir sinfdan o'rgatish, mustaqil ravishda fikr almasha olish, eshitilgan matnni idrok etish, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot so'z san'ati, shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat.

Finlyandiya ta'limida ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tishda, maktabda 2-sinfdan - 3-sinfga, 6-sinfdan ya'ni boshlang'ichdan yuqori sinfga 7-sinfga o'tishda chorrahali (перекрёстные) kompetensiyalar talablari o'quv dasturlarida aks ettirilgan va mana shu o'tish bosqichlarida alohida uzviylik, uzluksizlikka amal qilish bilan birga, o'quvchilarni mana shu bosqichlarda sezilarli darajada qo'llab-quvvatlanadi, ayniqsa o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga alohida e'tibor bilan yondashiladi. Chunki, finlardan ta'lim sifatining yuqoriligi haqida so'ralganda, ular o'quvchilarni imtihonga emas, balki hayotga tayyorlashni va e'tiborni iqtidorlilarga emas, balki sust o'zlashtiruvchilarga qaratishini aytishadi va iqtidorlilar shundoq ham hayotda o'z o'rnini topib olishlarini qayd etishadi.

O'quvchilarda fanlarga oid kompetensiyalardan tashqari, barcha fanlar uchun 7 ta transversal (tayanch) kompetensiyalarni shakllantirish o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan. Bu - bilim va ko'nikmalar, qadriyatlar, munosabat va irodadan iborat yaxlit tushuncha. Qobiliyat – bilim va ko'nikmalarni vaziyatga qarab ishlata olish imkoniyatini anglatadi. Umumiy maqsad esa, o'quvchilarning



shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, demokratik jamiyat va barqaror hayotda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

Finlyandiya umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturida quyidagi 7 ta transversal (tayanch) kompetensiyalar ko'zda tutilgan. Bu kompetensiyalar tillarni o'qitishda ham yo'nalish xususiyatlariga bog'liq ravishda shakllantiriladi.

1. *Fikrlash va o'rganish qobiliyati - (T1)*
2. *Madaniy-kommunikativ kompetensiya – (T2)*
3. *Kundalik kompetensiya - (T3)*
4. *Ko'p tomonlama savodxonlik – (T4)*
5. *Raqamli savodxonlik kompetensiyasi – (T5)*
6. *Mehnat faoliyati va tadbirkorlik ko'nikmalari – (T6)*
7. *Barqaror kelajakka hissa qo'shish, ta'sir etish va qatnasha olish qobiliyati-(T7)*

O'zbekiston Milliy o'quv dasturida maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo'yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar belgilanmoqda. Ular "Nutqiy kompetensiyalar" (Og'zaki nutq malakasi va Yozma nutq malakasini "Anglash malakasi", "O'qish va tushunish", "Tinglab tushunish") hamda "Lingvistik kompetensiyalar" (Lingvistik malaka: fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis) orqali shakllantirish ko'zda tutilgan.

Finlyandiya maktablarida o'quvchilar til ko'nikmalari va milliy madaniyati hisobga olinadi. Maktab boshqa ona tilida so'zlashadigan va boshqa madaniyatga mansub bo'lgan o'quvchilar uchun o'rganish va muloqot qilish imkoniyatlarini yaratishi kerak. O'qituvchilar o'z fanini fin va shved tilida bera olishi lozim. Barcha ko'rsatmalar umumiy o'rta ta'lim uchun o'quv dasturida belgilangan umumiy maqsad va prinsiplarga muvofiq bo'lishi ko'zda tutiladi. Maqsad – o'quvchilarni turli tillar va madaniyatlarni qadrlashga o'rgatish, ikki tilli va ko'p tillilikni targ'ib qilish, shu orqali o'quvchilarning lingvistik bilimlari va metalingvistik ko'nikmalarini mustahkamlash hisoblanadi.

Dastur fin va shvedlarning milliy tillar maqomini va fin tilining aholining ko'pchilik qismi tili hamda ta'lim jarayonining asosiy tili maqomini tasdiqlaydi. Fin tili nafaqat o'rganish obyekti, balki turli fanlarni o'rganish vositasi hamdir. O'qitish va o'rganish orqali kerakli bilim va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Hamkorlik "Fin tili va adabiyoti", "Fin tili va adabiyoti ikkinchi davlat sifatida" dasturlarini hamda

ona tili va adabiyotni o'qitish bo'yicha boshqa dasturlarni amalga oshirish uchun juda muhimdir.

Yana bir holat borki, muayyan sinfda yoki ma'lum bir maktabda ta'limning qaysi tilda olib borilishi ta'lim to'g'risidagi qonun doirasida, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari qarorlari asosida ta'lim tili ona tili va adabiyot o'qitiladigan til sifatida belgilanadi

Ammo, agar kerak bo'lsa, ona tili va adabiyot fani bo'yicha va AI tili dasturidagi darslar hukumat qarori qoidalariga muvofiq birlashtirilishi mumkin. Bunday holda o'qituvchilar umumiy o'qitiladigan barcha fanlarning kamida yarmini shu ona tili sifatida belgilangan tilda olib borishlari kerak. Bunda oila va maktab o'rtasidagi o'zaro kelishuv amalga oshiriladi.

Ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarni chet tili sifatida o'rganish xususida yuqorida qayd etdik. Bu holat o'quvchilarda ko'p tillilik, ko'p savodxonlik kompetensiyalarini shakllantiradi. Xelsinki universiteti dotsenti Raili Hildenning fikricha, finlarning tilini juda kam davlatlarda tushunishadi, shuning uchun ular dunyo aholisi gaplashadigan chet tillarini parallel ravishda yuqori darajada o'rgatishni maqsad qilib olgan. Qolaversa, turli tillarda muloqot qobiliyatlari fanlararo aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Finlandiya maktablarida chet tillarining o'qitilishi xususida keyingi maqolalarimizda o'rtoqlashamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillari bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-son qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori;



5. O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2021-2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i.
6. Abdourakhim Nassirov. Docteur és lettres, professeur associé Université des langues du monde de la République d'Ouzbékistan, Tachkent, Ouzbékistan, nasirovabduraxim@mail.ru. Continuité de l'enseignement des langues étrangères dans le système de formation continue - défis et tâches;
7. Nasirov Abdurakhim Abdimutalipovich. Features of proverbial phraseological units. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021, 296
8. O.Qo'ysinov, A.Nasirov, TSNQDI - Uzluksiz ta'limda o'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash konsepsiyalari - Toshkent – 2021.
9. Ona tili, adabiyot, o'zbek tili va chet tili fanlaridan uzluksiz ta'limda uzviyligni ta'minlash konsepsiyalari va milliy o'quv dasturlari - Toshkent – 2021.
10. Nasirov A.A. How foreign languages are taught to children in Uzbekistan?// Foreign languages, scientific-methodical electronic journal in Uzbekistan. - Tashkent, 2015. № 1
11. Finnish national board of education. The NCC for basic education (2014).
12. Raili Hilden, Associate Professor in Language Didactics (Foreign language education). Methods of teaching foreign languages in Finland. "Finnish experience in teaching general education subjects" online seminar. 16.2.2021.
13. Risto Hotulainen & Sirkku Kupiainen. The finnish education system curriculum and assessment. 60 ° 10 1.2 n, 24 ° 57 18 e. 02.12.2020





TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH SOHASIDA XALQARO TAJRIBALARNI TADBIQ ETISHNING AYRIM MASALALARI

Faxriddin RO'ZIQULOV,

*Navoiy viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
direktori, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*



Annotatsiya.

Maqolada ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tajribalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga ta'siri haqida mulohazalar yuritilgan. Xususan, "Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi", "Matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini xalqaro monitoring qilish", "Matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish", "O'qitishning xalqaro tadqiqi", "Fuqarolik ta'limi sifatini xalqaro o'rganish", "Axborot va kompyuter savodxonligini xalqaro o'rganish", "Katta yoshdagi mehnatkash aholining ko'nikma va malakalarini xalqaro o'rganish" (yoshi kattalar malakasini xalqaro baholash dasturi)" bo'yicha yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'lim, baholash, sifat, tadqiqot, assotsiatsiya, pedagogik ta'lim, xalqaro dastur.*

В данной статье рассматриваются вопросы применения международного опыта в области оценки качества образования и его влияние на образовательную систему Узбекистана. В частности, «международная программа по оценке учебных достижений», «международное мониторинговое исследование качества математического и естественно-научного образования», «изучение качества чтения и понимания текста», «международное исследование учительского корпуса», «международное исследование качества гражданского образования», «международное исследование информационной и компьютерной грамотности», «международное исследование навыков и компетенций взрослого населения трудоспособного возраста (программа международной оценки компетенций взрослых)».

Ключевые слова. *Образование, оценка, качество, исследования, ассоциация, педагогическое образование, международная программа.*

Ta'lim sifatini baholash sohasidagi turli zamonaviy xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat ta'lim tizimlari tez o'zgaruvchan iqtisodiyot bilan hamqadam emas va o'quvchilarga tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyati kabi zarur ko'nikmalarni bermaydi. Birgalikda ishlash va doimiy o'zgaruvchan texnologiyaga moslashish qobiliyati, kundalik hayotda va ishda faoliyatida qo'llaniladi. Bilimlarni baholash usullarini isloh qilish ta'lim sohasidagi har qanday tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun nihoyatda zarur bo'lib, bugungi kunda nafaqat o'zgarishlar, balki global xarakterdagi o'zgarishlar ham zarur. Faqat ular o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashlari mumkin.

“Taraqqiyot strategiyasi” markaziga taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Ta'lim inspeksiyasi o'rtasida O'zbekistonda ta'lim sifatini PISA-2021 baholashda ishtirok etish to'g'risida bitim imzolangan. PISA tadqiqotlarini o'tkazish maqsadida O'zbekistonga uslubiy yordam berish, so'rovlar o'tkazishda ko'maklashish, imkoniyatlarni tahlil qilish, salohiyatni oshirish va loyihalarni amalga oshirish rejalari, mamlakat uchun ularning loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashish, milliy sifat nazorati va dasturlarini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi. O'zbekiston boshqa davlatlar qatorida Avstraliya Ta'lim Tadqiqotlari Kengashiga (ACER) qo'shildi. 2019-yilning 13-fevral kuni Ta'lim inspeksiyasi rahbariyati Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) ijrochi direktori Andrea Netton va moliya bo'yicha bosh direktori Rule Burgert bilan uchrashdi. Tadbirda Jahon bankining ta'lim sohasidagi yetakchi mutaxassisi Yanssen Tayxayra va Jahon bankining O'zbekistondagi vakili Xideki Mori ham ishtirok etdi. Muzokaralar natijasida O'zbekistondagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun PIRLS-2021 xalqaro savodxonligini baholash dasturida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu kelishuv natijasida PIRLS-2021 dasturi O'zbekistondagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasi xalqaro miqyosda sinovdan o'tkaziladigan bo'ldi.

Ta'lim sifatining asosiy xalqaro tadqiqotlari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti (OECD) (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan amalga oshiriladi.

Umumiy ta'lim sifati bo'yicha uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqot – PISA, TIMSS va PIRLS bir-birini to'ldiradi. Ushbu uch tadqiqotni bir vaqtda olib borish ta'lim tizimi haqida to'liqroq ma'lumot beradi, uning turli tomonlarini baholaydi.

PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlari natijalarini solishtirish maktablarda o'qish, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitish xususiyatlarini aniqlash



va xalqaro tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim ustuvorliklari nuqtai nazaridan umumta'lim sifatini baholash imkonini beradi.

Ta'lim sifatini o'rganish bo'yicha asosiy xalqaro dasturlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

PISA xalqaro talabalarni baholash dasturi bo'lib, OECD homiyligida o'tkaziladigan tadqiqotdir. Dastur doirasida 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar sinovdan o'tkaziladi:

- matematik savodxonlik;
- tabiiy-ilmiy savodxonlik;
- o'qish savodxonligi;
- kreativ fikrlash, moliyaviy va kompyuter savodxonligi.

Tadqiqot har uch yilda bir marta o'tkaziladi. 2015-yilda PISA tadqiqotlari oltinchi marta bo'lib o'tdi, unda 70 ta davlat ishtirok etdi. PISA-2015 tadqiqotida test sinovlari kompyuter asosida o'tkazildi, bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni baholash yo'nalishi ham kiritildi. PISA-2018 tadqiqotiga "global kompetensiyalar" kiritilgan.

Mamlakatlar tadqiqot natijalaridan foydalanib, ta'limning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'z profilini boshqa davlatlar fonida ko'rish va maktablarda ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qish savodxonligini o'rganish o'qish texnikasi va o'qish ko'nikmalarini tekshirishni maqsad qilib qo'ymaydi - u o'quvchilarning matnlarni tushunish, ularning mazmuni haqida fikr yuritish, ma'noni baholash va o'qiganlari haqida o'z fikrlarini bildirish qobiliyatini tekshiradi. Talabalarga turli janrdagi matnlar taklif etiladi: badiiy va ilmiy-ma'rifiy, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, tarjimai hollar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, reklamalar, ma'lumot varaqlari, geografik xaritalar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, blankalar (soliq, vizalar, anketalar).

Matematik savodxonlikni tekshirish subyektlarning matematikaning inson hayotidagi o'rni to'g'risida xabardorligini, konstruktiv, faol va fikrlovchi fuqarolar tomonidan qabul qilinishi kerak bo'lgan mulohazalar va qarorlar qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Test o'quv rejasiga muvofiq matematika bo'yicha bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning shakllanish darajasini emas, balki ulardan matematik vaziyatlarda, mantiqiy va matematik sezgi talab qiladigan turli yondashuvlardan foydalana olish, matematikani shakllantirish va sharhlash

qobiliyatini ochib beradi. Eng qiyin vazifalar kontekstni “matematiklashtirish” (eng yuqori darajadagi murakkablik vazifasi). Buning uchun matematika yordamida yechilgan masalani aniqlash, uni shakllantirish, yechishning matematik modelini ishlab chiqish va topshiriqda taklif qilingan vaziyatga qarab izohlash kerak.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik uchun PISA testi fan va texnologiya masalalarini tushunishni talab qiluvchi shaxsiy, mahalliy, milliy va global muammolarni hal qilish uchun akademik bilimlardan foydalanish qobiliyatini o'lchaydi: tevarak-atrofdagi dunyoni, ilmiy bilimlar asosini tashkil etuvchi asosiy faktlar, g'oyalar va nazariyalarni tushunish, hodisalarni ilmiy tushuntirish, ilmiy-tadqiqot usullarini qo'llash, ma'lumotlarni sharhlash va xulosalar chiqarish uchun ilmiy dalillardan foydalanish.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study). Har to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan ushbu tadqiqotda 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar, 11-sinflar esa ilg'or matematika va fizika fanlari bo'yicha erishgan natijalari baholanadi. O'rganishning to'rt yillik xususiyati 4-sinf o'quvchilari sakkizinchi sinfga o'tganda erishilgan natijalarni taqqoslash, shuningdek, boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga o'tish davrida o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirishdagi o'zgarishlarni qayd etish imkonini beradi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) turli mamlakatlardagi 4-sinf boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'qish va tushunish sifatini taqqoslaydi. Tadqiqotlar 2001-yildan beri har besh yilda bir marta o'tkaziladi. U IEA homiyligida amalga oshiriladi. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill kollejiga (Massachusetts, AQSH) yuklangan. Tadqiqot 4-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'qish sifatini tekshiradi, chunki maktabning to'rtinchi yili bolalar rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot matnlarini o'qishda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq berilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmuni, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.

TALIS (Teaching and Learning International Survey), OECD tomonidan **o'qituvchilar korpusining** xalqaro tadqiqoti o'qituvchilar sharoiti va maktablardagi ta'lim muhitiga qaratilgan birinchi xalqaro qiyosiy tadqiqotdir. TALIS xalqaro tadqiqotida ishtirok etish milliy ta'lim oldidagi dolzarb



vazifalarga – pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagogik korpusning kasbiy salohiyatini oshirish kabi masalalarga javob beradi. Tadqiqot o'qituvchilarni zamonaviy maktab oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishga tayyorlash, o'qituvchilarni baholash, ularning pedagogik o'sishini rag'batlantirish va kasbiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ICILS - bu kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning kompyuter va axborot savodxonligini baholashdan iborat.

Shunday qilib, O'zbekiston ta'lim sifatining xalqaro – qiyosiy tadqiqotlarda ishtirok etishi O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash tizimini yaratish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar mamlakatimizdagi ta'lim sifati va uning jahon ta'lim tizimidagi nisbiy o'rnini baholash imkonini beradi. Dunyo mamlakatlarida maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga qo'yiladigan dasturlar, darsliklar va talablar haqidagi eng boy tahliliy material mamlakatimiz mutaxassislariga ta'lim mazmunini isloh qilish va ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Jahonning yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik o'lchov texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonda ta'lim sifatini jahon andozalari darajasida baholash tizimini yaratishga yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <http://markaz.tdi.uz> (Talim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb sayti)
2. www.centeroko.ru (Rossiya Fanlar Akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti Ta'lim sifatini baholash markazi)
3. [www.oecd.org.pisa](http://www.oecd.org/pisa) (O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi veb sayti)
4. www.timssandpirls.bc.edu (TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot bo'yicha veb sayt)



TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIK
ISHLARIDA TRENERLAR MAS'ULIYATI**

Oysuluv MUSURMONQULOVA,
Respublika ta'lim markazi metodisti



Annotatsiya.

Maqolada Xalq ta'limi vazirligining qarori asosida respublika bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar, unda faoliyat olib borayotgan trenerlarning kasbiy malakasini oshirish, xalqaro baholash dasturiga mos topshiriqlar ishlash yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

В статье даны рекомендации, основанные на решении Министерства народного образования о подготовке базовых школ к международным исследованиям в стране, о повышении квалификации тренеров (учителей), работающих в этих школах, о разработке заданий в соответствии с международной программой оценки.

The article provides recommendations based on the decision of the Ministry of Public Education on the preparation of basic schools for international research in the country, on the professional development of trainers (teachers) working in these schools, on the development of tasks in accordance with the international assessment program.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonida zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan yangi davlat ta'lim standartlari, umumta'lim dasturlarini joriy etish hamda PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro baholash dasturlari tayyorgarlik ko'rish, PISA reytingida O'zbekistonning 2030-yilga kelib, 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan. Shunga muvofiq, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va

Xalq ta'limi vazirligining qarori asosida respublika bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Tayanch maktablarda faoliyat yuritayotgan trener-o'qituvchilarning Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ehtiyojlari o'rganildi va aniqlangan muammolarning oldini olish maqsadida, avvalo, o'qituvchilarni tayyorlash masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bu kabi ijobiy ishlar samarasi XXI asrda davlatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq bo'lsa, o'qituvchilarning salohiyati, kasbiy darajasi xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning ijobiy samarasini belgilaydi. Shuning uchun, o'qituvchilar tavsiya etilgan o'quv topshiriqlari asosida mustaqil topshiriqlar yaratishi va ushbu yaratilgan ijodiy ishlarini amaliyotga, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash lozim.

Bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda, hayotga faol fuqaroni tarbiyalash, yuqori cho'qqilarni zabt etishlarda yaqindan ko'maklashish muhimdir.

Har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi bevosita, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Shunga muvofiq, rivojlangan davlatlar siyosatida asosiy masala sifatida yoshlarning bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratganligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda, xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan tanlovlarning ham asl maqsadi yoshlarning har tomonlama kamol topishiga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, rejalashtirilgan mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- xalqaro tadqiqotlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish;
- o'qituvchi yetkazishi lozim bo'lgan DTSdan yuqori bilimlar ustida ishlash;
- mustaqil ravishda topshiriqlar ishlay olishga o'rgatish;
- o'qituvchilarni nazariy, metodik-pedagogik jihatdan tayyorlash;
- ilmiy-dunyoviy bilimlarni rivojlantirish hamdir.

O'quvchilarning barkamol bo'lib ulg'ayishida nafaqat ta'lim muassasasida egallashi lozim bo'lgan DTS va o'quv dasturlardagi BKM, kompetensiyalariga, balki o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va mahoratiga ham bog'liqdir.

Bu maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishda trenerlar o'qituvchilarning ustози sifatida yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ijodkor, har bir ishda boshqaruvchi, savodxon bo'lishlari lozim.



Trenerlar xalqaro tadqiqotlarga o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, topshiriqlar tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish, topshiriq va savollarni ham hayotiy shaklda tuzishlari muhim sanaladi.

Trenerlar rejalashtirishda, avvalo, maqsadga erishish vositalarini aniqlab olish; maqsadga erishilganligini kuzatish; nazorat qilishni uyg'un tashkil etishi va metodlarning natijaviyligini ta'minlash; amaliylikka ahamiyat berishi lozim. Trenerlarning o'qituvchilarni ergashtira olishida asosiy mezon bu ishonchdir. O'qituvchilarni, qachonki, ishontira olgan mohir trenerlar orqali o'quv seminarlaridan kozlangan maqsadga to'laqonli erishiladi.

Ta'kidlash joizki, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsad va vazifalar:

o'qituvchilarning xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishlari uchun mazkur yo'nalishdagi tadqiqiy bilimlarini oshirish, ularning ehtiyojlari asosida mashg'ulot shakllarini yaratish, kasbiy salohiyatini rivojlantirish;

o'qituvchilar darslarining natijalarini talqin qilish va maktablarda takomillashtirilgan baholashning ahamiyatini oshirish;


barcha hudud (tuman) lar o'qituvchilari o'rtasida malaka oshirish va o'zaro tajribalar almashish uchun imkon yaratish;

raqamli baholash vositasida, (baholash bo'yicha butun hududlar bo'ylab) tadqiqot muammolarini birgalikda hal qilish;

global kompetensiya kabi innovatsion sohalariga asoslangan XXI asr ko'nikmalarini o'qituvchi va o'quvchilarda rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini ishlab chiqish kabi.

Mashg'ulotning sifati — kelgusi tadqiqotda ishtirok etuvchi o'quvchilarning natijaviyligi bilan baholanadi.


Ta'kidlash joizki, trenerlar o'quv mashg'ulotining asosiy tashkilotchisi sanaladi. Hududlardagi trenerlar tumanlar kesimida o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi. Ular o'qituvchilarning uch bosqichda (nazariy, amaliy, mustaqil ish) bilimlarini oshirish uchun istiqbolli rejalar tuzadilar, ko'rgazmali materiallar tayyorlab, xalqaro baholash dasturlariga mos keluvchi namunaviy topshiriqlar bazasini yaratadilar. Mashg'ulotlarda mavjud matnlar ustida ishlash, hayotiy shakllarga murojaat qilishda o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishni diqqat markazida tutishi muhimdir.



Mustaqil ish jarayonida o'qituvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlashda o'quvchilar o'rgangan bilimlarini maktab hamda maktabdan tashqarida, shuningdek, notanish sharoitlarda qo'llashlari mumkinligini e'tiborga olgan holda, baholash mezonlarini ishlab chiqishlari talab etiladi.

Xalqaro tadqiqotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak,

Jumladan, PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalari qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS — yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan siyosat yutuqlarga ta'sir qilishini o'rganish uchun qimmatli vosita. PISA dasturi 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilar bilimni baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kunga qadar jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015, 2018) testlar o'tkazilgan.



Ushbu dasturda qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchilarni testga tayyorlash emas, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. PISA o'quv dasturining mazmuniga emas, balki zamonaviy dunyoda talab qilinadigan ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratadi. Ba'zilar PISA ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy tafovutlarni hisobga olmaydi, deb aytishadi. Bir mamlakatda takomillashtirish uchun qo'llaniladigan strategiyalar, boshqa mamlakatlarda ham xuddi shunday bo'lmisligi mumkin. O'qish savodxonligi (PISA) — bu akademik muvaffaqiyatning poydevori sanaladi.



Xalqaro tadqiqotlarda Singapurni dunyodagi eng yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Singapur raqobatbardosh iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish qobiliyati bo'yicha ham, matematika va fanni o'rganish tendensiyalari (TIMSS) da, o'qish savodxonligini o'rganish (PIRLS) da yaxshi natijalarga erishgan.

Zero, yurtimizda ta'lim manzarasining yangi tasvirlarini yaratish, ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, bilimlarni chuqurlashtirish va xalqaro baholash usullarini qo'llashda ko'maklashish, global ta'limga o'quvchilar yo'naltirish, barkamol shaxslarni tarbiyalashda rejalarimiz yuqori, asosiysi, rivojlangan davlatlar qatorida, jahon hamjamiyati saflarida yuksak marralar bizni kutmoqda...

Trenerlar uchun ayrim tavsiyalar

Jamiyat misli ko'rilmagan darajada o'zgardi, sanoat rivojlandi, texnologiyalar takomillashdi, aynan, bu o'zgarishlar sababli o'quvchilar ancha ilgarilab ketdi. O'qituvchilar bu "shiddatli to'lqin"da chetda turish, avtoritar shaklda ma'ruza va topshiriq berish bilan dars o'tib bo'lmasligini, hayotiy misollar asosida aynan ko'rsatish va bajartirish asosida ko'nikmalar shakllanadi. O'quvchilarga bugun darslarda mantiqqa asoslangan hayotiy ko'nikmalar nimaligi, uni qanday egallash kerakligi tushuntirilsa, ishlarimizda ijobiy samaralar ko'rinishi shubhasiz. O'quvchilar o'zlarining mazkur tadqiqotlarda qatnashuvi nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglashi muhim. O'quvchilar bunda nafaqat o'z bilimlarini sinab ko'rishadi, balki yurtimiz nufuzini himoya qilishadi. Ammo bu tuyg'uni boshidan kechirmagan, o'z ustida ishlamagan, befarq bo'lgan o'qituvchilar ham yo'q emas. O'qituvchining bir soatlik sifatli va mazmunli darsi o'quvchilar hayotidagi muhim tub burilish bo'lishi mumkinligini unutmaslik zarur. Trenerlar monitoring jarayoni ma'lumotlari yordamida barcha o'qituvchilar faoliyatini qamrab olish va ular faoliyatiga xolisona baho berish bilan birgalikda, aniqlangan ta'limiy bo'shliqlar ustida ishlash choralarini belgilashlari lozim:

o'qituvchilarning ehtiyoji nimada ekanligini o'rganish, ularning sabab va omillarini aniqlash;

bo'shliq aniqlangan o'qituvchilardan muayyan fani bo'yicha qayta topshiriqlar berilib, maqsadli o'quvlar tashkil etish va bilim darajasini ko'tarish;

ishlangan topshiriqlar sifatining mantiqiyligi va mezonga mosligini o'rganish;

malakasi yetarli bo'lmagan o'qituvchilar hamda yosh mutaxassislar uchun tajribali ustoz-murabbiylar biriktirish, amaliy yordam ko'rsatishga erishish mumkin.

Bugungi o'qituvchilar o'z o'quvchilarining ijodiy rivojlanishini



rag'batlantirishda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun ham shaxsiy, ham professional ijodkorlikka ehtiyojlari bor. Shuningdek, ular dars va amaliy jarayonlarni samarali tashkil qilishda ham ko'makka muhtoj. Ular o'zlari o'rgatayotganlarida bilish zarur bo'lgan xalqaro talablar hamda biror narsaga yangicha qarash ko'nikmalarini rivojlantirishga urinayotganlarida aniq tavsiyalar, ko'rsatmalar zarur.

NAZARIY: Nazariy mavzular asosan, o'qish va til qurilishi bo'yicha mavzular qamrab olinganligiga e'tibor berilishi lozim. O'tgan darsning taqdimoti uchun 5 daqiqagacha vaqt ajratib mustahkamlab olish ham dars samarasini oshirishi mumkin.

Nazariy bosqichda trener o'qituvchilarning bo'shliqlari yuzasidan tushuntirishlar ko'rsatmalar zaruriy bilimlarni berish nazarda tutilgan

Misol uchun, dars yakunida 2 daqiqali o'tkazilgan mashg'ulot yuzasidan qaysi murakkab, qaysi tushunarsiz mazmunda 5-6 ta savollardan iborat so'rovnomalar olish ham o'qituvchilar ehtiyojini belgilab beradi. Kelgusi mashg'ulotda bu jihatlarga urg'u berib o'tish muhim sanaladi.

AMALIY ISH: Trenerlar ikki karra mas'uliyatni anglashlari va o'qituvchilar tayyorlashda amaliy jihatga urg'u berishlari tavsiya etiladi. Trener har bir bosqichda har daqiqasini qadrlar ekan, o'qituvchilar ham tabiiy holatda, bunga odatlanadi. Shuning uchun matn tanlashga vaqt ko'p yo'qotmasligini boshida uqtirib o'tishi shart.

Asosiy vazifalari:

matnlar tanlash, topshiriqlar yaratish uchun o'qituvchilarga badiiy, ilmiy adabiyotlar, maxsus saytlar, elektron manbalar havolasini taqdim etadi;

ular matnlarni tanlashlari, turli formatlarda topshiriqlar ishlashi va qiyosiy tahlil qilib chiqishlari, o'rganlariga mos bo'lishi tushuntiriladi;

matnlar tanlashda topshiriq ishlashga mo'ljallangan bo'lishiga e'tibor qaratish muhimligi tushuntiriladi;

Matn tanlashda aynan topshiriq mavzusida bo'lishi muhim emas, balki tanlangan matn mazmunida shu mavzular (yaqinroq) bo'lishi kifoya;

mashg'ulotning oxirlarida ish unumi yakunini hisobga olgan holda, bir nafari o'qituvchining ijodiy ishlarini taqdimotini qilishga ulgurishi qolgan o'qituvchilar ishining sifatli bo'lishiga olib keladi. O'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishga, turli ko'rsatmalar berishga, asosiysi, bu mashg'ulotlarning maqsadi o'quvchilarni birgalikda shunday o'qish, talqin qilish va qarorni to'g'ri chiqarishga o'rgatishdan iborat ekanligini eslatib o'tishi lozim. Haqiqatdan ham, o'qituvchilar bunday amaliy jarayonlarda o'zlaridagi bo'shliq va kamchiliklarni anglashadi va buning

ustida ishlashga yo'naltirish, o'qituvchilar orqaligina joylarga yetkazish va buning ustida ishlash muhimligini anglatish trenerning vazifasidir.

MUSTAQIL ISH: Mashg'ulot yakunida umumiy muhokamalar uyushtirishga muomala bilan inson o'z maqsadiga erishish mumkinligi tushuntiriladi.

O'qituvchilarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mashg'ulotda o'rganganlari asosida o'zlari belgilangan mavzu bo'yicha topshiriq tayyorlashlari kerak;

topshiriq tayyorlash uchun birinchi ishni matn tanlashdan boshlash lozim;

matnning topshiriqlar chiqara olish statistik ma'lumotlarga boyligi, turli jadval va diagrammalar tuzish mumkinligi, mantiqqa asoslanganligi hamda xulosalanganligiga ahamiyat qaratish lozim;

matn mazmunidan kelib chiqilgan holda, topshiriqlar turi, shakli va formatiga qarab uzviyligi soddadan murakkabligi bo'yicha matn ichidan tayyorlaydi.

Trener mustaqil ish jarayonida asosan, ko'maklashuvchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Qo'llanmada berilgan matnlar namunaviy bo'lib, o'qituvchilar muomala odobiga xos matn tanlashi mumkin. Bu mavzuning tanlanishidan maqsad, bugungi o'quvchilarimizga nutqda ham odob qoidalari, muomala madaniyatining inson hayotida muhimligini anglatishdir. O'qituvchilar bu topshiriq ustida ishlashi pirovardida o'quvchisiga yetkazadi va tushuntiradi. Trenerlar bu mashg'ulotlarida maktablarda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni asosiy talablardan biri, deb qarashlari lozim. Buyuk olim Pifagorning "Avval senga yaqin joydagi narsalarni o'rganishga harakat qil, so'ngra sening nigohingdan uzoqdagilarni", degan so'zlariga muvofiq, imkoniyat darajasidagi matnni tanlash va shunga mos topshiriqlar ustida ishlash ham o'quvchilarda ko'nikmalar shakllantirishga olib keladi.

Ta'lim tizimida tatbiq etilayotgan o'quv dasturlarimizda ham shu jihatlarga alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, bilimlarni nazariy o'rganish emas, balki o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llay oladigan, hayotimizga tezkor kirib kelayotgan ma'lumotlardan o'rinli foydalanadigan, bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradigan komil shaxsni tarbiyalashdan iborat. Zero, buyuk o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ta'kidlab o'tganidek, "amaliy hayot bilan uzviy bog'lanmagan ta'limning safsatadan farqi yo'qtur..."

Ta'kidlash joizki, o'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar intellektualini oshiruvchi innovatsion metodlardan foydalanish, bo'shliqlarini to'ldirishga (fikrlash aqliy faoliyat, qiziqish, munosabat, xulq-atvorning tashqi shakllari) e'tibor qaratishi zarur. Bu ishlarimiz zamirida pedagoglarimiz o'quvchilarni xalqaro tanlovlarga tayyorlash maqsadidan ham yuqori maqsadlar turganligini



anglasalargina kundalik hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga erishadi. Demak, o'qituvchilar mahoratini oshirishga kirishgan trenerlarning salohiyati har qachongidan yuqori bo'lishiga ishonamiz.

O'qituvchilarning mashg'ulot jarayonlarida yaratilgan namunaviy test va topshiriqlarini amalda qo'llash pirovardida texnika asrida o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va ma'naviy-axloqiy, madaniy, mediasavodxonlik va ijodkorlik hamda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Xulosa shuki, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi ushbu xalqaro dasturda yuqori natijalarga erishish — rivojlangan davlatlar qatorida ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarda egallagan o'rni, xalqaro dasturlarga mosligi va yoshlarning jahon bilan bo'ylasha oladigan salohiyati borligiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. A.A.Ismailov, G.O.Tog'ayeva va bosh. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash", metodik qo'llanma, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2019-y
2. A.A.Ismailov, X.J.Daminov va bosh. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma" Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2020-yil (1-son,2-son)
3. Liston C. Managing quality and standards. - UK: Open University Press, 1999.
4. Ishmuhammedov R.J. va b.q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.: 2008.
5. <http://markaz.tdi.uz> (Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb sayti)
6. www.centeroko.ru (Rossiya Fanlar Akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti Ta'lim sifatini baholash markazi)
7. [www.oecd.org.pisa](http://www.oecd.org/pisa) (O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi veb sayti)
8. www.timssandpirls.bc.edu (TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot bo'yicha veb sayt)



TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**ELEKTRON O'QUV KURSLARNI ISHLAB CHIQISHDAGI
TALAB VA TAVSIYALAR**

Sherzod KARIMOV,

Respublika ta'lim markazi metodisti



Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quv jarayonlari uchun elektron-o'quv kurslarni ishlab chiqilishidagi talablar keltirilgan, turli elektron-o'quv kurslari haqida ma'lumotlar berilgan va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim texnologiya, pedagogik dizayn, ADDIE, kurs elementi, onlayn kontent.

Bugungi ta'lim islohotlari davrida barcha sohalari bo'lgani kabi yurtimizda ta'limning so'nggi ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarining tashkil etilishi bu borada, maqsadli ahamiyat kasb etgani muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim jarayonlarida ochiq ta'lim platformalarida mavjud, muayyan elektron-o'quv kurslar ta'lim sektorida raqamli ta'lim texnologiyalari rivojlanishida bir namuna sifatida baholanishi bilan ajralib turadi.

Shuni alohida aytish lozimki, elektron ta'lim platformalarida yaratilgan onlayn kurslarining ishlab chiqilishidan tortib, uni o'quv mashg'ulotda joriy etilguniga qadar bo'lgan davrda onlayn kurslarning yaratuvchisi o'quv kontent yaratilish metodologiyasi va o'qitish yondashuvlari asosida masofaviy ta'lim kurslarni yaratish vazifasi turadi.

Bu jarayonda quyidagi talab va tavsiyalar taqdim etiladi:

I. Onlayn kurs tasnifi:

Kurs quyidagi elementlardan tashkil topgan:

1. O'quv kurs indetifikatori
2. O'quv kurs shakli
3. O'quv kurs nomi
4. O'quv kursning umumiy mukammalligi, kurs haftalar soni, o'quv yuklama
5. O'quv kurs ishlab chiquvchi shaxs va universitet nomi
6. O'quv kursning to'liq va qisqa nomi
7. O'quv kurs mualliflari

8. O'quv kursning asosiy ilovasi
9. O'quv kursning promo videosi
10. O'quv kursning to'liq va qisqacha annotatsiyasi
11. O'quv kurs natijalari xaritasi
12. O'quv kursning tamomlaganligini tasdiqlovchi sertifikat to'g'risidagi ma'lumot, baholash tizimining tavsifi, shu jumladan, o'quv kurs mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi baholashning juz'iy (специфические показатели) ko'rsatkichlari, hamda baholash tartibi
13. O'quv kurs natijasini tan oladigan ta'lim dasturi

II. Onlayn o'quv kurs annotatsiyasi:

O'quv kurs annotatsiyasi to'g'risida so'z yuritganda, kursning quyidagi mazmuni taqdim etilishi lozim:

1. O'quv kursning maqsadi haqida ma'lumot
2. O'quv kursda qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida ma'lumot
3. O'quv kursdan kutilayotgan natija
4. O'quv kurs tarkibiga videoma'ruza, so'rovnomalar va boshqalarni qamrab olish
5. Kurs tinglovchisi tomonidan haftalik ta'lim olish o'quv yuklamasi
6. O'quv kurs mundarija va strukturasi: *mavzular ro'yxati, ta'lim axborot resurslari, qo'shimcha ta'lim vositalari*

III. O'quv kurs muallifiga qo'yiladigan talablar:

1. O'quv kurs muallifning to'liq ismi-sharifi
2. Ish joyi
3. Lavoziimi
4. Ilmiy daraja va unvoni

O'quv kursning har bir muallifiga 1:11 o'lchamda bo'lgan 600x600 hajmdagi rasm, shu bilan birga, mazkur rasmning umumiy maydoni 60 foizini shaxsning yuzi aks ettirilgani talab etiladi. Tavsiya sifatida 4:3 o'lchamdagi, 400x300 hajmidagi, ikkinchi rasm tayyolanishi tavsiya etiladi.

IV. Onlayn kurs tuzilmasi

Talablar:

- yaratilayotgan onlayn kurs mavzulari nomi, bo'lim, sahifa hamda komponentlardan tashkil topadi.



- o'quv kurs haftalarga ajratilgan holda rejalashtirilishi, shuningdek, modullar esa o'quv kurs materiallar asosida shakllantiriladi.

- har bir haftaning o'quv materiali bo'lim va modullarga ajratiladi.
- har bir modul bir yoki bir necha sahifaga bo'linishini o'z ichiga oladi.
- har bir sahifada kamida birgina komponent qamrab olinadi.

Tavsiyalar:

- taqdim etilayotgan onlayn o'quv kursning har bir bo'limi muayyan biron natijaga erishishini ta'minlashi;

- muayyan haftaga bo'lingan o'quv kontent moduli natijalarini baholaydigan alohida parametriga ega bo'lishi, shuning qatorida, hafta mobaynida o'quv modulning baholash kategoriyasi mavjud bo'lmasa, aks holda o'quv kurs moduli natijalari keyingi mavzu doirasiga yo'naltirilgan baholash kategoriyalarida namoyon bo'lishi;

- har bir onlayn kursda mavjud modulda talabalar o'rtasida o'zaro ta'sir kuchini ta'minlaydigan komponentdan tashkil topishi.

V. Onlayn kursning metodologik talablari:

Talablar:

1. Yaratilayotgan elektron o'quv kurs natijalari davlat ta'lim standardiga mos holda bog'liq bo'lishi talab etiladi. Kursning davomiyligi 10 dan 16 haftagacha uzaytirilishi mumkin. Kurs tinglovchisining mustaqil ta'lim olish faoliyati 22 soatdan oshmasligi zarur. Bunda, o'z navbatida, o'quv kurs natijalariga ega bo'lishi sharti bilan ta'lim oluvchi shaxsning o'quv faoliyati kamaytirilishiga erishish uchun turli o'quv-uslubiy yondashuvlar, o'quv kurs tuzilmasi optimallashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Onlayn kursning yaratilishida kursni yaratgan shaxs tomonidan qo'llaniladigan o'quv kurs davomida metodik yondashuv va vositalar yordamida kurs tinglovchisini jalb qilish orqali onlayn kurs auditoriyasini kengaytirishiga xizmat qiladi. Bu esa o'quv kursning qo'llab-quvvatlanishi ta'minlanib, talaba tomonidan mustaqil tarzda o'qituvchining ishtirokisiz bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Foydalanayotgan ta'lim texnologiyalari ta'lim subyekti ta'lim oluvchining sinxron tarzda tashkillashtirilayotgan tadbirlarda ishtirokini ta'minlanmasligi hamda talabaning istalgan hudud yoki makonda bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil ta'lim olish va natijaga ega bo'lishi imkoniyatini talab etiladi.

4. O'quv kurs davomida kurs tinglovchisi tomonidan bajaralishi lozim bo'lgan barcha turdagi o'quv vazifalarni bajarish va o'quv moduliga joylashtirilishi kerak bo'lgan o'quv axborot materiallarni qamrab olishi zarur va shu bilan birga talaba tomonidan muayyan natijaga erishishi ko'zda tutilishi lozim.


Tavsiyalar:

- a. Yaratilgan o'quv kontentda mustaqil ta'lim olish mobaynida o'zaro hamkorlikda topshiriqlarni bajarish yoki baholash imkoniyatining ta'minlanishi;
- b. Talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda muayyan onlayn kursni shakllantirish jarayonida ishtiroki etishi;
- c. O'quv mashg'ulot davrida o'yin texnologiyasi orqali ta'lim berishda talabaning muntazam ta'lim faoliyatiga qiziqishini oshirishi;
- d. Kurs tinglovchining o'quv kursdagi faolligini kurs so'ngida inobatga olish.

Shuningdek, elektron ta'lim kurslarning yaratilishida alohida ahamiyat kasb etadigan muhim bir narsa - Pedagogik Dizayn hisoblanadi. Aynan pedagogik dizayn asosida yaratilayotgan onlayn kurslar bugungi kunda masofaviy ta'lim kurslarni yaratuvchi shaxsning pedagogik yondashuvlaridan kelib chiqqan holda mahoratiga bog'liqdir. Avvalo, pedagogik dizayn nima ekanligiga oydinlik kiritish lozim.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida Pedagogik Dizayn – *ing: Instructional Design* tushunchasi sifatli bilimlarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shu jumladan, elektron kurslarni yaratishda an'anaviy ta'lim uslublardan foydalanishni kamaytirgan holda, pedagogik dizayn tushunchasi paydo bo'ldi. Yaratilayotgan onlayn kurslar: (*loyihalash dizaynlashtirish, rivojlantirish, joriylashtirish hamda baholash*) 5 ta bosqich asosida onlayn kurslar shakllantiriladi.

Ushbu atama, ya'ni pedagogik dizayn tamoyili to'g'risida so'z yuritilganda, avvalambor, yaratilayotgan o'quv kursning yuqori sifatli va tizimli rivojlantirishdagi asosiy vazifasi bilim oluvchiga o'quv kontentdan foydalanishi davrida o'quv axborot ma'lumotlarning to'liq shaklda yetkazilishini ta'minlash tushuniladi. Bu muhim bo'lmagan, bir fakt sifatida baholanib, eng muhim vazifa taqdim etilgan o'quv kursdagi bilimlarni o'quv-seminar mashg'ulotlarida qo'llashni nazarda tutadi. Bu borada, amerikalik ilmiy tadqiqotchi Roberto Mills Gagnening 8 ta tamoyiliga asoslanadi.



1-rasm. Roberto Mills Gagne modeli

1. E'tiborni jalb qilish
2. O'qitishning maqsad va vazifasini tushuntirish
3. Yangi o'quv materialini taqdim etish
4. Ta'lim jarayonida bilimni mustahkamlash
5. Amaliyot
6. Qayta aloqa
7. Baholash
8. Amaliy jarayonga tadbiq etish

1. E'tiborni jalb qilish - ta'lim jarayonida bilim oluvchilarning o'quv mashg'ulotiga qiziqishini oshirish hamda rag'batlantirish

2. O'qitishning maqsad va vazifasini tushuntirish - bunda o'quv mashg'uloti davomida muammoli vaziyatlarga javob beribgina qolmay, balki, kutilyotgan natijalarga muayyan ta'lim jarayoni asosida erishishni nazarda tutish

3. Yangi o'quv materialini taqdim etish - o'quv jarayonining murakkab qismi hisoblanib, har qanday yangi o'quv materiallarini tanlab idrok etish inson psixikasiga xosdir va bu ta'lim oluvchining har qanday yangi o'quv axborot

ma'lumotlarini o'zlashtirishi, shuningdek, o'quv axborotidagi asosiy fikrni anglashga yordam beruvchi omillarni bilish kerakligini anglatish

4. Ta'lim jarayonida bilimni mustahkamlash - o'quv mashg'ulot jarayonlarida bilim oluvchiga taqdim etilgan o'quv axborotni uzoq muddatga mo'ljallangan davrgacha xotirada saqlash ko'nikmasini hosil qilish

5. O'quv amaliyoti jarayoni - eng so'nggi bilimlarning o'quv amaliyoti jarayonlariga tez sur'atlarda joriy etilishini ta'minlash yoki ta'lim mashg'ulotida mavjud nazariy bilimlar muayyan tajribalar asosida tasdiqlash

6. Qayta aloqa - tanlangan o'quv-metodika hamda uning baholash samaradorligi tizimli tahlilsiz amalga oshirilmaydi. Shu maqsadda, o'quv kursning yaratilishi mobaynida moslashuvchan tizim ishlab chiqish

7. Baholash - yaratilgan o'quv kursning umumiy samaradorligini baholash. Bu tamoyilda maqsadli o'quv auditoriya va uning imkoniyatlarini tahlil qilish natijalariga asoslangan holda ko'rsatib o'tish

8. Amaliy jarayonga tadbiq etish - Ta'lim jarayonida bilim oluvchi tomonidan o'zlashtirilgan o'quv axborotning xotirada saqlab qolishida hamda to'g'ri qo'llashida yordam beradi. Bu tamoyil beshinchi bosqichda ta'kidlangan tamoyil mazmunidan farqli o'laroq, ta'lim amaliyotida tatbiq qilinishi nuqtayi nazaridan muhim vazifa sifatida baholash

Pedagogik dizaynda o'quv axborot materiallar, loyihalash jarayoni ko'p jihatdan dasturlash, logistika va amaliy psixologiya sohalari bilan o'xshashdir. Shu qatorda, bu o'xshashlik jihatidan tizimli belgilangan tartibda, guruhlashtirilgan hamda bir nechta bosqichlarga ajratilgan holda, o'z oldiga muhim vazifalarni belgilaydi. O'quv materialning yaratilishida 5 ta muhim bosqichni qamrab oluvchi model - ADDIE (*Analysis, Design, Development Implementation, Evaluation*) modellaridan foydalaniladi:

Analysis - (*Tahlil*) - shakllantirilayotgan biron-bir o'quv kurs rivojlantirilishida kursning muhim hisoblangan elementlari belgilanadi, talaba ehtiyojlari inobatga olingan holda, o'qituvchining vazifalari ko'rsatilib o'tiladi. O'quv kurs maqsadi aniqlanib shakllantiriladi, shu bilan birga, kurs auditoriyasi va ular bilan ishlash formatlari tizimli ravishda baholanadi. So'nggi bosqichda kutilgan natijalar ro'yxati tuziladi.



2-rasm. ADDIE modeli

O'quv kurs samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta bosqichlarga ajratilgan holda vazifalarni aniq shakllantirishga yordam beradi. Tizimli ishlab chiqilgan maqsad va vazifalar onlayn o'quv kurs vositalari, interfaol elementlari bilan boyitilishi o'quv-axborot materiallarining mukammal yaratilish imkonini taqdim etadi. Bunda o'quv kursning baholash mezonlarini aniq belgilab olish zarur.

Onlayn o'quv kursdan kutilayotgan natijalarni aniqlashtirish orqali o'quv kursda yaratilayotgan topshiriqlar mazmuni, nazorat test savollari, boshlang'ich hamda yakuniy nazorat topshiriqlarini talabaga qanday shaklda taqdim etish jarayoni tahlil qilinadi. O'quv kurs maqsadi va kutilayotgan natijalarini belgilab olinganidan so'ng, onlayn ta'lim kursi uchun o'quv axborot materiallarini shakllantirish vazifasi ko'rib chiqiladi.

Design - (Loyihalash) - modelning bu bosqichida tahlil bosqichida nazarda tutilgan barcha xulosalarni hisobga olgan holda, ta'lim tizimi uchun yaratilayotgan barcha o'quv kurslarning materiali, ish rejasi, hamda tuzilmasini ishlab chiqish, o'quv kursi uchun tayyorlangan kursning asosiy interfeys dizayni, test savollari va topshiriqlar ko'lam, baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlari loyihalashtiriladi:

1. O'quv vositani tanlash. Birinchi navbatda, bu tarkibda o'quv materiallarining maqsadli auditoriyasi, o'qitish shakllari, talabaga o'quv axborotining mazmun

jihatidan taqdim etish uslublarini tahlil etish orqali ish jarayon amalga oshiriladi. Ikkinchi vazifa sifatida esa o'quv kurs uchun mos axborot materiallarini o'zlashtirish undagi vazifa topshiriqlarni bajarilishini ta'minlash maqsadida bilim va ko'nikmalar aniqlashtirib olinadi.

2. O'quv kurs ssenariysini yaratish. Ushbu parametrlarning asosiy tomoni o'quv-axborot materiallarini talabaga qanday shaklda taqdim etilishini loyihalash hamda tasdiqlash orqali o'quv materialining har bir elementi o'quv-axborot ma'lumotlarining qay darajada o'quv kursi uchun ishlab chiqilganini baholaydi.

3. O'quv-axborot materiali namunalarini tayyorlash. O'quv kurs uchun mos bo'lgan turli xil formatdagi materiallar, ya'ni tasvirlar, animatsion effektlar hamda interfaol elementlar yordamida audio va videoaxborot namunalari tayyorlanadi. Shu namunalar orqali o'quv kursida uchrashi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlab, o'quv kurs ssenariysiga o'zgaritirish va qo'shimchalar kiritishga imkoniyat yaratiladi.

4. Kurs o'quv materiallarini baholash va takomillashtirish vazifalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan, masofaviy o'quv kursi uchun tayyorlangan ma'ruza matnlari va boshqa o'quv-axborot materiallarini qayta ko'rib chiqilishi Design - (*Loyihalash*) bosqichidagi eng samarali modellash orqali amalga oshiriladigan parametrlar hisoblanadi.

Yaratilgan o'quv kursini baholashda ko'zga tashlanadigan muammo va yutuqlar tajribali pedagog-o'qituvchilar jamoasidan tarkibidan tashkil topgan guruh tomonidan aniqlanadi.

5. O'quv materialini mustahkamlash va rivojlantirish. Onlayn o'quv kurslarini yaratish va o'quv amaliy jarayonlarga tadbiq etilishida yuzaga keladigan texnik muammo va kamchiliklarga barham berish, shu bilan birga o'quv kontent uchun yangi onlayn kurslarni shakllantirish va ularda har bir o'quv modulida talabaga muayyan sohaga doir ma'ruza, o'quv-axborot majmualari, turli xil shakldagi qo'shimcha ma'lumot va o'quv adabiyot namunalarini tayyorlash yo'li orqali muayyan elektron ta'lim platformasida maxsus o'quv kurslarni tashkillashtirish hamda ta'lim amaliy jarayonlarida joriy etish masalasiga e'tibor qaratish muhim vazifa sifatida qaraladi.

Development - (*Rivojlantirish*) - har qanday o'quv kursini loyihalash jarayonida talabaga taqdim etilayotgan barcha turdagi o'quv adabiyoti, ma'ruzalar kursning texnik tomonidan uzviy aloqa o'rnatish orqali talabaga o'quv axborotini yetkazish uslublari yordamida o'quv kursining interfaol elementlarini taqdim qilish kabi sozlash jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur bosqichda o'quv kursi tinglovchilariga turli mazmundagi topshiriqlar saralanadi, mustaqil mavzu



va test savollari orasidagi kontent interfeys aloqasi mustahkamlanadi. Bu esa onlayn kurs samaradorligiga erishish maqsadida test savol-topshiriq va amaliy laboratoriya ishlari natijalarini umumlashtirish uchun xizmat qiluvchi vositalarni aniqlab olishda zarur vazifa hisoblanadi. Aynan rivojlantirish bosqichida o'quv kurs yaratuvchi shaxs tomonidan talabaga biror-bir kursni taqdim etishdan avval kurs yaratilishida ijodiy moslashuvchanlik talab etiladi.

Implementation - (*Joriy qilish*) - o'quv kursining joriy etilishida masofadan turib muayyan ta'lim jarayonlarini boshqarish orqali o'quv kursiga tegishli axborot materiallari, ma'ruzalari, qo'shimcha adabiyotlar yuklangan holda talaba muayyan bir vaqtda masofadan turib, o'quv kursida mustaqil ta'lim olishi mumkin bo'ladi. Bu jarayon ahamiyatsizlik darajasi sifatida namoyon bo'lishi tabiiy, lekin talabaga taqdim etilayotgan o'quv materialini tayyorlashda aynan talaba tomonidan foydalanilayotgan onlayn kurs ma'ruza va o'quv adabiyotlariga baho berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali talaba tomonidan o'quv kurs materiallariga berilgan baho orqali kurs yaratuvchi shaxs o'quv kontenti uchun tayyorlangan o'quv-axborot materiallarining qay darajada ekanligi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotga ega bo'lish mumkin, shu bilan birga, axborot materiallarni qayta ko'rib tahlil imkoniyatini taqdim etadi.

Evaluation - (*Baholash*) - muayyan o'quv kursini joriy qilish to'g'risidagi ilk ma'lumotlar umumlashtirilgandan so'ng, taqdim etilgan o'quv kursining samaradorlik darajasi baholanadi.

Pedagogik dizaynidagi birinchi Tahlil bosqichi oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda o'quv amaliyotida erishilgan natijalar bilan bog'lash lozim. Chunki, o'quv kontent tahlili yordamida kurs yaratuvchi tomonidan o'quv kursiga yuklangan axborot materiallari, ma'ruza matnlari tegishli baholash mezonlari asosida baholanadi.

O'quv kursidan kutilgan natijalar o'z navbatida:

□ talaba tomonidan kurs o'quv materiallarining o'zlashtirilganlik darajasiga tayangan holda, yaratilgan o'quv kursi umumiy baholanadi.

□ texnik tomonidan ma'ruza va kurs uchun saralangan o'quv-axborot ma'lumoti va adabiyotlar yuklanganligi bilan bog'liq sozlash jarayonlari pedagogik dizaynning ushbu bosqichida bayon qilinadi.

□ O'quv kurs metodisti, mutaxassis va malakali pedagog o'qituvchilar jamoasidan tarkib topgan guruh tomonidan taqdim qilingan o'quv kursini baholash mezonlari asosida qayta ko'rib chiqilishi talab etiladi

□ O'quv kursining yangilangan so'nggi versiyasini yaratish orqali barcha amaliy ishlar yakunlanadi.

Xulosa o'rnida, ta'lim jarayonida talabalar ehtiyoji va maqsadlarini o'rgangan holda, o'quv kursiga jalb qilish yo'li orqali o'quv axborotlar yetkaza bera olish maqsadga muvofiqdir. Bugungi o'quv amaliyotida elektron o'quv kurslarini yaratishda pedagogik mahoratga tayangan holda, o'quv kurs dizayn shakllantirilib, zamonaviy ta'lim tizimida yangi konsepsiya yondashuvi sifatida baholanadi. Bunday konsepsiya asosida kurs ishtirokchisiga o'quv reja, o'quv kurs dasturlari, ta'lim jarayonlarini ma'ruza matnlar, qo'shimcha adabiyotlar, vazifa va topshiriqlar orqali boshqarishga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Требования и рекомендации по разработке онлайн-курсов, публикуемых на национальной платформе открытого образования, Совета Министерства образования и науки Российской Федерации по открытому образованию, 2015
2. <https://svetak.ru/>
3. <https://www.ispring.ru/>
4. <https://educationaltechnology.net/>



TA'LIMDA MENEJMENT



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

**RBM (RESULT BASED MANAGEMENT) TAMOYILLARINING
MAZMUN-MOHİYATI VA XUSUSIYATLARI**

To'liqin XALILOV,

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi*



Annotatsiya.

Maqola RBM – result based management (natijalarga asoslangan boshqaruv) boshqaruvning keng qamrovli yondashuvi ekanligi va uning asosiy maqsadi natijalarga qaratilganligiga bag'ishlangan. Maqolada RBM - jarayon, loyihalar va dasturlarning haqiqiy ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlariga e'tibor qaratadigan ish uslubi ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Results-based management (RBM), loyiha, sirkulyatsiya, islohot, jarayon, faoliyat, natija, strategiya.*

Статья посвящена RBM -“Result Based Management” - менеджменту, ориентированному на результат, который представляет собой комплексный подход к управлению и его основная цель ориентирована на результат. В статье объясняется, что RBM - это способ работы, который фокусируется на реальных социальных и экономических выгодах проектов и программ.

Ключевые слова: *управление на основе результатов (RBM), проект, признательность, процесс, деятельность, результаты, стратегия.*

The article RBM – result based management is devoted to the comprehensive control of management and the achievement of its personal goals. The article explains that focuses on the real social and economic interests of processes, projects and programs.


Keywords: *results-based management (RBM), project, appreciation, process, activities, results, strategy.*

Results-Based Management - natijalarga asoslangan menejment tizimi, ya'ni aniq natijalarga erishish uchun barcha harakatlarni va resurslardan foydalanishni anglatadi. Bu atama 1990-yillardan boshlab keng miqyosda ishlatilishni boshlagan. RBM shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi, bu esa aralashuvlarni bir-birini to'ldirishga, shuningdek, bir-birini takrorlash va isrofgarchiliklardan saqlanishga imkon beradi.

RBMda o'zaro bog'liq uchta jarayon mavjud: ya'ni yaxshi rejalashtirish, monitoring qilish va baholash.

RBM sirkulyatsiyasi. Bu jarayon siklini ko'rsatadi: rejalashtiradi, monitoring va baholash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tasvirlaydi.

So'nggi yillarda RBM bo'yicha olib borilgan xorijiy tadqiqotlar haqida bo'lsak, Kanadaning Monreal shahrida joylashgan Cybermatic International universiteti tadqiqotchisi Bongs Lainjo tomonidan e'lon qilingan "Result based management (RBM): an antidote to program managment" nomli tadqiqot ishida RBMning foydali tomonlari, boshqaruv sohasidagi imkoniyatlari tasvirlangan



Manba. UNDP, Handbook on Planning, Monitoring and Evaluating for Development Results, 2009.

Shuningdek, barcha tadqiqotlarda ham RBMning foydali taraflari yoritilmagan, ba'zi bir tadqiqotlarda RBMning kamchiliklari ham o'rganilgan va tahlil qilingan.

RBM ning amalga oshirish jarayoni yana ham aniqroq tushunish uchun quyidagi ketma-ketlikni ko'rib o'tamiz:



Endi yuqoridagi ketma-ketlik bo'yicha jarayonni tahlil qilib chiqamiz.

- **Vaziyatni baholash** - *Hozirgi vaziyat qanaqa?*
- **Sababni qidirish** – *Sabab nimada? Kim jalb qilingan?*
- **Yechimni tasavvur qilish** – *Muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak?*
- **Reja tuzish** – *Muammo kim bilan, qachon, qaysi resurslar orqali hal qilinadi?*
- **Bajarish** – *Vazifa bajarildi. Jarayon qanday ketyapti?*
- **Qayta ko'rib chiqish** – *Nima yaxshi/yomon bajarildi? Keyingi safarga nimalar o'rganildi?*

Yaxshi rejalashtirish resurslarni taqsimlash va keyinchalik amalga oshirish maqsadida muhim natijalarga qaratishga yordam beradi va samarali natijalarga erishishdagi yutuqlarni baholashga va kelajakdagi tashabbuslarning rivojlanish ta'siriga yaxshiroq hissa qo'shishini ta'minlash uchun o'tmishdan o'rganishga yordam beradi.

RBM ni “maqsadli boshqaruv strategiyasi” deb ta'riflash mumkin, chunki davlat va xususiy sektor subyektlari (institutlar, agentliklar, loyihalar, rejalar) faoliyatida sezilarli o'zgarishlarga erishishga qaratilgan. Uning asosiy vazifasi - ish faoliyatini yaxshilashdir (ya'ni yaxshiroq natijalarga erishish maqsadida).

RBM ma'lumotlariga ko'ra, loyihani amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarish omillari (moliyaviy va kadrlar) ishlatiladi, bu esa qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda turli natijalarning paydo bo'lishiga olib keladi. RBMga muvofiq, kutilayotgan natijalar va potensial xavflar loyihani tayyorlash bosqichida aniq belgilanadi va bu jarayonning muhim xususiyati barcha manfaatdor tomonlarning ishtirok etishidir.

RBMdan samarali foydalanishning tamoyillari:

- Manfaatdor tomonlar tomonidan yondashuv mohiyatini tushunishda farqlar, yondashuvni adekvat ishlatish yo'lida muhim to'siq bo'lishi mumkin. RBMdan samarali foydalanish barcha manfaatdor tomonlardan yondashuvni idrok etish, uni amalda qo'llash va, eng muhimi, RBMga sodiqlik borasida o'zaro tushunishga erishishni talab qiladi.

- barcha manfaatdor tomonlar RBM doirasida natijalarga yo'naltirishni to'liq tushunishlari zarur. Ko'pincha manfaatdor tomonlar, ayniqsa, loyihani amalga oshirishda bevosita ishtirok etadiganlar, RBMni resurslar va ish faoliyatini boshqarish bilan almashtiradilar.

- Loyiha taraflaridan biri rivojlanayotgan mamlakatlardan sherik bo'lgan taqdirda, uning to'liq ishtiroki va RBMga to'liq majburiyati talab qilinadi. RBMni bir tomonlama qo'llash kutilgan natijani bermasligi aniq.

- Loyihani boshqarish jarayoniga barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilishni ta'minlash eng qiyin vazifalardan biri hisoblanadi. Kutilgan natijalar barcha manfaatdor shaxslar tomonidan tegishli deb baholanishi, shuningdek, xarajatlarni taqsimlash va harakatlar yo'nalishi yetarli deb hisoblanishi kerak.

- Loyihaning samaradorligini o'lchash uchun ko'pincha soddalashtirilgan ko'rsatkichlar tanlanadi. Shu bilan birga, resurslar va vaqtning yetishmasligi, resurslar va energiya xarajatlari va ishlash o'rtasidagi bog'liqlikni real baholashga imkon bermaydi va shunga mos ravishda loyihani boshqarish uchun kerakli ma'lumotlarni bermaydigan, ahamiyatsiz ko'rsatkichlardan foydalanishning sababi bo'lmasligi kerak.

- RBM ijro etuvchi organining loyihani amalga oshirishga bo'lgan majburiyati, xususan, tegishli rag'batlantirish va salbiy oqibatlarining mavjudligi bilan belgilanadi.

- RBM uzluksiz o'rganishni nazarda tutadi, loyihani amalga oshirish davomida to'plangan monitoring ma'lumotlari uzluksiz ta'lim uchun ishlatilishi kerak.

Ta'lim tizimida RBMdan foydalanish ta'lim jarayonlarini izchil tashkil qilish, ta'lim muassalarida boshqaruvning sifatli tashkil qilinishi, tashkil qilingan boshqaruv va monitoring orqali ta'lim muassasida sifat ko'rsatkichlarining



oshishiga olib keladi. Ta'lim tizimida to'g'ri yondashuvlarga asoslangan boshqaruvning joriy etilishi ta'lim jarayonidagi muammolarni samarali hal qilishga, xodimlarga yuklatilgan vazifalar miqdorini teng taqsimlashga, ta'lim jarayonidagi sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarining oshishiga sabab bo'ladi. Bu orqali jamoada o'zaro ishonch, hamjihatlik, kasbga bo'lgan mas'uliyat ham oshadi. Ta'lim menejmentida eng asosiy vazifa bu – o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona va jamiyat bilan ishlashdir. RBM – natijaga asoslangan boshqaruv ma'muriy buyruqbozlik xususiyatlaridan xoli bo'lib, mavjud muammoning tub ildizlarini o'rganish, unga yechimlar taklif qilish orqali menejmentni amalga oshirishi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rivojlanish natijalarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bo'yicha qo'llanma UNPD, 2009 y.
2. Abduxamidov S. Ta'lim menejmentining funksiyalari va bugungi kundagi o'rni. "Science and Education" Scientific Journal. May 2021 / Volume 2 Special Issue 1.
3. Rabindra Nath Bhattarai. Basic Concepts and Approaches of Results Based Management. Journal of Population and Development, June 2020
4. Bongs Lainjo. Results Based Management (RBM): An antidote to program managemen. DOI:10.20474/jabs-5.1.5. 2019.
5. Results-based management handbook. United nations development group, 2011.
6. UNESCO Results-Based Programming, Management and Monitoring (RBM) Guiding Principles, UNESCO Paris, Bureau of Strategic Planning, January 2008.
7. Handbook. Project / programme management: The results-based approach. Publication Ref. 0951. Retrieved 24 March 2017.



XALQ TA'LIMI STATISTIKASI



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

O'QITUVCHILARGA BO'LGAN EHTIYOJLARNI O'RGANISH ASOSIDA PEDAGOG KADRLAR BUYURTMASINI SHAKLLANTIRISH – KELAJAK POYDEVORI

Abdumalik IBRAGIMOV

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim mudiri*

Ikrom MURADOV

*A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi*



Annotatsiya

Ushbu muammoli mavzuda o'qituvchilar uchun o'quv, ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda mamlakatimiz uchun ham, umuman jahon hamjamiyati uchun ham katta qiziqish uyg'otayotgan ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog xodimlarni tayyorlash va ular bilan samarali ishlash tufayli yuqori pedagogik ta'lim jarayonlariga erishgan mamlakatlarning tajribasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *pedagog kadr, sivilizatsiya, o'qituvchi, standartlar, ta'lim dasturlari, strategiya, tizim, tarkibiy o'zgarishlar, dolzarblik.*

При определении перспектив развития системы образовательной, социальной и профессиональной поддержки учителей по данной проблемной теме, в связи с изучением потребностей учителей по некоторым предметам, представляющим большой интерес для нашей страны и мирового сообщества, анализируется опыт стран, добившихся образовательных процессов.

Ключевые слова: *педагогические кадры, цивилизация, учитель, стандарты, образовательные программы, стратегия, система, структурные изменения, актуальность.*

In determining the prospects for the development of the system of educational, social and professional support for teachers on this problematic topic, due to the study of the needs of teachers in some subjects of great interest for our country and the world community, the experience of countries that have achieved educational processes is analyzed.

Keywords: *pedagogical staff, civilization, teacher, standards, educational programs, strategy, system, structural changes, relevance.*

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalar joriy qilish asosida samarali foydalanish raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalari shakllanayotgan bugungi kunda, ayniqsa, pedagog kadrlar tayyorlashning pasayib borishi oqibatida davlatlarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, ta'lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining qoniqarsiz ahvolda ekanligi, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTM, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlovchi muassasalar o'rtasidagi integratsion munosabatlardagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar oshib bormoqda.

Ijtimoiy-madaniy rivojlanishning hozirgi bosqichida madaniyatlarning intensiv o'zaro ta'siri va ta'limning rivojlanish jarayoni, ijtimoiy muammolarning globallashuvi, o'zaro bog'liqlik va xalqaro raqobatni oshirish sharoitida ta'limni modernizatsiyalash jamiyatni yangilashda yetakchi omil bo'lib hisoblanadi va ushbu omillar dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalga oshirilmoqda.

Dunyoning barcha mamlakatlarida *pedagogik kadrlarni tayyorlash davlat ta'lim siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib*, yuqori darajadagi moslashuvchanlik va mavjudlik bilan ajralib turadi. Pedagog kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish yo'lidagi izlanishlar o'qituvchilarni yuqori sifatli kasbiy tayyorlash – mamlakat kelajagi uchun eng qimmatli hissa, degan g'oyaga asoslanadi.

Ushbu muammoli mavzuda o'qituvchilar uchun o'quv, ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda mamlakatimiz uchun ham, umuman jahon hamjamiyati uchun ham katta qiziqish uyg'otayotgan ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog xodimlarni tayyorlash va ular bilan samarali ishlash tufayli yuqori pedagogik ta'lim jarayonlariga erishgan mamlakatlar tajribasi tahlil etiladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, pedagogikani jamiyatning yangi talablariga muvofiq, tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, umuman ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan isloh qilishga harakat qilinmoqda.

O'zbek pedagogik ta'limi zamonaviy shaxs talabiga javob beradi, chunki pedagogik oliy ta'limni tugatgandan so'ng maktabda ishlamasdan (ma'lum



iqtisodiy sharoit tufayli) ham bu ta'limni olgan bitiruvchi o'z bilimini boshqa sohada qo'llab keta oladi.

Agar hozirda O'zbekiston qaysidir ma'noda, o'zining ta'lim tizimini moslashtirishga harakat qilayotgan xorijiy pedagoglar tayyorlash ta'limi haqida gapiradigan bo'lsak, Boloniya jarayoni, Yevropa ta'lim muhiti bular tor doiradagi mutaxassisliklar hisoblanadi. Chet el universitetlarida, shu jumladan, Amerika pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining tor doiradagi mutaxasislari mehnat bozori ehtiyojlari va o'zgarishlariga moslashuvida, ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchi-mutaxasislarni tayyorlashda, shuningdek, *Amerika Qo'shma Shtatlari va ba'zi Yevropa mamlakatlarida ham, yaqqol muammolar paydo bo'lmoqda*. Shunga ko'ra, o'qituvchilarimizning umumiy va kasbiy malakasi yuqori bo'lganligi sababli, biz uchun pedagoglar tayyorlash tizimi hech qachon muammo bo'lmagan, buni Amerika ta'lim tizimidan xulosa qilishimiz mumkin.

Yevropa mamlakatlarida bunaqa pedagogika oliy ta'lim muassasalari yo'q bo'lsa-da, pedagogika institutlarini o'z ichiga olgan yirik universitetlar bor. Boshqa tomondan, agar oliy ta'lim muassasalarda pedagogik dasturlar mavjud bo'lib, u faqat ushbu dasturlarni amalga oshiradi. Bu farqlarga qaramay, bir qator xorijiy mamlakatlarda pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiya va isloh qilishga urinishlar umumlashtirilgan postulatlariga (isbotsiz qabul qilingan dastlabki holat) tushirilganligini qayd etish mumkin, bu, shubhasiz, ta'lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlashning ichki tizimiga tatbiq etilishi mumkin.

Yevropa standartlariga ko'ra, pedagogik ta'lim bo'lajak o'qituvchiga ko'plab *oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari tufayli ta'lim doirasida turli tarmoqlar va kasblar o'rtasida harakatlanishga* imkon beradigan yetarli darajadagi malaka bilan ta'minlashi kerak.

Finlyandiyaning o'qituvchi-pedagoglar tayyorlash tizimi ko'p mamlakatlar uchun na'muna bo'lib xizmat qiladi, o'tgan asrning oxirida o'qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal ta'lim me'yori deb belgilangan edi (shu jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham), bu esa qaysidir darajada mamlakatdagi o'qituvchilar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo'shdi.

Finlyandiya maktab o'qituvchisi bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. *Bu yerda shuni ham ta'kidlash kerakki, kichik guruhlarda o'qitishga ustuvorlik beriladi*, bu, shubhasiz, o'qitishning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi. Bu mamlakatda maktab ta'limining muvaffaqiyati maktab o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liq hisoblanadi:

Finlyandiyada ishchilar soni jihatidan ijtimoiy ishchilar va psixologlar, barcha Yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Buyuk Britaniyada ham o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan, malakali o'qituvchi maqomini olish uchun muqobil ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. *Bular shunday dastur-ki, maktab bazasida o'qituvchilarni tayyorlashadi (School Centered Initial Teacher Training), "tezkor yo'l" (The Fast Track Programs)* deb ataluvchi dasturlar va boshqalardir.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yetakchi o'rinni "aqlli maktablar, ziyoli millat" strategik dasturida o'z aksini topgan mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish paradigmasiga samaradorlik paradigmasidan ko'chgan Singapur egallaydi. *Ushbu strategiya asosiy g'oyasi insonning butun hayoti davomida o'rganish qobiliyati bo'lib*, u bilan mamlakat kelajagi uzviy bog'liq. Albatta, ta'kidlash lozimki, bu Singapurda, xuddi Finlandiyadagi kabi, misol uchun, o'qituvchilik kasbi ijodkorlik hisoblanib, bu kasb ijobiy va jamiyatda sharaflilik hisoblanadi, shuning uchun, *o'qituvchi bo'lishdan oldin, nomzodlar eng yaxshi deb tan olinishi uchun yetarlicha uzoq va murakkab tanlov jarayonidan o'tadilar.*

Xitoy maktab ta'lim tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, Xitoy dunyoda eng katta aholi soniga ega bo'lgan davlat bo'lganligi sababli ham hukumat qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ta'lim tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan. Olib borilgan islohotlar natijasida keyingi 10 yilliklarda Xitoy ta'lim tizimi katta yutuqlarga erishdi. XX asrning o'rtalariga qadar Xitoy iqtisodiyoti, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, qo'l mehnatiga tayangan holda dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilishi va ta'limda ko'proq gumanitar fanlar: falsafa, tarix va ijtimoiy sohalarga ustuvorlik berilgan.

Xitoy ta'lim tizimi, asosan, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'limdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasining "Majburiy ta'lim to'g'risidagi" qonunining qabul qilinishi barcha uchun majburiy o'rta ta'lim tizimini shakllantirdi. Yangi qonunga ko'ra 9 yillik ta'lim majburiy va bepul qilib belgilandi.

Xitoyda pedagogik ta'lim hozirda xalqaro darajaga etib bormoqda. *Rossiya, Yaponiya va AQSH tajribasidan kelib chiqib*, milliy an'analarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda *o'z tizimi yaratilmoqda*. So'nggi o'n yilliklarda Xitoyda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha tez va jadallashgan. Yo'naltiruvchi g'oyalardan biri kasbiy pedagogik kadrlar tayyorlashning iqtisodiyot va umuman jamiyat bilan aloqasini mustahkamlashga, urbanizatsiya va sanoatlashtirishga qaratildi. Bu mamlakatda pedagogik kadrlar tayyorlash ochiqligini oshirishga intilmoqda:



mavjud ta'lim muassasalari negizida boshqa oliy o'quv yurtlari ishtirokidagi pedagogik ta'lim tizimi bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

2021-yilda Xitoyda ta'lim tizimini yanada isloh qilish rejalashtirilgan, u quyidagicha amalga oshiriladi: *uzluksiz ta'limning mukammal tizimini yaratish lozim*, yuqori malakali kadrlar bunday katta aholini tayyorlash uchun tayyor bo'lishi kerak, ta'lim va ilmiy-texnik yangiliklar o'rtasida yaqindan bog'liqlik shakllanadi, mamlakat tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun zarur intellektual qo'llab-quvvatlash zarurati paydo bo'ladi.

Xitoy yoshlari uchun pedagogik oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning jozibali jihatlardan biri bepul ta'lim olishning joriy etilishi bo'ldi. Bu bepul ta'lim uchun talabalar OTMni bitirganidan so'ng *qishloq maktablarida ikki yil davomida ishlab berishi kerak va keyin boshlang'ich yoki o'rta maktablarda yana o'n yil ishlashlari lozim*. Biroq, bunday qat'iy sharoitlar o'qituvchilik kasbini olishga bo'lgan qiziqishni kamaytirmaydi. *O'qituvchilar uchun ijtimoiy imtiyozlar va yuqori ish haqi oshishi doimiy ko'zda tutilgan.*

Tahlillar ko'rsatganidek, ko'pgina mamlakatlarda pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi o'z amaliyotini rivojlantirish va butun hayoti davomida mustaqil o'rganishga qodir bo'lgan o'qituvchini tayyorlashdir.

Amerika, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida pedagog kadrlar tayyorlashdagi umumiy tendensiya o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, kasbiy malakali o'qituvchini ish bilan ta'minlash va saqlab qolish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga jalb etish, professional jamoalarni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni yo'naltirishdan iboratdir.

Angliya va AQSH universitetlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimi *ko'p darajali-bakalavr, magistraturadan iborat*. Qozog'iston va Rossiyada bakalavr, mutaxassis, magistr sifatida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimi shakllangan. Ta'lim muddati 4 yildan 11 yilgacha qilib belgilangan. Aksariyat o'qituvchilar ta'lim sohasida gumanitar fanlar magistri yoki aniq fanlar magistri darajasi bilan universitetlarni bitirib chiqadilar. O'rtacha ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha magistr darajasini olgan talabalar 4-5 yil davomida o'qiydi. Hozirgi kunda Angliyadagi davlat maktablarida ta'limning barcha darajalarida (maktabgacha, boshlang'ich, shu jumladan, tayyorlov va o'rta ta'lim sinflarida) dars berish uchun malakali o'qituvchi maqomiga ega bo'lish lozim.

Ko'pgina mamlakatlarda pedagogik kadrlar tayyorlashni va umuman ta'lim tizimini isloh qilish allaqachon amalga oshirilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyoj o'zbek

pedagogik kadrlar tayyorlashda ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, *I.D.Fruminning fikriga ko'ra, xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish yoki pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik tizimini rivojlantirishning o'ziga xos usulini izlash kerak.*

Jamiyatimizda rejalashtirilayotgan yangiliklar pedagogik ta'lim an'analarini yo'qqa chiqarmay amalga oshirilsa, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyi ancha yaxshilanadi, O'zbekistonda salohiyatli pedagogik ta'lim tizimi mavjud bo'lgan va hali ham mavjud, bu, aytish mumkin-ki, juda ham yuqori. Avvalo, pedagogika universiteti bitiruvchisi, ushbu universitet devorlarini tark etarkan, o'qituvchilik qadriyatlarni asrab-avaylaydi va keyingi avlodga uzatadi hamda mamlakatimiz fuqarolarini bilimli qilib tayyorlashda muhim bo'g'in hisoblanadi.


Jahonning qator mamlakatlarida siyosiy, tabiiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar natijasida kadrlar tanqisligi yuz berayotgan bir paytda respublikamiz kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, professional pedagog kadrlar tayyorlashning jahon integratsiyasi sharoitida ta'lim tizimini ilmiy tarkibiy o'zgarishlar asosida rivojlantirish kabi masalalar yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi, bu esa, ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Ma'lumki, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.


Jumladan, maktabgacha ta'lim qamrovining oshishi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimining joriy qilinishi hamda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ko'lamining kengayishi munosabati bilan yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan yuzaga kelayotgan ehtiyojni o'z vaqtida ta'minlash maqsadida, so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yildi, mazkur ta'lim sohasi bo'yicha xorijiy davlatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etildi.

Umumiy ta'limning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarda, ularning maqsadli yo'nalishlarida va ishlash usullarida ko'p jihatdan ularning zamonaviy yondashuvlariga o'xshamasligi haqida juda o'rinli xulosa chiqarishimiz mumkin. Ularning asosiy farqi bilimlarni ko'chirib o'tkazishga emas, balki o'quvchilarning rivojlanishiga yo'naltirishda bo'ladi, ya'ni ular ta'limni rivojlantirishning tegishli texnologiyalarini o'zlashtiradilar. Ammo kelajak uchun o'qituvchilar bugungi kunda pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi kerak.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilar soni ortgani bilan maktablar soniga nisbatan solishtirilganda 2016-2017-o'quv yiligacha -6,2%ga pasayib ketgan. Bu yilga kelib o'qituvchilarning maktablarga qaytishi sababli ushbu ko'rsatkich 15,2%ga oshgan. Shahar joylarda o'qituvchilar soni 2,2 barobarga ortgan bo'lsa, qishloq joylarda ularning soni 4,0%ga oshgan xolos. Sababi yuqori bilimli kadrlar shahar joylarda qolishmoqda.




Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 1848 taga ko'payib, 22,2% ga oshgan.




Shahar joylardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari soni yillar davomida o'sib borib, 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 2 188 taga ko'payib, *1,3 barobar oshgan*.

Umumta'lim muassasalari soni




Qishloq joylardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari soni dinamikasi yillar davomida nobarqaror bo'lib, 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 340 taga kamayib, *-5,1%ni tashkil etgan*.

Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilar soni




O'qituvchilar soni 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 142 164 taga ko'payib, *38,9% ga ortgan*.

Hududlardagi umumta'lim muassasalarining o'qituvchilar soni





Jumladan, shahar joylardagi o'qituvchilar soni dinamikasiga qarasak, shahar joylardagi o'qituvchilar soni yillar davomida o'sib borib, 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 131 786 taga ko'payib, *2,2 barobar oshgan*.



Qishloq joylardagi o'qituvchilar soni dinamikasiga e'tibor bersak, qishloq joylardagi o'qituvchilar soni dinamikasi yillar davomida beqaror bo'lib, 1990-1991-o'quv yiliga nisbatan 10 378 taga ko'payib, *4,0% ga ortgan*.

Jami umumiy o'rta ta'lim maktablari soni hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, shahar joylardagi maktablari soni yillar davomida 1,3 barobar o'sgan bo'lsa, qishloq joylardagi maktablar soni dinamikasi beqaror bo'lib, *-5,1% ga kamaygan*. Sababi, shahar joylardagi maktablarda xorijiy tillarni o'qitish, infratuzilma faoliyati nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Bitta umumiy o'rta ta'lim maktabiga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni o'rganilganda, o'rtacha ko'rsatkich 2017-2018-o'quv yiligacha kamayib kelayotgan edi. Umumiy o'rta ta'lim maktablariga o'qituvchilarining qaytishi, oylik ish xaqi miqdorlarini muntazam ravishda olayotganligi sababli, ushbu o'rtacha ko'rsatkich 7 nafarga oshgan.

Shuningdek, ayrim fanlar (7 ta fan) bo'yicha kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar o'rganilganda shu jihat ma'lum bo'ldiki, hozirgi kunda xalq ta'limi tizimidagi 5 ta hududda olib borilgan tajriba-sinov natijasida umumiy 1354 nafar o'qituvchiga bo'lgan ehtiyoj aniqlangan. Ushbu ehtiyoj umumiy kadrlarga (5 ta hudud bo'yicha) nisbatan 1,6% ni tashkil etadi.

Fanlar kesimida ehtiyojni tahlil qilsak, eng yuqori talab "Informatika va axborot texnologiyalari" (3,5%) va "Rus tili va adabiyoti" (3,4%) o'qituvchilariga, eng quyi talab esa "Boshlang'ich ta'lim" o'qituvchilariga (0,4%) ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu holatlarni bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Maorif vazirligi o'rtasida "O'zbekiston Respublikasi maktablarida rus tili fanini va umumta'lim fanlarini rus tilida o'qitish sifatini oshirish" loyihasi amalga oshirilishi belgilandi.

Mazkur loyiha doirasida O'zbekistonda faoliyat olib boradigan A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining mutaxassislari Respublikamizning barcha hududlariga taqsimlangan holda umumta'lim maktablarida rus tili fani va umumta'lim fanlarini rus tilida o'qitish sifatini oshirish bo'yicha mahalliy o'qituvchilar bilan birgalikda faoliyat olib borishadi.

TALIS-2018 tadqiqotlar natijalari asosida O'zbekistonda ham Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti rahbar va xodimlari tomonidan 2021-yilda ichki tadqiqotlar o'tkazdi. Tadqiqot namunasi mamlakatimizdagi 14 ta hududning 4000 umumiy ta'lim tashkilotlaridagi 12446 nafar respondentlardan so'rovlar olingan bo'lib, shundan 349 nafari maktab direktorlari, 1090 nafari direktor o'rinbosarlari, 10544 nafari o'qituvchilar va 463 nafari boshqa (xalq ta'limi tizimidagi boshqa lavozim) lavozimlarda ishlovchilardir. Tadqiqotlar xalq ta'limi tizimining 18 fanini o'z ichiga olgan bo'lib, "Ayrim fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilarning yetishmasligi maktab direktori yoki o'qituvchi sifatidagi samaradorligingizga qay darajada ta'sir qiladi?" degan savol bilan respondentlarga murojaat qilinganda, ta'siri yo'q-2340 (18,8%), ma'lum darajada ta'sir qiladi-2885 (23,2%), sezilarli darajada ta'sir qiladi-4676 (37,6%), yuqori darajada ta'sir qiladi-2545 (20,4%) deb javob berishdi. Tahlillardan ma'lumki, ayrim fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilarning yetishmasligi sezilarli darajada 4676 (37,6%) maktab direktori yoki o'qituvchi sifatidagi faoliyati samaradorligiga ta'sir qilgan ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog kadrlar buyurtmasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosida tarmoq samaradorligini oshirishda to'planib qolgan yuqoridagi muammolarni hal etish



bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoladi.

Demak, xalq ta'limi tizimini ehtiyoj yuqori bo'lgan fan o'qituvchilari bilan ta'minlash uchun pedagogika yo'nalishidagi OTMLarida ushbu ehtiyojlarni inobatga olgan holda qabul kvotalarining belgilanishi va talabalar OTMLarni tamomlagandan so'ng hududlarga borib, o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodiev X, Xabibullaev I. "Statistika" T. "Moliya-iqtisod" 2013.
2. www.uzedu.uz
3. www.stat.uz
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
5. <https://www.statistics.com>

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

**MUTAXASSISLARDA MAS'ULIYAT SHAKLLANISHINING
PSIXOLOGIK JIHATLARI**

Umarali QODIROV,

*Surxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy
markazi direktori, psixologiya fanlari doktori, dotsent.*



Annotatsiya

Maqolada mutaxassis mas'uliyatining dolzarbligi va xalqaro ilg'or tajribalar, mutaxassis mas'uliyati va kasbiy mas'uliyat tushunchasining psixologik ta'rifi, mutaxassislarda kasbiy mas'uliyatlilikni belgilovchi psixologik xususiyatlar hamda kasbiy mas'uliyat masalasini tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlari kabi masalalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: *mutaxassis mas'uliyati, mas'uliyatlilikni belgilovchi psixologik xususiyatlar, ijtimoiy faollik, kasbiy refleksiya, o'z-o'zini tanqid qila olish qobiliyati, faoliyatdagi ta'sirchanlik, talabchanlik, yuqori darajada rivojlangan altruizm, chidamlilik, kasbiy munosiblik, mikro, mezo, makro va meta darajalar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются такие вопросы, как актуальность профессиональной ответственности и передовой мировой практики, психологическое определение профессиональной ответственности и концепция профессиональной ответственности, психологические характеристики профессиональной ответственности у профессионалов и современные подходы к изучению профессиональной ответственности.*

Ключевые слова: *профессиональная ответственность, психологические характеристики, определяющие ответственность, социальная активность, профессиональная рефлексия, умение критиковать себя, эффективность в работе. , требовательный, высокоразвитый альтруизм, выносливость, профессионализм, микро-, мезо-, макро- и мета-уровни.*

Abstract: *The article covers issues such as the relevance of professional responsibility and international best practices, the psychological definition of professional responsibility and the concept of professional responsibility, the psychological characteristics of professional responsibility in professionals and modern approaches to the study of professional responsibility.*

Keywords: *professional responsibility, psychological characteristics that define responsibility, social activism, diligence, self-confidence, efficiency in work, demanding, highly developed altruism, endurance, professionalism, micro, meso, macro and meta levels.*

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida faoliyat sifati, avvalambor, kadrlarning intellektual salohiyati, kasbiy tashabbuskorlik hamda kasbiy mas'uliyatlilik xususiyatlarining shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Xitoy, Rossiya, Finlandiya, Daniya, Norvegiya kabi mamlakatlarda mutaxassislarning kasbiy mas'uliyatlilik xususiyatlarini shakllantirishga doir qator psixologik va amaliy – tatbiqiy izlanishlar amaliyoti keng joriy etilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini baynalmilallashtirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyatlararo munosabatlarda raqobatbardosh, kreativ (ijodiy), ijtimoiy faol, fidoyi kadrlar tayyorlashga ustuvorlik berilgan. Dunyo bo'yicha har yili 7% shaxslar turli hayotiy qiyinchiliklar tufayli o'z kasblarini boshqa kasblarga o'zgartiradilar. Bundan tashqari, xalqaro-huquqiy maqomga ega bo'lgan "Pew research center" agentligining 2021-yildagi ma'lumotiga ko'ra, sohalararo kasbiy mas'uliyatlilik sifatleri bank-moliya xodimlarida 84%, axborot texnologiyalari xodimlarida 84%, pedagog xodimlarda 59%, texnika xodimlarida 59%, harbiy xizmatchilarda 46%, tibbiyot xodimlarida 33%, san'at xodimlarida 23%, qishloq xo'jaligi xodimlarida esa 22% ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlangan. Shuning uchun ham, ushbu xususiyatni ertaroq, maktabda ta'lim olish davridan boshlab o'rganish, shaxsda kasbiy mas'uliyatlilik shakllanishining psixologik jihatlarini ilmiy – amaliy jihatdan asoslash kabi masalalar dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda.

Kasbiy munosiblik va kasbiy mas'uliyatlilik shakllanish dinamikasini o'rganish ishlari dunyo mamlakatlaridagi ko'pgina ilmiy markazlar va oliy ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jumladan, Amerika psixologlari assotsiatsiyasi tadqiqotlarida, Barri



kasb-hunar universiteti, Xalqaro Yapon fondi, Shveytsariya konsalting markazi, Germaniya federal kasbiy ta'lim va ta'lim instituti, Polsha fuqaro ta'limi markazi, Latviya kasb-hunarga o'qitish markazi, Xitoy kasbiy adaptatsiya markazi, Finlandiya oliy pedagogika instituti, Xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti, Rossiya psixologiya instituti kabi muassasalarda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan soha kadrlarini tayyorlash va ularning kasbiy kamoloti masalalari hozirga qadar jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Psixologik mazmunga ko'ra, mas'uliyat bu – majburiyatlarni bajarish va jamiyatda qabul qilingan qoidalarga rioya qilish, shuningdek, tashqi muhit ta'sirining oqibatlari to'g'risida xabardor bo'lishdir. Ya'ni, rasmiy vazifalarga nisbatan oqilona munosabatdir. Mutaxassislarining kasbiy faoliyati rasmiy hisoblanib, vazifalariga nisbatan oqilona, odilona munosabatda bo'lishi talab etiladi.

Keng ma'noda aytganda, mas'uliyat – bu inson faoliyatini tartibga solish shaklidir. Shaxs faol bo'lgan sohaga qarab, mas'uliyatlilikning turlari huquqiy, ijtimoiy, kasbiy kabi turlarga ajratiladi. Ular ichida kasbiy mas'uliyat tushunchasi o'ta ahamiyatli sanaladi. Chunki, mutaxassisning kasbiy faoliyati murakkab faoliyat turi sanalib, u shaxsdan o'ziga kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni talab etadi. Demak, mutaxassislarda kasbiy mas'uliyat hissi yuksak darajada bo'lishi nafaqat shaxs uchun balki, faoliyat sohalari uchun ham ahamiyatli bo'lgan xususiyatdir.

“Kasbiy mas'uliyat” – bu faoliyat subyekting o'z natijalariga, boshqa subyektlarga hamda o'ziga nisbatan faoliyat jarayonidagi munosabatini aks ettiruvchi xususiyatdir. Mazkur munosabatlarning mohiyati esa, kasbiy talablarning aniq va to'liq bajarilishi holati, shuningdek, mutaxassis zimmasiga olgan vazifalar bo'yicha javob berishga tayyorligi bilan tushuntiriladi.

“Kasbiy mas'uliyat” masalasiga oid e'tiborga molik tadqiqotlar sifatida V.A.Bodrov, A.G.Lutsenko hamda L.I.Dementiyar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni misol qilish mumkin.

Mualliflarning xulosalariga ko'ra kasbiy mas'uliyatning namoyon bo'lishi quyidagi jihatlarda aks etadi:

- Shaxsning mehnatga bo'lgan munosabatida – mehnatsevarlik, vijdonlilik, faollik, tirishqoqlik va harakatchanlikda;
- O'z-o'ziga bo'lgan munosabatida – xushmuomalalik, ta'sirchanlik, ishga sodiqlik, talabchanlik va hokazo;

- Boshqaruv jarayonida – o'ziga bo'lgan ishonchda, o'z-o'zini tanqid qila olish qobiliyatida va boshqaruv uslubida;
- Xarakter xususiyatlarida – axloqiylik, halollik, adolatlilik, tartiblilik, intizomlilik va hokazo.;
- Hissiy-irodaviy xususiyatlarida – qat'iyatlilik, topqirlik, xotirjamlik, jasoratlilik, vazminlilik, dadillik, mustaqillik, hissiy barqarorlik kabilarda aks etadi.

Ta'lim psixologiyasining yetakchi mutaxassisi Elena Dmitriyevna Bojovich fikricha, pedagog mutaxassislarda mas'uliyatlilik hissini yuksaltirishda muvaffaqiyatli mehnat munosabatlarini ta'minlovchi quyidagi psixologik fazilatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim:

- "Mustaqillik" bu ko'p qirrali pedagogik va psixologik jarayon, bu oddiy hodisa emas, balki insonning yuksak, sifatli va talab qilinadigan ta'lim faoliyati;
- "O'z-o'zini anglash" - bu subyektiv (ichki) jarayon, bu shaxsiy, individual (o'ziga xos) faoliyat shartlari bilan izohlanadi, shuningdek, yuqori maqsadlarni qo'yadi, ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, imkoniyat motivlaridan foydalanadi;
- "O'z-o'zini faollashtirish" - bu insonning subyektiv faoliyatida ichki motiv (harakatga keltiruvchi ichki kuch) larning kurashi bilan izohlanadi, shu tufayli bilish jarayonlari faolligi oshadi;
- "O'z-o'zini tashkil etish" - bilimlarni egallash paytida insonning aqliy qobiliyatlarida paydo bo'ladi, bu o'qituvchining muammo oldida aqliy, intellektual, hissiy qobiliyatlari, shuningdek, iroda cheklovlari va muammoni hal qilishdagi maqsadi bilan belgilanadi;
- "O'z-o'zini boshqarish" - faoliyatni boshlashda psixologik xavfsizlikni va bilim, ko'nikmalar, malakalarni dastlab idrok etish hamda oqilona, odilona qarorga kelish. Ushbu holat tufayli pedagog majburiyat va vazifalarini bajarishda jarayonlarni mustaqil ravishda boshqaradi;
- "O'z-o'zini nazorat qilish" - faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib shaxsning ma'naviy-axloqiy, aqliy darajasi, dunyoqarashi va olgan bilimlari bilan belgilanadi.

E.F.Zeer o'z tadqiqotlarida kasbiy salohiyatni ro'yobga chiqarish va kasbiy mas'uliyatning shakllanish bosqichlari masalalariga alohida e'tibor qaratib, uni kasbiy soha uchun belgilangan standart bilimlar tizimi bilan tushuntiradi.

Muallifning so'zlariga ko'ra kasbiy rivojlanish uzluksiz jarayon bo'lib, u quyidagi bosqichlardan iborat:

- Birinchi bosqich (4-12 yosh) – bolalar va o'quvchilarda kasbiy qiziqishlar va istaklar paydo bo'lish davri. Dastlabki ko'nikma va malakalarni egallash ya'ni, biror- bir faoliyat uchun tayyorgarlik bosqichi.



– Ikkinchi bosqich (12-16 yosh) – shaxsda kasbiy niyatlarning shakllanish bosqichi bo'lib, u istalgan yoki majburiy tarzda kasb tanlash jarayoni bilan yakunlanadi. Bu hodisa ayrim manbalarda kasbiy o'z-o'zini belgilash bosqichi, deb ham nomlanadi.

– Uchinchi bosqich (16-23 yosh) – kasbiy tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda o'quvchi yoki talabalar sohaga oid yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtira boradilar. Shu bilan birga, yangi ijtimoiy rol, yangi munosabatlar, yangi guruh va soha vakillari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish davridir.

– To'rtinchi bosqich (25-30 yosh) – kasbiy moslashish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichi sanalib, unda inson o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash qobiliyati, maxsus qobiliyat, o'zini o'zi takomillashtirish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy javobgarlikni anglash, o'z burchini mohirona ijro eta borish bosqichi ham hisoblanadi. Demak, kasbiy mas'uliyatning namoyon bo'lishi dinamik xarakterga ega bo'lib, har bir yosh bosqichida rivojlana boradi.

V.I.Baydenkning fikricha, shaxsda mas'uliyat hissi namoyon bo'lishining quyidagi darajalari mavjud:

– Mikro darajada – bu mas'uliyat hissining psixofiziologik asoslarida aks etib, unda shaxs o'z avtonom mavjudligini yaratadi.

– Mezo darajada – jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy me'yorlar, qonun va qoidalarining mazmunini o'zlashtirish.

– Makro daraja – bunda inson ongli mavjudot sifatida, ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida, ma'naviy tuzilma sifatida, ijodkor subyekt sifatida, intellekt egasi sifatida tan olinadi.

– Meta daraja – ushbu daraja yuqoridagi barcha darajalarni o'z mazmuniga birlashtirib, u insonga mustaqil harakat qilish, mustaqil fikrlash, boshqalarga ta'sir qila olish kabi imkoniyatlarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun mutaxassislari nafaqat jismonan barkamol, balki aqlan yetuk, ruhan sog'lom, zamonaviy axborot texnologiyalari sirlarini puxta o'zlashtirgan, o'z sohasiga oid ilg'or bilimlardan xabardor, kasbiy yo'nalgan, o'z mutaxassisligi uchun shart sanalgan kompetensiyalarga ega, yuqori darajada kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, kasbiy mas'uliyat hissini anglay oladigan, har qanday sharoitda o'z vazifalarini oqilona bajara oladigan, ijtimoiy faol hamda fidoyilik kabi sifatlarga ega bo'lmog'i lozim sanaladi.

Xalq ta'limi tizimidagi pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, ushbu qonuniyatlardan kelib chiqib, o'quvchilarning ta'lim olish sifatini oshirishga qaratilgan turli strategiya, texnologiya va metodlardan foydalana olishiga erishish, shuningdek, o'quvchi-yoshlarimizning bilimi, intellekti va kompetensiyalarini yuksak darajalarga ko'tarishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Байденко В.И. Базовые навыки (ключевые компетенции) как интегрирующий фактор образовательного процесса/В.И. Байденко, Б. Оскарссон // Профессиональное образование и формирование личности специалиста: сб. науч. труд. – М., 2002. – С. 27–34.
2. Бодров В.А. Современные исследования фундаментальных и прикладных проблем психологии профессиональной деятельности. Част 1 / В. А. Бодров // Психологический журнал. - 2008. - Т. 29. № 5. - С. 83-90.
3. Психология профессионального образования : учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / Э.Ф.Зеер. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Издательский центр «Академия», 2013. — 416 с.
4. Турахонов А.Э., Ответственность как психологический феномен // Научный форум: тенденции развития науки и общества: сборник материалов Международной научно-практической конференции (19-июн 2020-г.), – Кемерово: ЗапСибНТс, 2020 – 51 с.
5. Кодиров У.Д., Турахонов А.Э., Психологические условия профессиональной ответственности будущих специалистов // ISSN 2308-4804. Science and world. 2021. № 6 (89). Vol. II. S. 74.
6. Хасанов А.Ш., Турахонов А.Э. Мутахассисларда касбий масъулият шаклланишининг психологик хусусиятлари // PSIXOLOGIYA. БухДУ. №2, 2021. 91 б.
- 7.<https://algorithm-centr.ru/uz/history/opisanie-opyta-raboty-vospitatelya-po-professionalnomu.html>
- 8.<https://www.pewresearch.org/fact-tank/2021/01/25/even-in-industries-where-majorities-can-telework-some-face-challenges-working-from-home-during-pandemic>.
- 9.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Adaptatsiya>



PROFESSIONAL TA'LIM



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI
MUAMMOLARINI O'RGANISH VA ISTIQBOLLARINI
BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ISHSIZ XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA MEHNAT BOZORIDA XARIDORGIR BO'LGAN KASBGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI

Qodir OQILOV,

*Xalq ta'limi vazirligi Xalq ta'limi muassasalarini qurilish
va ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
boshlig'i*



Annotatsiya

Ushbu maqolada ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlashda mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasbga tayyorlashning ahamiyati hamda dolzarbligi yoritib berilgan. Jumladan, muammoning dolzarbligi va ahamiyati aholining o'sish darajasi hamda ularning bandligini ta'minlash borasidagi masalalar orqali ochib berilgan

Kalit so'zlar: *aholi, xotin-qizlar bandligi, ishsiz xotin-qizlar, kasb-hunar, mutaxassislik, "ayollar daftari", gender tenglik, mehnat bozori, mahalla drayveri, "mahallabay" ishlash tizimi, professional ta'lim, iqtisodiy o'sish, rivojlangan davlatlar, kambag'allik, pandemiya.*

В данной статье освещена важность и актуальность подготовки безработных женщин к востребованным на рынке труда профессиям. В частности, актуальность и значимость проблемы раскрываются через уровень роста населения и вопросы обеспечения его занятости.

Ключевые слова: *население, занятость женщин, безработные женщины, профессия, специальность, "женская тетрадь", гендерное равенство, рынок труда, драйвер махалли, система работы "махалли", профессиональное образование, экономический рост, развитые страны, бедность, пандемия.*

This article highlights the importance and relevance of preparing unemployed women for professions in demand on the labor market. In particular, the relevance and significance of the problem are revealed through the level of population growth and issues of ensuring its employment.

KEYWORDS: *population, employment of women, unemployed women, profession, specialty, "women's notebook", gender equality, labor market, mahalla driver, mahalla work system, vocational education, economic growth, developed countries, poverty, pandemic.*

Mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda aholining o'sish darajasi nafaqat rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan, balki rivojlangan davlatlarga nisbatan ham yuqoridir. Masalan, 1991-yilga nisbatan 2020-yilni oladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisi 7,4 foizga o'shgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3,5 foizga, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1,8 foizga, rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2,5 foizni, Tojikistonda esa 4,3 foizni tashkil etmoqda.

Bu tahlillar mamlakatimizda aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Aholining o'sish darajasi esa o'z-o'zidan tabiiy ravishda bandlik masalalarida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Aholining bandligini ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish esa mehnat bozorining samarali mexanizmlarining to'la ishlashini talab etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz misolida tahlil qiladigan bo'lsak, aholining ish bilan band qismida ayollar va erkaklar o'rtasida katta tavofut borligini ko'rishimiz mumkin. Bu gender tengligi statistikasining 2018-2019-yillardagi ma'lumotida ham o'z aksini topgan. (6-jadval)

Hudud	2018 yil			2019 yil		
	Barcha uy xo'jaliklari	shu jumladan :		Barcha uy xo'jaliklari	shu jumladan :	
		Ayollar	Erkaklar		Ayollar	Erkaklar
O'zbekiston Respublikasi	100,0	20,8	79,2	100,0	20,8	79,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,0	18,7	81,3	100,0	21,2	78,8
Andijon	100,0	22,7	77,3	100,0	22,3	77,7
Buxoro	100,0	17,3	82,7	100,0	16,4	83,6
Jizzax	100,0	21,3	78,7	100,0	17,3	82,7
Qashqadaryo	100,0	14,5	85,5	100,0	16,7	83,3



Navoiy	100,0	14,8	85,2	100,0	12,6	87,4
Namangan	100,0	20,8	79,2	100,0	19,4	80,6
Samarqand	100,0	18,6	81,4	100,0	17,6	82,4
Surxondaryo	100,0	13,6	86,4	100,0	16,9	83,1
Sirdaryo	100,0	19,4	80,6	100,0	21,7	78,3
Toshkent vil	100,0	29,6	70,4	100,0	26,9	73,1
Farg'ona	100,0	16,9	83,1	100,0	18,8	81,2
Xorazm	100,0	19,9	80,1	100,0	16,9	83,1
Toshkent shahri	100,0	32,8	67,2	100,0	33,8	66,2

Shu nuqtayi nazardan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ishsiz xotin-qizlarni mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasb-hunarga o'qitish ularning ishchanlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishga turtki bo'ladi.

Mamlakatimizda kambag'al va ishsiz xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat faoliyatiga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masala, ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida yanada dolzarblashmoqda. Sababi – nafaqat respublikamizda, balki rivojlangan davlatlarda ham pandemiya ishsizlik darajasining oshishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, aholi o'rtasida kambag'allikning o'sishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni aholining farovon turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir. Jumladan, oilaning farovon turmush tarzi xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini va ularning bandlik darajasi bilan ham bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Sababi, yuqorida keltirib o'tganimizdek, mamlakatimiz aholisining 50 foizidan ko'prog'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu ularning mamlakatimiz barqaror rivojlanishida o'ziga xos va tenglikni tashkil etadigan ulushga egaligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizning strategik maqsadlaridan biri barqaror o'sishning poydevorini yaratishdir.

Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Oliy Majlisi va xalqiga murojaatnomasida shunday degan edi: "So'nggi to'rt yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini

joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa - chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat. Shularni inobatga olib, keng qamrovli ishlarni amalga oshiramiz".

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlardan biri – kambag'allikni qisqartirish masalasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Bunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kambag'allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o'z-o'zidan hal bo'lib qolmasligini, buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suvi, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerakligini ta'kidladi.

Fuqarolar o'rtasida jumladan, xotin-qizlarning "ayollar daftari"ga kiritilganlarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "motivatsiya, ko'nikma va moliyaviy ko'mak" tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etildi. Shuningdek, uch bo'g'inli mahallabay ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim bo'yicha prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 26-yanvardagi yig'ilishda mutassaddi xodimlarga qator ko'rsatmalar bergan edi. Jumladan, hokimlar va sektor rahbarlariga "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar muammolarini hal qilish, tikuvchilik, hunarmandchilik, kasanachilik, parrandachilik va ekin maydonlaridan yer ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Savdo-sanoat palatasiga tadbirkor bo'lish istagini bildirgan "ayollar daftari"dagi 70 mingga yaqin xotin-qizlarni biznes va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish vazifasi topshirildi.

Shuningdek, 2021-yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti kamida 5 foiz o'sishi maqsad qilingan. Biroq, pandemiya sharoitida global iqtisodiyotdagi noaniqlik uzoq davom etishi mumkinligi iqtisodiy o'sishning qo'shimcha zaxiralarini topish va safarbar qilishni talab etmoqda. Bu jarayonda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash ham dolzarb masala sifatida yuzaga chiqdi. Shu bois, Prezidentimiz barcha darajadagi rahbarlarga o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi holatni o'rganish, "o'sish nuqtalari"ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Iqtisodiy kompleks vakillarini mahallaga tushirib, vertikal tizimni, barcha organlar faoliyatini o'zaro muvofiq yo'lga qo'yish orqali ishsiz fuqarolar, jumladan, xotin-qizlar o'rtasidagi ishsizlikning oldini olish, bandligini ta'minlash maqsadida, ularni mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasb-hunarga o'qitish kerakligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 3-fevralda "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra



mamlakatimizda har bir mahallada quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi yangicha ishlash tizimi joriy etildi:

- oilalarning daromad manbalarini, shu jumladan, tomorqa yerlardan foydalanish hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini "xonadonbay" o'rganish;

- band bo'lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar muammolarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi kurslarga yo'naltirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga amaliy ko'maklashish;

- yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g'oyalarini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar ajratish;

- mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni (ixtisoslashuv yo'nalishlarini) aniqlash va yangi tadbirkorlikni, shu jumladan, "drayver" loyihalarni amalga oshirishda tashabbuskorlarga ko'maklashish va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

- mavjud imkoniyatlarni (bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan yer maydonlari va bandlikning an'anaviy sohalari) o'rganish va ulardan samarali foydalanish orqali joylarda tadbirkorlik, investitsiyaviy va raqobat muhitini yaxshilash;

- samaradorlik va daromadlilik tamoyillaridan kelib chiqib, tadbirkorlarga sifatli xizmat ko'rsatish, maslahat berish va biznes-rejalarni tayyorlash uchun banklarning quyi bo'g'in xodimlarini to'liq qayta tayyorlash orqali mijozga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish ("mijozbay" ishlash) tizimini takomillashtirish;

- joylarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan (yer ajratish, qurilish uchun ruxsat berish, turli xil faoliyatlar uchun litsenziya olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik uchun ajratish, kommunikatsiya tizimlariga ulanish) muammolarni tezkorlik bilan hal etish.

Aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirishning me'yoriy-huquqiy asoslari ham ishlab chiqildi. Endilikda kambag'allik domiga tushib qolgan fuqarolar, jumladan, xotin-qizlarning kambag'allikdan chiqib ketishi uchun eng muhim omil - bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. Shu maqsadda 2021-yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etildi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga 1 million so'mgacha subsidiya berilib, buning uchun budjetdan 100 milliard so'm ajratildi.

O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar berildi. Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'nalishidan kelib

chiqib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi. Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlashga Bandlikka ko'maklashish hamda Jamoat ishlari jamg'armalaridan 500 milliard so'm yo'naltirildi.

Xotin-qizlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada prezidentimiz SH.Mirziyoyev "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini, yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta etishamiz" -degan edi.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida ularning oliy ta'lim olishi uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. 2021-yildan boshlab oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazish, a'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi.

Yoshlar tarkibiga kiradigan xotin-qizlar o'rtasida bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-2021-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda professional ta'lim tizimi joriy etildi. Professional ta'lim tizimida mehnat bozoridagi talab va xalqaro andozalarga mos yangicha kasb-hunar va mutaxassisliklar tayyorlashga yo'naltirildi.

Professional ta'limning boshlang'ich darajasi kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. O'rta darajasi kollejlarda kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'rta-maxsus darajasi texnikumlarda kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, 2 yildan



kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi hamda o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Joriy etilgan professional ta'limning afzalligi shundaki, kollej va texnikumlarda o'qiydigan talabalar, jumladan, xotin-qizlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, ta'limni ish bilan birgalikda olib borishi mumkin. Bu, ayniqsa, oilali ayollar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, 2019-yil 7-martda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga binoan 2019-yil 1-maydan nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi. Ushbu markazga bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxat asosida maxsus o'qitish dasturi bo'yicha o'qitish belgilandi.

Maxsus o'qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan xotin-qizlar orasidan tegishli tuman (shahar) Xotin-qizlar qo'mitasi raisi tavsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga 6 oylik imtiyozli davr va yillik 8 foiz stavkada imtiyozli kreditlar hududlarda aholi bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni kreditlash tartiblari asosida ajratildi. Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan tijorat banklariga har yili ajratiladigan 100 milliard so'm resurs mablag'lari ushbu imtiyozli kredit mablag'larining manbasi etib hisoblanadi. Mazkur resurs mablag'larining kamida 50 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladigan xotin-qizlarning biznesini rivojlantirishga yo'naltirildi.

Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarining amalga oshirayotgan bu kabi ishlari ularni bandligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Bu kabi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda 2020-yilning oktyabr-dekabr

oylarida “Ayollar daftari”ni shakllantirish bo'yicha 6,5 million nafar xotin-qizlar bilan muloqotlar o'tkazilgan va uning yakunlari bo'yicha 432 781 nafar ayollar daftarga kiritilgan.

Jumladan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar–253 210 nafar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlar–36 730 nafar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar - 29 072 nafar;
- uy-joyini ta'mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar–4 252 nafar;
- noturar-joylarda istiqomat qilayotgan, o'zining yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy mavjud bo'lmagan xotin-qizlar–9 223 nafar;
- qaramog'ida bir va undan ortiq I va II guruh nogironligi bo'lgan bolalari mavjud yolg'iz xotin-qizlar–8 112 nafar;
- tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar–44 113 nafar;
- huquqiy yordam olishga muhtoj xotin-qizlar–24 664 nafar;
- psixologik maslahatga muhtoj xotin-qizlar–23 405 nafar.
- Yil yakuniga qadar “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, ularning bandligini ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi:
 - 131 274 nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash choralari ko'riladi;
 - 36 394 nafar xotin-qizlar kasb-hunarga va hayotga ruhlantirish (motivatsiya berish) bo'yicha o'qitiladi;
 - 15 665 nafar xotin-qizlarga tomorqadan daromad manbayi sifatida foydalanish uchun ko'maklashiladi;
 - 69 877 nafar xotin-qizlar tadbirkorlikka jalb etiladi va ularga kredit olishga ko'maklashiladi.

Hozirgi kunga qadar “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash bo'yicha belgilangan vazifalardan quyidagilar amalga oshirildi:

- 131 274 nafar xotin-qizlardan 34 770 nafarining bandligi ta'minlandi;
- 36 394 nafar xotin-qizlardan 12 485 nafari kasb-hunarga va hayotga ruhlantirish (motivatsiya berish) bo'yicha o'qitildi;



- 15 665 nafar xotin-qizlardan 2 023 nafariga tomorqadan daromad manbayi sifatida foydalanish uchun ko'maklashildi;
- 69 877 nafar xotin-qizlardan 8 000 nafari tadbirkorlikka jalb etildi va ularga kredit olishga ko'maklashildi.

Davlatimiz xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha ularni nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasb-hunarga o'qitish, oilali va yosh bolali ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqdi hamda amaliyotga keng tadbiriq etib kelmoqda.

Endigi vazifa esa xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini kengroq ishga solgan holda kambag'allikdan chiqib ketishga astoydil harakat qilishi kerakligini yuzaga chiqardi. Bu borada buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o'zlashtirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan xotin-qizlar ham o'z turmushining farovon bo'lishini ta'minlashga harakat qilishlari talab etiladi. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar va berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda daromad manbaiga ega bo'ladigan kasb-hunarni egallashlari va shu orqali hech bo'lmaganda o'zining iste'moli uchun kerak bo'ladigan daromadni topishga intilishlari kerak bo'ladi.

Chunki bugungi pandemiya sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlari mamlakatimizdagi mehnatga layoqatli bo'lgan har bir fuqaroning bandligi bilan ham bog'liq bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bugungi kunda xotin-qizlarni xaridorgir bo'lgan kasb-hunarga o'qitish dolzarb masala sifatida o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. <https://countrymeters.info/ru/>
2. <https://review.uz/uz/post/> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning "O'zbekiston Oliy Majlisi va xalqiga" murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
3. <https://president.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi. 26.02.2021
4. <https://yuz.uz/> "Mahallabay" ishlash bo'yicha yangi tizimni tashkil etish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. 26.01.2021.
5. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotda joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi 152-sonli qarori. 19.03.2021.
6. <https://adolat.uz/frakciya/> "Aholi bandligini ta'minlash eng ustuvor vazifamiz" Oltinoy Mamirova, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosining bergan ma'lumoti. 30.12.2020.
7. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni PF-5812-sonli., 06.09.2019.
8. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, PQ-4235-sonli. 07.03.2019.
9. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlari bo'yicha Iqtisodiyot va mehnat munosabatlari vazirligi bergan ma'lumotlar. 13.04.2021.

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PUBLIC EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

Bosh muharrir:

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

Mas'ul kotib:

ABDULLAYEV Farrux Rustam o'g'li

Dizayner:

DONIYOROV Sanjar

Adabiy tahrirchilar:

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna

NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

Tahrir hay'ati:

PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich, SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich
RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna, MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna
XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich, XALIKOV A'zam Abdusalomovich
KARIMOV Farxod Erkinovich, BAXRAMOV Anvar Axrarovich
XIDOYATOVA Dilafruz Abdugaffarovna, AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich
IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich, BOTIROV Hamid Hakimovich
ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich, RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich
QODIROV Umarali Do'stqobilovich

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziya ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095, Telefon. (+998) 71 227 12 52, Faks: (+998) 71 246 06 69, web-site: www.avloniy.uz, e-mail: avloniy@xtv.uz

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Ushbu songa mas'ul – Pardayeva Mehriniso Doniyarovna

© **"Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" jurnali, 2021.**

